

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

**AMIRULLAYEVA BARNO ABDULHAQOVNA
KUDRATOVA AZIZA ISMATILLAYEVNA**

**TABIY FANLARDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI
AMALIYOTGA QO'LLASHGA O'RGATISH
METODIKASI
O'QUV QO'LLANMA**

Mazkur o‘quv qo‘llanma tabiiy fanlarni o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi namunaviy o‘quv dasturi “2.02.Tabiiy fanlarni o‘qitishda tajriba-tadqiqot ishlariga o‘rgatish metodikasi va “2.03.Tabiiy fanlarda o‘quv topshiriqlarini amaliyatga qo‘llashga o‘rgatish metodikasi” nomli modullari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, qo‘llanmada tabiiy fanlar (Science) fanining mazmun –mohiyati, darslarni zamonaviy yondoshuvlar asosida tashkil etish, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’limdan o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish va bu fanni o‘tuvchi o‘qituvchilar o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan

Shuningdek ushbu o‘quv qo‘llanmadan nafaqat tabiiy fanlar o‘qituvchilarini, oliv ta’limda bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarini tayyorlashda ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

Amirullayeva B. – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti ilmiy izlanuvchisi

Qudratova A.- Samarqand pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Qodirov T. – Samarqand pedagogik mahorat markazi dotsenti.

Xudaykulov B. – Sh.Rashidov nomidagi SamDU Optika va spektroskopiya kafedrasi dotsenti

*O‘quv qo‘llanma Samarqand viloyati PMM Ilmiy kengashining 2024-yil
dagi ___-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

Mundarija

Kirish	4
Tabiiy fanlar ta’limining maqsadi va mazmuni.....	6
Tabiiy fanlar ta’limida amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish	15
O‘quvchilarda tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari	36
Qiziqarli tajribalar va kuzatishlar olib borish	64
Fan ta’limida so‘rovga asoslangan ta’lim va 5E yondoshuvi	70
Tabiiy fanlarni o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari	81
Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihalash texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari	93
Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlaridan foydalanish	106
Tabiiy fanlarni o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish	135
Tabiiy fanlarni o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyasidan foydalanish	146
Xulosa	162
Test savollari	163
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	172

Kirish

XXI asr ilmiy va texnologik rivojlanishlar nuqtai nazaridan muhim davr sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yangilanishlar doimiy ravishda tezkor o‘zgarib turadi. XXI asr aholisi ilmiy va texnologik savodxonlikni talab qiladigan global muammolar bilan duch kelmoqda. Shuning uchun, mamlakatlarning asosiy maqsadlaridan biri — tanqidiy fikrlash, ilmiy bilimlarga ega bo‘lish, muammolarni hal qilish, metakognitiv fikrlash, qaror qabul qilish va boshqa shu kabi qobiliyatlarni rivojlantirgan ilmiy savodxon fuqarolarni tarbiyalashdir. Hozirda shaxs bilimning passiv qabul qiluvchisi emas, balki rivojlanish va o‘zgarishlarning yaratuvchisi va faol foydalanuvchisi hisoblanadi. Bu, shuni anglatadiki, odamlar ta’lim olish va o‘qitish jarayonlarida o‘z javobgarliklarini his qilishi zarur. Bunday yondashuv esa ta’lim tizimida o‘zgarishlar kiritishni taqozo etadi. Ya’ni, XXI asr o‘quvchilarini tayyorlash uchun ta’lim tizimi o‘zgarishi shart. Ta’lim sohasida yangi yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bugungi kunda o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’limdan o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlariga o‘tish jarayoni yuz bermoqda. Bu yondashuvlardan biri konstruktivizmdir, ya’ni o‘rganish jarayoni o‘quvchilarning faol ishtirokini, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini talab qiladi. Konstruktivizmga asoslangan ta’lim yondashuvlari, masalan, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), muammoga asoslangan ta’lim, so‘rovga asoslangan ta’lim kabi metodlar o‘quvchilarni global muammolarni hal qilishga, tanqidiy fikrlashga va ijodiy yechimlar topishga o‘rgatadi.

Fan ta’limining maqsadi kundalik hayot muammolarini tushunadigan, ilmiy nuqtai nazardan qaraydigan, kuzatishlar olib boradigan, analistik fikrlaydigan va bilimlarini kundalik hayotga qo‘llay oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Ta’limda ushbu maqsadga erishishda, shaxsda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiradigan, o‘zgaruvchan dunyoda moslashib yashab keta olishlariga yordam beradigan bu-tabiiy fanlar o‘qituvchilari bo‘lib, birinchi navbatda tabiiy fanlar o‘qituvchilarining o‘zini tayyorlash, ularni doimiy uzlusiz rivojlantirib borishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Yuqorida aytib o‘tilgan talablardan kelib chiqqan

holda ushbu o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi. Mazkur qo‘llanmaning vazifasi tabiiy fanlar o‘qituvchilariga, ularni ushbu fanni o‘qitishga tayyorlashda, darslarni tashkil etishda, o‘quv-tarbiyaviy ishida yordam berishdir.

Ushbu qo‘llanma ustida ishlashda bugungi kunda tabiiy fanlarni o‘qitayotgan fan o‘qituvchilari bilan suhbatlar olib borildi, seminarlar tashkil etildi va ulardagi mavjud muammolar, ushbu fanni o‘qitishdagi qiyinchiliklardan kelib chiqib ushbu muammolarning yechimlarini ko‘rsatib berishga harakat qilindi. Yurtimizdagi bir qancha ilg‘or o‘qituvchilar tajribasidan foydalanildi. Bu o‘quv qo‘llanmadan tabiiy fanlar o‘qituvchilarini qayta tayyorlash kurslarida, dars jarayonida, sinfdan tashqari mashhg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanishsa, o‘quvchilar materiya, koinot, tabiat va atrof muhit hodisalari haqidagi bilimlarni ongli va puxta o‘zlashtirishga va ularni kelajakda kundalik faoliyatlarida to‘g‘ri qo‘llashlariga yordam beradi.

1-MAVZU: TABIIY FANLAR TA'LIMINING MAQSADI VA MAZMUNI

- I** 1. Tabiiy fanlarning maqsadi va mazmuni.
2. Tabiiy fanlar (science) darsligi va ushbu fanni o'qitishda o'qituvchilarning mavjud tayyorgarlik holati.

Tayanch tushunchalar: tabiiy fanlar, XXI asr ko'nikmalari, tabiiy fanlar darsligi, tabiiy fanlar o'qituvchilari, tabiiy fanlar bo'yicha consensus.

*Men shuni tushundimki, bir narsaning nomini bilish bilan,
uni haqiqatan ham bilish o'rtasida farq bor.*

Richard Feynman

Tabiiy fanlar ta'ludging asosiy maqsadi – o'quvchilarni ilmiy ma'lumotlarga ega, atrof-muhitni va jamiyatni tanqidiy tahlil qiluvchi, ma'lumothi va mas'uliyatli shaxslar sifatida rivojlantirishdir. Tabiiy fanlarni o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarga quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga imkoniyat yaratish kerak:

- Ilm-fan va tabiiy dunyoga bo'lgan qiziqishni oshirish.
- Muammolarni hal qilish, ilmiy va ijtimoiy kontekstda qarorlar qabul qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallash.
- Ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy dalillarni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Ilmiy g'oyalarni, dalillarni va amaliy tajribalarni to'g'ri va aniq tarzda kommunikatsiya qilish.
- Analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishda babs-munozara yuritish.
- Ilm-fanning yutuqlari, kamchiliklari va uning texnologik rivojlanishdagi ahamiyatini tushunish.

- Ilm-fanning global xarakterini, fan, texnologiya va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va axloqiy omillarning ta'sirini anglash.

Tabiiy fanlar ta'limining maqsadi – kelajak avlodni tabiiy-ilmiy savodxon, mustaqil muammolarni hal qiluvchi, kreativ va tanqidiy fikrlovchi, hamkorlikda ishlay oladigan, ilmiy tadqiqotlar olib borish qobiliyatiga ega, samarali muloqot qila olish ko'nikmalariga ega shaxslar sifatida tarbiyalashdir.

Dunyo birligi. Ushbu maqsad o'quvchilarga ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam berishni maqsad qiladi. O'quvchilar ilm-fanning global ahamiyatini, uning hayotimizga ta'sirini, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, madaniy va axloqiy omillar bilan bog'liqligini anglashlari kerak. O'quvchilar ushbu maqsad orqali:

- Ilm-fanning shaxsiy, mahalliy va global muammolarni hal qilishdagi rolini tushunib, muhokama qilish;
- Ilm-fan va ilmiy tadqiqotlarning afzallikkari hamda cheklarini, hayot va jamiyatga ta'sirini baholash;
- Ilm-fan va texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni muhokama qilish;
- Ilm-fan va uning natijalarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, madaniy va axloqiy omillarga ta'sirini tahlil qilish.

Ilm-fanda kommunikatsiya. Ushbu maqsad o'quvchilarga ilmiy ma'lumotlarni samarali tarzda taqdim etish va ilmiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quvchilar ilmiy g'oyalar, bahslar, tadqiqotlar va ma'lumotlarni turli ilmiy til va uslublarda ifodalashni o'rGANISHLARI kerak. Natijada o'quvchilar:

- Ilmiy ma'lumotlarni turli ilmiy tillarda taqdim etish;
- Ilmiy ma'lumotlarni mos kommunikatsiya uslublarida taqdim etish;
- Ilmiy ma'lumotlarni turli formatlarda taqdim etish, manbalarni to'g'ri ko'rsatish;
- Ma'lumotlarni boshqarishda halollikni namoyish etish, manbalarni tan olish;

- Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari dasturlaridan foydalanib, ilmiy ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish va taqdim etish.

Ilm-fan bo'yicha bilim va tushuncha. Bu maqsad o'quvchilarga ilm fanning asosiy g'oyalarini va kontseptsiyalarini tushunishga, shuningdek, tanish va yangi vaziyatlarda ilmiy ma'lumotlarni qo'llashga imkon beradi. O'quvchilar ilmiy ma'lumotlarni baholash, tanqidiy fikrlash va ishonchlilagini tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Natijada o'quvchilar:

- Ilmiy ma'lumotlarni tanib olish va eslab qolish;
- Tanish va yangi vaziyatlarda ilmiy ma'lumotlarni tushuntirish va qo'llash;
- Tajriba ma'lumotlari va g'oyalarini tahlil qilish;
- Ilmiy ma'lumotlarni turli manbalardan (internet, gazeta maqolalari, ilmiy matnlar) muhokama qilish va uning ishonchlilagini baholash.

Ilmiy tadqiqotchilik. Ushbu maqsad o'quvchilarga ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. O'quvchilar ilmiy tadqiqot uchun savollarni aniqlash, gipotezalar yaratish va mantiqiy ilmiy asoslar bilan tushuntirishni o'rGANISHLARI kerak.

Natijada o'quvchilar:

- Tadqiqot savollarini aniqlash va ilmiy hipotezalar yaratish;
- O'zgaruvchilar, materiallar va usullarni belgilash, tadqiqot dizaynnini ishlab chiqish;
- Tadqiqot usullarini baholash va takliflar kiritish;
- Tadqiqot jarayonida ishonchli va aniqlikni ta'minlash.

Ma'lumotlarni qayta ishlash. Ushbu maqsad o'quvchilarga ma'lumotlarni to'plash, tashkil etish va qayta ishlashni o'rgatishga qaratilgan. O'quvchilar ma'lumotlarni diagrammalar, raqamli hisob-kitoblar orqali tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini egallashlari kerak. Natijada o'quvchilar:

- Ma'lumotlarni tegishli o'chov birliklari yordamida to'plash va yozish;
- Ma'lumotlarni matematik hisob-kitoblar va diagrammalarga aylantirish;
- Ma'lumotlarni turli usullarda taqdim etish va ilmiy xulosalar chiqarish;
- Tahlil natijalariga asoslangan xulosalar ishlab chiqish.

Fanlararo munosabatlar. Ushbu maqsad o‘quvchilarga ilm-fan bilan bog‘liq xavfsizlik, mas’uliyat va boshqa fanlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tushunishga yordam beradi. O‘quvchilar g‘amxo‘r va mas’uliyatli shaxslar sifatida rivojlanadi, ilmiy tadqiqotlarda xavfsizlikni ta’minlash va jamoada samarali ishlashni o‘rganadilar. Natijada o‘quvchilar:

- Ilmiy tadqiqotlarni xavfsiz va samarali o‘tkazish;
- Jamoa a’zolari sifatida ishlash, boshqalarga yordam berish, xavfsiz ish muhitini yaratish;
- Tirik va no‘tirik muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, boshqalarga hurmat ko‘rsatish.

Ushbu yo‘nalishlar tabiiy fanlar ta’limining kompleks va ko‘p qirrali maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Rivojlangan yevropa mamlakatlarida tabiiy fanlar mazmuni so‘nggi o‘ttiz yillikda milliy o‘quv dasturlarida muhim rol o‘ynamoqda. Ilmiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan va tabiiy fanlar, fan tarixi, fan sotsiologiyasi, psixologiya, falsafas bilan uyg‘unlashtirilgan ushbu tabiiy fanlar (Science) mazmuni konsepsiyasini tushunish, ilmiy faoliyatning asosiy tuzilmalari kombinatsiyasi va tabiiy fanlar ilmiy bilimlarini bilish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ilmiy savodli bo‘lishlari uchun zarurdir. Bugun zamon talabi bo‘yicha dunyoda ta’limning tabiiy fanlar siklining har bir predmeti alohida o‘rganiladigan fandan integratsiyaga, shu turdagilari fanlar bo‘yicha bilimlarning integratsiyalashuvi mazmun asosini tashkil etuvchi fanga qayta yo‘naltirilishi kuzatilmoqda. Shu jumladan bizning mamlakatimizda ham.

Respublikamizda dastlab 2020 yillarda milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish ustida ishlar boshlangandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to‘grisida” gi 134-sonli farmoni tasdiqlandi. Ushbu farmonning 3-qismi a bandida 2024-yil 1-sentabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini, shu jumladan 2022-yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar

uchun, 2023-2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlanishi belgilab qo‘yildi. Shu munosabat bilan 2022 -2023 o‘quv yilidan boshlab milliy o‘quv dasturi asosida 6-sinflarda ham Tabiiy fanlar (Science) o‘qitish amaliyotga joriy etildi. Tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishdan bosh maqsad o‘quvchilarda tabiiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish, tushunishga tizimli va yaxlit yondashuvni shakllantirish va tabiiy fanlarni o‘rganishning umumiy ilmiy metodologiyasini, ularda yaxlit ilmiy dunyoqarash shakllantirishdan iborat. Tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilari darslarda fanning mazmunini o‘rgatish uchun harakat qilib kelmoqdalar. Shuncha urinishlarga qaramay, fan o‘qituvchilari fanning mohiyatini anglashda bir fikrga kela olmayapdilar. Buning sababi shundaki, fanning tabiatini bilan bog‘liq tushunchalar, shuningdek, fan haqidagi tasavvurlarimiz va qarashlarimiz doimo o‘zgarib, rivojlanib boradi.

Komas va Olson tabiiy fanlar (Science) ni “...fan falsafasi, fan tarixi, fan sotsiologiyasi va fanning psixologiyasi kabi turli fanlar kesishadigan soha....” deb hisoblaydi. NGSS ma’lumotlariga ko‘ra, “...fan tabiiy va moddiy dunyo haqidagi savollarga javob beradigan bilish usuli va inson harakati sifatida belgilanishi mumkin va ilmiy bilimlar empirik dalillarga asoslangan bo‘lib, yangi bilimlar asosida qayta ko‘rib chiqish uchun ochiqdir....”. Tabiiy fanlar (Science) mazmun mohiyatini tushuntiruvchi yagona ta’rif mavjud emas ammo, bir oz farqlar mavjud bo‘lsada, ko‘plab tadqiqotchilar tabiiy fanlar (Science) mazmuni o‘lchovlari bo‘yicha konsensusga erishdilar. Xalqaro tabiiy fanlar ta’limi standartlari hujjalariiga va tabiiy fanlar sohasida uzoq yillar ishlagan ayrim tadqiqotchilar izlanishlariga ko‘ra, tabiiy fanlar (Science) mazmunini ifodalovchi o‘lchovlar (Lederman, Abd El Xalik, McComas) quyidagicha izohlanadi:

1. Ilmiy bilim empirik asosda va tabiiy dunyo kuzatuvalaridan kelib chiqadi: Olimlar yangi bilimlarni yaratish uchun eksperimental dalillarga muhtoj. Yangi eksperimental dalillar, ilmiy bilimlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

2. Kuzatish va xulosa chiqarish o‘rtasidagi farq: Kuzatishlar tabiat hodisalariga bevosita sezgi a’zolari orqali erishish mumkin bo‘lgan tavsiflovchi

tushuntirishlardir. Xulosalar - bu sezgi a'zolari va kuzatishlarni talqin qilish bilan bevosita erishib bo'lmaydigan bayonotlar va tushuntirishlardir.

3. Ilmiy bilimlar taxminiy, rivojlanish natijasida o'zgarishi mumkin: Ilmiy bilimlar texnologiya va axborot resurslarining rivojlanishi, yangi dalillarni qo'lga kiritish yoki mavjud dalillarni qayta talqin qilish va tushunish, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida o'zgarishi mumkin. Biz hozir to'g'ri deb hisoblagan barcha bilimlar kelajakda tan olinmasligi mumkin.

4. Ilmiy bilim insonning xulosasi, tasavvuri va ijodkorligini o'z ichiga oladi: Ilmiy tushunchalar haqiqatning aniq ko'rinishi emas, ular olimlar tomonidan o'z tasavvurlari va ijodi yordamida kuzatishlar, tajribalar va xulosalar asosida ishlab chiqarilgan tushuntirishlardir.

5. Ilmiy bilimlarga ijtimoiy va madaniy jihatlar singdirilgan: Tabiiy fanlar (Science) inson faoliyati bo'lib, unga ijtimoiy muhit, madaniy va iqtisodiy omillar, diniy va falsafiy qarashlar, siyosiy tuzilmalar va ushbu elementlarga kiritilgan ilmiy bilimlar singdirilgan.

6. Ilmiy bilim sub'ektivdir (nazariyaga asoslangan): Ilmiy bilim nazariy kelib chiqish asosida yaratiladi. Ilmiy masalalar ishlab chiqilishidan boshlab, olingan ma'lumotlarni sharhlash va ilmiy kuzatishlar nazariya bilan bog'liq. Ilmiy ma'lumotlar sub'ektivlikni o'z ichiga oladi. Olimlarning oldingi bilimlari, qarashlari, tajribalari va nazariyaga asoslangan tadqiqotlari ularning muammoni hal qilishga bo'lgan yondashuviga va kuzatuvlarni sharhleshiga ta'sir qiladi.

7. Umumjahon ilmiy metod haqidagi qarashlar: Barcha olimlar tomonidan tabiiy fanlar (Science) uchun bosqichma-bosqich qo'llaniladigan yagona ilmiy metod mavjudligi haqidagi g'oya odamlar orasida keng tarqalgan noto'g'ri tushunchalardan biridir. Fanda kuzatish, o'lchash, sinovdan o'tkazish, baholash va gipoteza qilish kabi ko'plab faoliyatlar mavjud, ammo bu faoliyatlar ma'lum bir tartibda bajarilishi shart emas. Bundan tashqari, olimlar o'z tadqiqotlarida turli usullardan foydalanishlari mumkin va ular o'z ishlarining istalgan vaqtida o'z usullarini o'zgartirishi mumkin.

8. Ilmiy qonunlar va nazariyalarning farqi: Nazariyalar tabiiy olamni kuzatishga asoslangan va tabiat hodisalarining holatlarini sabab-oqibat munosabati bilan tushuntirishga harakat qiladigan izchil tushuntirishlar majmui, qonunlar esa umumlashtirish va tamoyillardir. Hodisaning tabiatda qanday sodir bo‘lishini yoki uni kuzatish mumkinligini tasvirlab beradi.

Bir nechta rivojlangan mamlakatlar: Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Gretsya kabi davlatlar tabiiy fanlar o‘quv dasturini tahlil qilishda yuqoridagi consensusni tamoyil sifatida oladilar.

Shuningdek tabiiy fanlar (Science) dasturida amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq soatlar ajratildi hamda loyiha ishlari kiritildi. Bu o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllanishiga, kelajakda o‘z loyiha ishlarini tuza olishlariga yordam beradi. Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanayotgan davrida o‘qituvchilar yetarli darajada o‘qitish qobiliyatiga ega bo‘lish uchun o‘zlarining o‘quv metodik tayyorgarliklarmi doimiy ravishda oshirishlari kerak. Umumta‘lim va tabiiy fanlar o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish, xususan: ta’lim muassasasi va boshqa kasbiy ob’ektiv talablardan va o‘qituvchilarning o‘zlarining o‘quv metodik tayyorgarligini rivojlanish talablaridan kelib chiqadi. Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish ularning shaxsiy ehtiyojlariga aylanganda, kasbiy rivojlanish shakllari haqiqatan ham foydali bo‘ladi va o‘qituvchilarni ixtiyoriy jalb qiladi.

Topshiriqlar bilan ishlash

1-darajali topshiriqlar

1. Ilmiy usulning bosqichlarini (kuzatish, gipoteza qurish, eksperiment o‘tkazish, xulosalar chiqarish) izohlab, hayotiy misollar keltiring. O‘zingizning kundalik hayotingizda qanday ilmiy usulni qo‘llash mumkinligini tasvirlab bering.

2. Tabiiy fanlar jamiyat va insoniyat hayotida qanday rol o‘ynashini tushuntirib bering. Bunga texnologik taraqqiyot, ekologiya, tibbiyot va boshqa sohalarda tabiiy fanlarning ahamiyatini misollar bilan ko‘rsating.

3. O'zingizni qiziqtirgan tabiiy hodisani (masalan, yomg'ir yog'ishi, o'simliklarning o'sishi yoki hayvonlarning xatti-harakatlari) kuzatib, nima kuzatganingizni va qanday xulosaga kelganingizni yozib bering.

4. Oson amalga oshiriladigan ilmiy tajriba (masalan, turli suv va tuproq turlarida o'simlik ekish yoki kimyoviy reaktsiya tajribasini o'tkazish) haqida rejani tuzib, uning qanday ilmiy xulosalarga olib kelishini tushuntirib bering.

2-darajali topshiriqlar

1. “O'simliklarni o'rghanish”

Bir o'simlikning o'sish jarayonini kuzatish bo'yicha tajriba o'tkazilishi kerak. Tajriba o'tkazilishidan oldin, shunday ma'lumot beriladi:

O'simlikni tuproqda o'stirish uchun suv va yorug'lik zarur. Biroq, agar o'simlikka yetarlicha suv bermasangiz, uning o'sishi to'xtaydi. O'simlikka kuniga 10 soat yorug'lik beriladi va har 2 kunda unga suv beriladi (1-rasm).



1-rasm. O'simliklarning rivojlanishi

Savol. Tajriba davomida o'simlikning o'sishini qanday kuzatishingiz mumkin?

- a) O'simlikning bo'yi, yaproqlari va gullarini o'lchab yozib boring.
- b) Suv miqdorini o'zgartirib, o'simliklarning o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tekshirib ko'ring.
- c) O'simlikka har kuni kun bo'yicha bir xil miqdorda suv berilsa, u qanday o'sish bilan bog'liq natijalarga olib kelishini kutish mumkin?

Izohlar:

Tinglovchilar savolga ilmiy yondoshuvda javob berishi, ya’ni kuzatish, eksperimentlarni amalga oshirish va xulosalar chiqarishga o‘rganishlari kerak. Bu savol o‘simliklarning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni tushunishga yordam beradi.

2. “Ekologik o‘zgarishlar”

Tinglovchilarga quyidagi ma’lumot beriladi:

Yaqinda bir hududda katta o‘rmonning bir qismi yo‘qolgan va o‘sha hududda yangi o‘simliklar paydo bo‘lishi boshlandi. Shuningdek, hayvonlarning turlari soni kamaydi va ba’zi turlari butunlay yo‘qoldi (2-rasm).

Savol. Yuqoridagi o‘zgarishlar qanday ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?

a) Yangi o‘simliklarning paydo bo‘lishi va o‘rmonning yo‘qolishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.

b) Turlarni yo‘qotish insoniyatga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?



2-rasm. Yo‘qolib borayotgan o‘rmon.

Izohlar: Bu topshiriqda tinglovchilar ekologik muammolarni tahlil qilish va ekologik tizimdagi o‘zgarishlarning inson va tabiatga qanday ta’sir qilishini tushunishga qaratilgan. Savolga javob berishda, o‘quvchilar biologik xilma-xillik, ekosistemadagi o‘zgarishlar va inson faoliyatining ekologik ta’sirlarini hisobga olishi kerak.

Nazorat savollari

1. Tabiiy fanlar ta’limining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Nega tabiiy fanlarni o‘rganish jamiyat va shaxs uchun muhim hisoblanadi?
3. Tabiiy fanlar ta’limi o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan?

4. Tabiiy fanlar ta’limi orqali o‘quvchilarda qanday bilimlar shakllantiriladi? Misollar bilan tushuntiring.
5. Tabiiy fanlar ta’limining mazmuni qanday tuzilishga ega? Asosiy bo‘limlarini sanab bering.
6. Tabiiy fanlar ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi qanday amalga oshiriladi?
7. Tabiiy fanlar ta’limida tajriba va kuzatuvlar qanday o‘rin tutadi? Ularning ahamiyati nimada?
8. Tabiiy fanlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda qanday ijtimoiy mas’uliyat hissi rivojlanadi?
9. Tabiiy fanlar ta’limining maqsadlari ijtimoiy hayotdagi qaysi asosiy muammolarni hal qilishga qaratilgan?
10. Tabiiy fanlar ta’limida tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qanday tushuntiriladi?

2-MAVZU. TABIIY FANLAR TA’LIMIDA AMALIY KO‘NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

- 1**
- 1.Ta’limda amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish
 2. Konstruktiv yondoshuv asosida tabiiy fanlar (Science) darslarini loyihalash

Tayanch tushunchalar: konstruktiv yondoshuv, behaviorizm, kognitivizm, konnektivizm, konstruktivizm, o‘quv jarayonini loyihalash.

*Bilimning eng katta dushmani bexosdan
bilmaslik emas, balki bilimni tushunmaslikdir.*

Stefan Hobking

Hozirda fan va texnologiya inqilobi ketmoqda. So‘nggi yigirma yil ichida texnologiya ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalariga, shuningdek, ko‘proq darajada ta’lim tizimiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Sinfda biz

o‘quvchilarimizga o‘z bilimlarimizni chiziqli, didaktik tarzda taqdim etamiz, bu bolalarning mактабдан ташқаридаги ҳайотија тажрибасидан кескин фарқ қилади. Натижада о‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. O‘qituvchi fan va texnologiya asrida ma’lum o‘qitish tartib-qoidalariga amal qilishi uchun eng zamonaviy tadqiqot amaliyotini bilishi kerak. Bunday maqsadlarga erishish oson emas. Bu yangi pedagogika va globallashuv muammolarini inobatga olgan holda o‘qituvchilarni o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish va malaka oshirish dasturlarini hamda maktab ta’lim tizimini qayta tashkil etishni talab qiladi.

Ushbu fikrlar konstruktivizm nazariyasini ham o‘quv dasturlari, ham sinfdagi mashg‘ulotlar, ham malaka oshirish kurslarini loyihalashda muhim omil sifatida ta’kidlaydi.

Yangi o‘quv dasturining nazariyasi konstruktiv yondashuvga asoslangan holda, bilim va ko‘nikmalarni ҳayotiy vaziyatlarda amalga oshirish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchilar an’anaviy yondashuvdan voz kechishlari va an’anaviy o‘qitish g‘oyalari doirasidan tashqarida yangi innovatsion g‘oyalarni taqdim etishlari kutilmoqda. Konstruktiv yondashuvdan foydalangan holda, o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini ma’lumotlarni mexanik yodlashdan uzoqlashtiradilar, ularni o‘zaro hamkorlikda ishslash orqali ma’lumotni mustaqil ravishda kashf qilish asosida o‘z bilimlarini egallahga undaydilar. Shuningdek, ular kognitiv jarayonlarni rivojlantiruvchi sinfda turli xil ҳayotiy vaziyatlardan, kontekstlardan foydalanishlari kerak. Shu sababli, konstruktiv yondashuv asosida “o‘quv muhitini loyihalash ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi eng muhim omillardan biridir” . Konstruktiv yondashuv an’anaviy o‘qitishdan o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tishga imkon beradi. Konstruktivizm - bu “inson izlanishlari natijasida, ham shaxsiy, ham tajribaga asoslangan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali olingan bilim”dir.

Ta’limda konstruktiv yondashuv ta’lim muhitini - o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘quv jarayonlari va o‘quv dasturi vazifalarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Dunyo bo‘yicha ta’lim tizimi o‘quvchilarga XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish

uchun zamonaviy texnologiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. YUNESKOning 1998-yilgi Jahon ta’lim hisoboti “O‘zgaruvchan dunyoda o‘qituvchi va o‘qitish“ da konstruktiv yondashuvning tub oqibatlarini tavsiflaydi. U o‘qitish jarayonining o‘zgarishini, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonida ishtirok etish usullarini bashorat qiladi. Rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar bilan o‘qituvchilik kasbi o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘quv muhitidan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim muhitiga rivojlanmoqda. Ta’limni o‘rgatishda konstruktiv yondashuvdan to‘liq foydalanishlari uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari, vositalari va usullaridan samarali foydalanishlari kerak. Tegishli pedagogik ta’lim muassasalari va ular tomonidan ishlab chiqiladigan o‘quv dasturlari, ushbu yo‘nalishda tayyorgarlik va kasbiy rivojlanish o‘qituvchilariga rahbarlikni ta’minlashni talab qiladi. Bunda, o‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarini yanada samarali olib borishlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash maqsadida o‘quv dasturlarining sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Hayn (Hein) konstruktivismni inson o‘z tajribasidan bilimlarni qurishni qanday o‘rganish falsafasi deb ta’riflagan. Bilimni qurish jarayonida kishi o‘ziga savol berish va javoblarni topish, shu javoblarni baholash kabi bir qator bosqichlardan o‘tadi. Yangi o‘quv dasturining talablari va yuqorida aytib o‘tilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitish amaliyotida konstruktiv yondashuvni tatbiq etish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilishi kerak.

Konstruktiv yondashuv asoschilaridan biri Jon Dyu “Ta’lim bu yodlab gapirib berish emas, balki faol va konstruktiv jarayon” ekanligini ta’kidlab odamlarga haqiqiy tajriba va tafakkur orqali o‘rganishni taklif qiladi. Konstruktivism, asosan, o‘rganishning faol va interaktiv ko‘rinishidir. Konstruktivism shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining atrof olamni tushunishi boshqa birovning taqdimoti emas, balki o‘zining faol qurilishi natijasidir. Konstruktivistlar bilimni voqelikning individual konstruksiyalarining natijasi deb hisoblaydi.

Konstruktivism konsepsiyasining ildizlari klassik antik davrga borib taqaladi, u Suqrotning o‘z izdoshlari bilan bo‘lgan suhbatlariga borib taqaladi,

unda u o‘z shogirdlariga fikrlashdagi zaif tomonlarini o‘zлari anglab olishga olib keladigan savollarni bergen. Suqrot usuli hanuzgacha konstruktivist o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining o‘qishini baholash va yangi o‘quv tajribalarini rejalashtirishda muhim vositadir. Jon Dyu va Jan Piaje konstruktivizm evolyutsiyasiga olib keladigan bolalikning yoshiga mos ravishda rivojlanishi va ta’lim nazariyalarini ishlab chiqdilar. Piaje bolalarning g‘oyalarni birin-ketin mantiqiy tuzilmada shakllantirishi, bolalarning fikrlash jarayoni kattalarmikidan butunlay farq qilishi haqida xulosaga keladi. Ushbu nazariyaning ta’siri va uning qanday qo’llanilishi konstruktiv ta’lim jarayoni uchun asosiy poydevor yaratdi. Dyu ta’limni tajriba orqali o‘rganishga da’vat etadi. U shunday deb yozgan edi: “Agar siz o‘rganish qanday sodir bo‘lishini bilmoqchi bo‘lsangiz doimiy so‘rov bilan shug‘ullanining, o‘rganining, mulohaza yuriting, muqobil imkoniyatlarni ko‘rib chiqing va dalillarga asoslanib xulosa chiqaring”. So‘rov konstruktiv ta’limning asosiy qismidir. Dyuning ta’kidlashicha, o‘quvchilar bilim olishning faol ishtirokchilari bo‘lib, olinadigan bilimlar mazmunli, tartibli bo‘lishi uchun bilimlarni qayta qurish, o‘zgartirish, qayta ixtiro qilish va tajriba o‘tkazish bilan shug‘ullanadilar. Fanni o‘rganish ilmiy tadqiqotning o‘zidan kam emas, o‘ziga xos tarzda tadqiqot va konstruktiv jarayondir. Fanni o‘qitishdagi so‘nggi tendentsiyalarda “o‘quvchilar o‘z bilimlarini quradilar” yoki “o‘quvchilar o‘z bilimlarini mavjud tuzilmalar asosida shakllantiradilar” kabi iboralarni konstruktivizm nazariy jihatlarini Suqrot, Platon, Aristotel va O‘rta Osiyo olimlari Al Beruniy, Ibn Sino, Al Forobiy kabi allomalarimizning asarlarida uchratishimiz mumkin.

Konstruktivizmnинг keng qamrovli ekanligi o‘qituvchilar o‘quvchilarining qanday ma’lumotlarni takrorlashi bilan emas, balki ularda qanday yangi bilimlar va g‘oyalarni yaratish, ko‘rsatish imkoniyatlari borligini aniqlash bilan shug‘ullanishlari, buning uchun o‘qituvchilar konstruktivizmnинг quyidagi beshta asosiy tamoyiliga amal qilishlari zarurdir:

1. O‘qitishda o‘quvchilarga tegishli muammolardan foydalanish;
2. Ta’lim asosiy tushunchalar atrofida tuzilgan;
3. O‘quvchilarining nuqtayi nazarini baholash;

4. O‘quv dasturini o‘quvchilarning mavjud bilimlari va o‘zlashtira olish qobiliyatlarini inobatga olgan holda moslashtirish;
5. O‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilimini kuzatuv asosida baholab borish

Bir qancha olimlarning ishlarini tahlil qilish asosida konstruktivizmning ta’limda namoyon bo‘lishini quyidagi jadvalda tahlil qilishimiz mumkin (1-jadval).

XX asr pedagogikasi obektivizm hukmron bo‘lgan o‘rganish nazariyasiga asoslanadi. Yaxshi tuzilgan ta’lim tizimi, o‘quv maqsadlari, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, mashqlar bajarish va amaliyot, mustahkamlash, eslab o‘rganish va berilgan bilimlarni yodlash kabilalar muhim xususiyatlar edi

1-jadval

Olimlarning konstruktivizm ta’lim nazariyasiga qarashlari

Bruks (1993, 1999)	Ta’limni o‘rganish, bu ko‘proq panoramik
Kelli (1955)	Shaxsiy tuzilmalar nazariyasi - barcha bolalar olimlar kabi.
Bruner (1966)	O‘rganish faol, ijtimoiy jarayondir.
O‘zubel (1963)	Yangi material va oldingi tegishli bilimlarning o‘zaro ta’siri orqali o‘rganish.
Lev Vigotskiy (1978)	Ijtimoiy konstruktivizm ZPD (proximal rivojlanish zonasi)
Jon Dyu (1916) va Jon Piaget (1926)	Bolalik rivojlanishi va ta’lim nazariyalari
Von Glazersfeld (1987)	Falsafa, psixologiya va kibernetikadan kelib chiqqan bilimlar nazariyasi, Radikal konstruktivizm
Biggs (1999)	O‘quvchilarni mustaqil o‘quvchi bo‘lishga tayyorlash
Bada (2015)	Bolalar yodlash orqali emas, balki amalda o‘rganadilar

Ta’limning maqsadi bilim va ko‘nikmalarni egallash edi. O‘qituvchi faol va bilimlarni uzatuvchi, o‘quvchilar esa bilimlarni passiv qabul qiluvchilar edi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarda ko‘plab pedagoglar ta’limning bixevoiristik yondashuvga asoslangan o‘qitish amaliyotini tanqid qila boshladilar, chunki ushbu yondashuv hamkorlikda ishlash, bilimlarni mustaqil ravishda qurish va yangi

bilimlarni kashf qilish va ixtiro qilish uchun samarali emas edi. Ta'limda konstruktivizmning ahamiyatini anglagan holda, Milliy o'quv dasturi konstruktivistik nuqtayi nazarga, o'rganish bilimlarni qurish jarayoni sifatida ta'kidlangan. O'quvchilar o'zlariga berilgan tajribalar asosida yangi g'oyalarni mavjud g'oyalar bilan bog'lash orqali o'z bilimlarini faol ravishda quradilar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida quyidagi; behaviorizm, kognitivizm, konstruktivizm va konnektivizm kabi yondashuvlar mavjud. (3-rasm).

Ta'limda o'rganish nazariyaları


Behaviorizm	Kognitivizm	Konstruktivizm	Konnektivizm
<p>O'quvchilar passivdir: tashqi jarayonlar, ya'ni ijobjiy mustahkamlash orqali o'rganadi.</p> <p>Metodlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza • Mashg'ulot amaliyot • Eslab o'rganish • Ko'p tanlovlari testlar 	<p>Ta'lim tashqi jarayondan tashqariga chiqadi: ichki jarayon - qisqa, uzoq muddatli xotira.</p> <p>Metodlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza • Visual vositalar: Aql xaritalari, o'rganish uchun eslab qolishni osonlashtiruvchi jadvallar va h.o. • bir nechta tanlov, inshoni baholash 	<p>O'quvchi o'quv jarayonida shaxsiy (ichki), faol, ijtimoiy tajribaga asoslanadi.</p> <p>Metodlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kashf qilish • Hamkorlikda guruhlarda ishlash • Iskala • Shaxsiy tajribaga asoslangan o'z-o'zini boshqarish • tengdoshlarni baholash/ko'rib chiqish 	<p>O'quvchi tarmoq ichidagi tugunlar (kontent manbai, odamlar, guruhlar) orqali o'zini o'zi boshqaradigan o'rganishdir.</p> <p>Metodlar:</p> <p>kontent uchun o'z-o'zidan yo'naltirilgan qidiruv kontentni, manbalarni almashish spontan ta'lim guruhlari hamkorlikda bilim yaratadi</p>

3-rasm. Ta'limda o'rganish yondashuvlari

Dyu, Pijaje va Vigotskiy tomonidan taqdim etilgan faktlardan kelib chiqqan holda, ta'limga konstruktiv yondashuv o'quvchilarning faol ravishda bilimlarni individual tarzda yaratishi, tahlil qilishi va qayta tashkil etishidir. Konstruktivizm Pijajenning kognitiv rivojlanish nazariyasida va Vigotskiyning ijtimoiy-kontekst nazariyasida, shu jumladan, ikkalasining kombinatsiyasidan kelib chiqadi (4-rasm).

1970 va 1980-yillarda Von Glazersfeldning nuqtayi nazari radikal konstruktivizmni rivoylantirishga yordam berdi, bu bilim passiv ravishda qabul qilinmaydi, balki bilish subyekti tomonidan faol ravishda shakllantiriladi. Biz o'quvchilarga shunchaki ma'lumot berishning o'zi yetarli bo'limgan davrda yashayapmiz, o'qituvchilar o'z rollarini o'zgartirishi, o'z faoliyatini tahlil qilib borish va rejalashtiruvchi bo'lishlari kerak. Shuningdek, o'quv jarayonini to'g'ri

tashkil qilib, o‘qitishni samarali qilish uchun qanday strategiyalardan foydalanishni aniq bilishlari kerak.



4-rasm. Piyaje va Vigotskiy konstruktivizm nazariyalari kombinatsiyasi

Ko‘pgina tadqiqotchilar konstruktiv ta’lim strategiyalarining o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini samarali ravishda qo‘llash va natijalarga erishish imkoniyatini ko‘rsatdilar. Hozirgi kunda, bir qator ta’lim tadqiqotchilarini bilimning qanday qabul qilinishi o‘rniga, bilimlarning qanday tuzilishi va shakllanishi haqida fikr yuritmoqdalar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘rganish dunyo bilan bog‘liq tushunchani yaratishdir. Ta’lim o‘z-o‘zini boshqarish orqali amalga oshiriladi va o‘qituvchilarning vazifasi bolaning o‘rganishini osonlashtirish va uni yo‘naltirishdir. O‘qituvchi konstruktiv ta’lim orqali bolalarni o‘zlarida mavjud bilimlarini tanqidiy tahlil qilishga va nima bo‘layotganini so‘rashga undaydigan muammoli vaziyatlarni o‘rnatish orqali kognitiv nomutanosiblikni rivojlantirishga intiladi. Bolalar oldingi tushunchalariga asoslanib, vaziyat haqida

bashorat qilishga harakat qilishadi. Bu bashoratlar ish bermasa, bolalar avvalgi bilimlarini qayta ko'rib chiqadilar.

Konstruktiv yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarni kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishga undashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari u faol o'rganishni talab qiladi, mavjud muammolarni hal qilish, mavjud savollarga javob berish, tabiiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi va o'quvchiga o'zi tanlagan sohada mutaxassis yoki professional sifatida ishlash imkoniyatini beradi. Ta'limda konstruktiv yondashuv o'quvchilarning tushunish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni mavjud muammolarni o'yashga, savol berishga, javob izlashga o'rgatadi. Bu o'qituvchilarni o'quvchilarga tanqidiy fikrlovchi, ijodkor va bilim yaratuvchisi bo'lishga yordam berish uchun yangi rollarni olishga undaydi.

Konstruktivizm, asosan, bilish va o'rganish qanday amalga oshirilishi bilan qiziqadigan paradigmadir. Konstruktiv paradigmaga ko'ra, odamlarning bilimlari o'zlarining tajribalari asosida ishlab chiqilgan talqinidir. Boshqacha aytganda, odamlar bilimni tashqaridan olmaydilar, o'zlari yaratadilar.

Konstruktivizm nuqtayi nazarining muhim kontsepsiysi shundan iboratki, o'rganish kontekstda (haqiqiy dunyo tajribasi) sodir bo'ladi va bilim tajriba ichiga singdiriladi. Ta'limning maqsadi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan ta'lim strukturasini aniqlashdan ko'ra, vazifani to'g'ri ishlab chiqishdir. Agar ta'lim unga bog'langan kontekstga ega bo'lmasa, bilimlarning o'zlashtirilishiga kafolat yo'q.

Ta'lim sohalarida konstruktivizm hamkorlikdagi ta'lim, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim, tadqiqot o'tkazish va izlanish kabi ko'plab ta'lim modellarini ishlab chiqishning falsafiy asosi sifatida qaraladi.

"Men hech qachon o'quvchilarimga o'rgatmayman, men faqat ular o'rganishlari mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlashga va osonlashtirishga harakat qilaman..." deb yozadi Albert Eynshteyn. Konstruktiv o'qituvchining roli o'qituvchilikdan fasilitatorga sezilarli darajada o'zgaradi. Fasilitatorlar o'quvchilarga konstruktiv muhit yaratish va bu muhitni boshqarish uchun bir nechta ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Uning roli "markazdagi donishmand" emas, balki "yon tomondagi boshqaruvchi" kabi bo'ladi. O'qituvchi bilishi

kerakki, “bir o‘lcham hammaga to‘g‘ri kelmaydi” shunga mos ravishda muammoni hal qilish, hamkorlikda o‘rganish, izlanish va tadqiqot o‘tkazishga asoslangan, so‘rovga asoslangan ta’lim, kvestlar, faoliyatga asoslangan ta’lim kabi turli xil o‘qitish strategiyalari kerak. O‘quvchilarning turli ehtiyojlariga qarab ishlab chiqilishi, tabaqalashtirilgan ta’limdan foydalanishi kerak, chunki o‘quvchilarning egallagan oldingi bilimlari, qarashlari, o‘zlashtirish darajalari va boshqalar turli darajada bo‘ladi. Ta’limni muammoni hal qilish uchun boy, hayotiy va tabiiy muhit bilan birlashtirish kerak. Bu yerda o‘qish va o‘rganish mas’uliyati faqatgina o‘quvchilarga yuklanmaydi. Xuddi shunday mas’uliyat o‘qituvchilarga ham yuklanadi. O‘qituvchi aytadi, fasilitator so‘raydi; o‘qituvchi old tomondan ma’ruza qiladi, fasilitator orqa tomondan qo‘llab-quvvatlaydi; o‘qituvchi belgilangan o‘quv rejasiga muvofiq javob beradi, fasilitator ko‘rsatmalar beradi va o‘quvchining o‘zi xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratadi, o‘qituvchi monolog asosida dars o‘tadi, fasilitator o‘quvchilar bilan uzlusiz muloqotda va hamkorlikda bo‘ladi. Konstruktiv o‘qituvchi butun sinf davomida o‘quvchilarni doimiy va har tomonlama baholay bilishi kerak. O‘quvchiga muammo va uni hal qilish jarayoniga egalik qilishi uni mustaqil fikrlovchi, tabiiy savodxon bo‘lib yetishishida qo‘llab-quvvatlashdir. O‘qituvchi ta’limda o‘quvchilarni faol ishtirokchisi sifatida ko‘rishi, ularda o‘z bilimlarini yarata olishi va qurish ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak. Bunga maslahatchi, murabbiy va fasilitator kabi bir nechta vazifalarni o‘z zimmasiga olish orqali erishish mumkin. O‘qitish jarayoni faollashadi, fasilitatsiya xususiyatlariga iliqlik, ishonch, empatik so‘zlar va harakatlarda haqqoniylilikni ta’minlaydigan muhit kiradi.

Konstruktiv nuqtayi nazardan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini olim yoki kashfiyotchi deb hisoblashi uchun, uning o‘zi tadqiqotchi bo‘lishi kerak. Sinfda tadqiqotchilik muhitini yarata bilishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan, Ingold o‘qituvchilar tadqiqotchilar bo‘lishi kerakligini aytadi, chunki fan va tajribalar asosida tadqiqot o‘tkazish orqali o‘qitish bir biri bilan uzviy bog‘liq, shuningdek, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lolmaydi, bu esa o‘qituvchilarning kelajak avlod olimlari yetishining asosiy sababchilaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagoglar malakasini oshirish ko‘p tarmoqli soha bo‘lib, unda pedagogika, psixologiya, mutaxassislik va shunga o‘xhash boshqa fanlardan o‘qitish mazmuni asosiy nazariyalarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘qituvchilar ta’limiga alohida e’tibor talab qiladi. Hozirgi vaqtida o‘qituvchilar ta’limi ushbu fanlarda ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar bilan hamqadam emas, balki hali ham eski nazariyalarga amal qilmoqda. O‘qituvchilar o‘qitish jarayoni ta’lim muassasalarida, asosan, an’anaviy ma’ruza usullariga asoslangan bo‘lib, ular raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yangi avlod o‘quvchilari uchun mos emas. Hozirgi o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi globallashgan va yuqori texnik dunyoning bir qismi bo‘lgan o‘quvchilar bilan muomala qila oladigan o‘qituvchilarni ta’minalashni talab qilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari ta’limi dasturiga hali konstruktiv nazariyalar bo‘yicha ma’lumotlar kiritilmagan. O‘qituvchilarga ham o‘qitish sohasidagi so‘nggi yangiliklar bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi kerak. O‘qituvchilar ta’limida yangi g‘oyalarni yaratish, o‘z bilimlarini qurish uchun konstruktiv muhit mavjud emas. O‘qituvchilar hozirgi va kelajakdagagi o‘quvchilar uchun o‘tmishdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha tayyorlanmoqda. O‘qituvchi ta’limining amaliy qismiga kamroq e’tibor beriladi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi farqni kamaytirish uchun o‘qituvchilar ta’limi va maktab ta’limi o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatalishi kerak. An’anaviy ta’lim-tarbiya jarayonlarini innovatsion, samarali yondashuvlarga aylantirish zarur. Bundan tashqari, fan o‘qituvchilari uchun konstruktiv muhitga ilmiy tushunchalarni tajriba qilish, yangi g‘oyalarni yaratish va qurish uchun katta imkoniyatlar berilishi kerak. Yuqoridagi fikrlarga asoalanib o‘qituvchilar faoliyatidagi an’naviy va konstruktiv ta’lim o‘rtasidagi farqlar tahlil qilishimiz mumkin (2-jadval).


Konstruktiv yondashuv o‘quvchilarning axborotni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda faol ishtirok etishlari, hamkorlik qilishlari, tadqiqot topshiriqlari va loyihalari ustida guruhlarda ishlashlari, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va nuqtayi nazarlarini ifodalashlari uchun o‘rin berishlari hamda muammolarni yechishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2-Jadval.

O‘qituvchilar ta’limida zarur bo‘lgan asosiy o‘zgarishlar

An’anaviy ta’limdan	Konstruktiv ta’limga
Belgillangan o‘quv reja va qat’iy tartib intizomga rioya qilinadi	O‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinadi.
Asosan takrorlashga qaratilgan bilim olish	O‘rganish interaktiv bo‘lib, o‘quvchi o‘zida mavjud bilimlarga tayanadi.
O‘qituvchiga qaratilgan	O‘quvchlarga qaratilgan
O‘qituvchi tayyor bilimlarni o‘quvchiga uzatadi (passiv o‘rganish)	O‘qituvchi yo‘naltiruvchi bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini qurishlariga yordam beradi (faol o‘rganish).
O‘qituvchining roli ko‘rsatmali bo‘lib, hokimiyatga asoslangan.	O‘qituvchining roli faollashtiruvchi, muzokaralarga asoslangan.
Bilim “berilgan” va mustahkamlangan	Bilim rivojlanish va yaratilish jarayonida
O‘quvchilar asosan yolg‘iz ishlaydilar	O‘quvchilar asosan guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar

Quyida konstruktiv ta’lim texnologiyalari asosida ilmiy tadqiqotlar o’tkazish bo‘yicha tabiiy fanlar modulli o‘qitish o‘quv dasturlariga kiritilgan “Tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda o‘qituvchilarda ilmiy tadqiqotlar o’tkazish ko‘nikmasini rivojlantirish” mavzusi loyihalashtirilgan (5-rasm). Bunda o‘qituvchilarning tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda ilmiy tadqiqotlar o’tkazish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarga qarshi kurashish, o‘qituvchilarning bilim va konstruktiv yondashuv asosida ilmiy tadqiqotlar o’tkazish bo‘yicha ishonchini qanday oshirishimiz mumkinligini o‘rganadi.



5-rasm. O‘quv jarayonini loyihalash

1-bosqich (7 min). Kirish bosqichida mavzu yozilgach mavzudan kelib chiqib mashg‘ulotning maqsadi belgilab olinadi.

Maqsad: 6-sinfda tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda ilmiy tadqiqotlar o’tkazish ko‘nikmasini shakllantirish.

Tinglovchilar olti kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linadilar. Guruhlarga flipchartlar tarqatiladi. Bugungi darsdan ularning nima kutayotganligi,

maqsadlarini yozishlari va uni doskaga yopishtirishlari so‘raladi. Tinglovchilarni diqqatni jalb qilish, idrokni uyg‘otish uchun Stroop effekti deb nomlangan metoddan foydalanamiz.

Stroop effekti. Ushbu metod diqqat, idrok, o‘qish va nomlashni o‘z ichiga olgan fikrlash jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgandir. Ushbu metod quyidagicha amalga oshiriladi. Ekranga quyidagi 6-rasm va 7-rasmlar chiqariladi.

**QIZIL YASHIL KO‘K SARIQ PUSHTI SABZI RANG
KO‘K YASHIL KO‘K YASHIL SARIQ SABZI RANG
KO‘K MALLA QIZIL KO‘K SARIQ YASHIL
PUSHTI SARIQ YASHIL KO‘K QIZIL**

6-rasm.

- **QIZIL YASHIL SARIQ PUSHTI**
- **SABZI RANG KO‘K YASHIL KO‘K OQ**
- **YASHIL SARIQ SABZI RANG KO‘K OQ**
- **MALLA QIZIL KO‘K SARIQ YASHIL**
- **PUSHTI SARIQ YASHIL KO‘K QIZIL**

7-rasm. Stroop effekti

Birinchi ekranga chiqarilgan rasmdagi so‘zlar o‘z rangi bilan yozilgan, ikkinchi marta chiqarilgan ekrandagi rasmda esa yozilgan so‘zlar o‘z rangida emas.

Vazifa quyidagicha: tinglovchilar ekranga chiqarilgan so‘zlarni o‘qishi kerak emas, aksincha so‘zlarning rangini aytishi kerak. Misol uchun, agar “KO‘K” so‘zi qizil rangda yozilgan bo‘lsa, siz “QIZIL” deb aytishingiz kerak. Iloji boricha tezroq ranglarni aytishlari kerak. Bunda birinchi ekranga chiqarilgan so‘zlar rangini aytishadi, keyin ekranga chiqarilgan ikkinchi so‘zlar to‘plamini ranglarini aytishadi. Ikkinchi ekrandagi so‘zlar rangini aytish birinchisiga qaraganda qiyinroq bo‘ladi.

Mashhur “Stroop effekti” 1930-yillarda ushbu hodisani kashf etgan J. Ridli Stroop sharafiga nomlangan. Ushbu metod inson qobiliyatiga kuchli ta’sir qiladi. Inson miyasi qabul qiladigan turli xil ma’lumotlar o‘rtasidagi aralashuv muammoni keltirib chiqaradi. Stroop effektini tushuntiruvchi ikkita nazariya mavjud:

1. Qayta ishslash tezligi nazariyasi: chalkashlik, so‘zlar ranglarning nomlanishidan ko‘ra tezroq o‘qilishi tufayli yuzaga keladi.

2. Tanlangan e’tibor nazariyasi: shovqin ranglarni nomlash so‘zlarni o‘qishdan ko‘ra ko‘proq e’tibor talab qilganligi sababli yuzaga keladi.

Tinglovchilar diqqatini jalb qilgandan keyin mavjud bilimlarni aniqlash uchun ochiq so‘rov o‘tkaziladi.

1. Siz bugungi mavzudan nima o‘rganmoqchisiz?
2. Ilmiy tadqiqotlar bilan tabiiy fanlar (Science)ning qanday bog‘liqligi bor?
3. Ilmiy tadqoqlarni faqat olimlar o‘tkazadimi?
4. Ilmiy tadqiqotlarni qanday o‘tkazish mumkin?
5. Ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi doimo bir xil bo‘lishi kerakmi?
6. Qanday ta’lim texnologiyalari asosida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish mumkin?

Tinglovchilar javobi asosida ulardagi mavjud bilimlar va kamchiliklar aniqlanadi. Ularni faollashtirish va yangi ma’lumotlar izlab topishlari uchun ma’lum vaqt beriladi. Bu vaqt mobaynida tinglovchilar guruhlarda o‘zaro hamkorlikda fikr almashadilar, internet saytlari va qo‘sishimcha adabiyotlardan ma’lumotlarni topish asosida o‘zida mavjud kamchiliklarni to‘ldiradilar. Ularda asosiy tushunchalar shakllanadi.

2-bosqich (10 min). Tashkiliy texnologik bosqichda tinglovchilar ilmiy tadqiqot o‘tkazishga tayyorlanadi. Konstruktiv ta’lim texnologiyalari (PjBL, PBL, so‘rovga asoslangan ta’lim texnologiyasi) haqida yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida tushunchalar berib o‘tiladi. Ushbu texnologiyalar asosida qanday qilib ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish usuli haqida ham ma’lumotlar beriladi.

Ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish usuli asosan yetti bosqichdan iborat bo‘ladi. Bu degani har doim ham ilmiy tadqiqot bir xil yetti bosqichda o‘tkaziladi degani emas. Fan turi, qo‘yilgan muammo va fanning muayyan sohasiga tegishli qonunlarga asoslanib, bosqichlar o‘zgarishi mumkin. Bizning ilmiy tadqiqotimizda o‘tkaziladigan tadqiqot bosqichi quyidagi rasmda keltirilgan (8-rasm).

1. *Savollar qo‘yish*. Ilmiy tadqiqot o‘tkazishda birinchi qadam to‘g‘ri savol qo‘ya olishdir. Bu savollar quyidagi so‘zlar bilan boshlanishi mumkin: Nima, qachon, kim, qayerda, nima uchun yoki qaysi. Ushbu savollarga tajriba natijasi orqali javob berilishi kerak.

2. *Tadqiqotni amalga oshirish*. Savollar shakllantirilgandan so‘ng, dastlabki tadqiqotlar o‘tkaziladi. So‘ralgan savol va muammo xususiyatiga qarab ma’lumotni online qidiruvlar, kutubxonalardan topish mumkin.

3. *Gipoteza yaratish*. Gipoteza bu- qo‘yilgan savolga javob berishi mumkin bo‘lgan ilmiy bilimlarga asoslangan taxmin. Ikkinci bosqichda to‘plangan ma’lumotlar va o‘zida mavjud bilim va tajribalar asosida gipoteza yaratiladi. Ushbu gipoteza tajriba va tadqiqot orqali o‘lchanishi mumkin bo‘lgan taxminlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.



8-rasm. Ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish bosqichi

Ikkinci va uchinchi bosqich eng muhim bosqichlardan hisoblanadi. Chunki ta’lim oluvchilar ushbu bosqichda o‘zida mavjud bilim, tajribalarni tahlil qiladilar, kamchiliklarini aniqlaydilar va o‘rganilgan yangi ma’lumotlar, boshqalar bilan o‘zaro fikr almashish natijasida o‘z bilim doirasini kengaytiradi.

4. *Tajriba o'tkazish*. Tajriba o'tkazish orqali gipotezalar sinab ko'riladi. Bunda albatta tajribani o'tkazish qoidalariga rioya qilish zarur.

5. *Kuzatishlar olib borish*. Ilmiy jarayonni baholash va barcha tajriba sinov jarayonida sharoitlar bir xil bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Tajriba tugagandan so'ng natijalar aniq bo'lishi uchun uni yana bir necha marta takrorlash kerak.

6. *Natijalarni tahlil qilish*. Bu bosqichda tajriba natijalari olinadi va ular gipotezaga mos keladimi yoki yo'qmi aniqlash uchun ularni tahlil qilishimiz kerak. Agar biz kutgan natijani bermasa biz yangi gipoteza yaratishimiz ya'ni to'rtinchis bosqichga qaytishimiz, yangi tajriba o'tkazishimiz lozim. Agarda natija bizni taxminlarimizga mos kelsa ularni taqdim etishimiz mumkin bo'ladi.

7. *Artefakt yaratish*. Xulosalarni taqdim etish turli ko'rinishda bo'lishi mumkin; taqdimot shaklida, hisobot shaklida yoki maket ko'rinishida.

3-bosqich. Ilmiy tadqiqot o'tkazish bosqichida hozirda butun dunyoda dolzarb muammoga aylangan suv tanqisligi muammosi tinglovchilar bilan bиргаликда о'заро kelishilgan holda loyiha asoslangan ta'lim texnologiyasi asosida "Toza ichimlik suvini olish" bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkaziladi. Bu loyiha ishini bajarishda dastlab o'qituvchi tomonidan toza ichimlik suvini olish bo'yicha turli xil loyiha ishlari aniqlanadi va kerakli jihozlar oldindan tayyorlab qo'yiladi (1-2-3 loyihalar).

1-loyiha. Qaysi filtrlash materiali orqali eng toza ichimlik suvi olinadi? (9-rasm).

Kerakli jihozlar: kukunli faol ko'mir, bo'laklangan faol ko'mir, plastik stakanlar, oziq ovqat uchun ishlatiladigan rangli bo'yoq, qoshiq, suv, kofe filtrlari, kauchuk rezina, o'lchov stakani, elektron tarozi, menzurka, qog'oz sochiqlar.



9-rasm. 1-loyiha ishi.


2-loyiha. Tuman tutqichi bilan toza suv yig‘ish (10-rasm). Kerakli jihozlar. Kiyim ilgich, kapron, skotch, shisha idish (stakan), qum, suv purkagich, suv, elektron tarozi, laboratoriya daftari, qog‘oz, qalam.



10-rasm. 2-loyiha ishi

3-loyiha. Toza ichimlik suvini olish (11-rasm).

Kerakli jihozlar: grafin, voronka, doka, paxta, faollashtirilgan ko‘mir, rezinka, daryo qumi.



11-rasm.3-loyiha ishi

Tinglovchilarga toza suvni qanday olish mumkinligi to‘g‘risidagi videorolik namoyish qilinadi (12-rasm). So‘ngra tinglovchilarga dunyoda ekologiyaning buzilishi, suv tanqisligi va uning oqibatlari nimaga olib kelishi mumkinligi haqidagi kontekstlar guruhlarga tarqatiladi (<https://kun.uz>, <https://www.nature.com> kabi saytlardan va xalq so‘zi gazetasidan olingan ma’lumotlar asosida). Ular uni muhokama qilib tahlil qilishadi va muammoni aniqlaydilar va o‘zlarining loyiha ishini yaratadilar.



12-rasm. Videororlik

Misol uchun:

Loyiha ishi: Iqlim o‘zgarishi sharoitida toza ichimlik suvini olish.

Muammo asosida savollar qo‘yiladi:

- 1) Suvning ifloslanishiga nimalar ta’sir ko‘rsatadi?
- 2) Kundalik hayotda iste’molga yaroqsiz holga kelib qolgan suvdan qanday toza ichimlik suvi olish mumkin?
- 3) Toza ichimlik suvi olishning yana qanday yo‘llari bor?

O‘qituvchi loyihami bajarish uchun ma’lumotlarni qanday topish mumkinligi bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Tinglovchilar savollar asosida guruhlarda muhokama qiladilar, o‘zlarida mavjud bilim va tajribalar, onlayn qidiruvlar (<https://www.Sciencebuddies.org>, <https://ru.khanacademy.org>, <https://www.xanakademiyasi.uz>), darsliklar (3-6 sinf Tabiiy fanlar darsligi), qo‘srimcha adabiyotlar asosida ma’lumotlar to‘playdilar. Ma’lumotlar asosida gipoteza yaratadilar. Gipotezadan kelib chiqib guruh a’zolari loyiha ishi uchun

kerak bo‘ladigan asbob va jihozlarni aniqlab oladilar va tajriba o‘tkazish bosqichlarini tuzib chiqadi.

Kerakli jihozlar: Grafin, voronka, doka, paxta, faollashtirilgan ko‘mir, rezinka, daryo qumi (yuvib, tovada qizdirib quritilishi kerak).

Ishni bajarish tartibi

1. Grafinni og‘ziga voronkani qo‘ying.
 2. Dokadan ikki qavat qilib qirqib olib voronkaning ichiga yoyib joylashtiring.
 3. Dokaning ustidan paxtani taxlab qo‘yamiz.
 4. Paxtaning ustidan yana bir qavat doka yozing.
 5. Doka ustidan 10 dona faollashtirilgan ko‘mir tabletkalarini tashlang.
 6. Paxta va faollashtirilgan ko‘mir ustidan yana ikki qavat dokani yozib qo‘ying.
 7. Oldindan tayyorlab qo‘yilgan qumni doka ustiga zichroq qilib joylashtiring.
 8. Qumni ustidan yana ikki qavat doka yoyib chiqing. Dokani olganda kengroq qilib kesing, dokaning chetlari voronkadan chiqib tursin.
 9. Dokaning chetlarini rezina bilan mahkamlang.
 10. Doka ustidan ichishga yaroqsiz suv quying.
 11. Filtrdan oqib tushgan suvning tozaligini kuzating.
- Guruh a’zolari birgalikda tajribani bajaradilar.
- Filtrlangan suvni guruhingizda muhokama qiling. Haqiqatda ichishga yaroqli yoki yaroqli emasligini aniqlang.
- Har bir guruh a’zolari o‘zлari bajargan loyiha ishlarini namoyish qiladilar va guruhlararo o‘zaro fikr almashadilar.

4-bosqich. Yakuniy. Har bir guruh boshqa guruh bajargan loyiha ishidan kelib o‘sha guruhga loyiha ishi bo‘yicha o‘zlarida paydo bo‘lgan tushunmovchiliklar bo‘yicha savol va topshiriqlar beradilar. Misol uchun:

1. Foydalanilgan faol ko‘mirning inson sog‘lig‘iga ziyoni yo‘qmi?
2. Kanalizatsiyadan oqayotgan suvni ham ushbu usulda tozalash mumkinmi?

3. Faol ko‘mirdan foydalanishning aniq o‘lchami bormi?.....

Savollarga berilgan javoblar ilmiy asoslanishi kerak. Guruhlarga topshiriqlar beriladi:

1) bugungi ijtimoiy muhit, hayotiy jarayonlardan kelib chiqib kontekstlar tuzing.

2) guruhlar o‘zaro tuzgan kontekstlaringizni almashing.

3) olgan kontekstlarni tahlil qiling va muammo yaratting.

Guruhsiz o‘zaro bir birlarini baholaydilar. Ushbu jarayonda tinglovchilarga baho qo‘yilmaydi ammo ular baholab boriladi. Tinglovchilar faolligini rag‘batlantirib borish, ularning savollarini befarq qoldirmaslik, guruhning muhim a’zosi sifatida qarash ularda o‘rganishga nisbatan motivatsiyaning ortishiga olib keladi.

5-bosqich. Yakuniy bosqichda har bir guruhsiz qiladilar va dars jarayoni xulosa qilinadi. Tinglovchilarning fikrlari so‘raladi. O‘zlarini kutgan maqsadlariga erishgan bo‘lsalar doskaga yopishtirishgan flipchartlarini olishlari mumkinligi aytiladi. Doskada qolgan flipchartlar asosida o‘qituvchi dars jarayonida nimalarni e’tiborsiz qoldirgani, tinglovchilarning qay darajada kutgan maqsadiga erishganligini xulosa qiladi.

Topshiriqlar

1-guruhsiz

“Havo tarkibi va uning ahamiyati” mavzusini loyihalashtiring

2-guruhsiz

“Energiya va uning o‘zgarishi” mavzusini loyihalashtiring

3-guruhsiz

“Jismning harakati va kuchlar” mavzusini loyihalashtiring

4-guruhsiz

“Ekosistemalar va ularning barqarorligi” mavzusini loyihalashtiring

Nazorat savollari

1. Tabiiy fanlar ta’limida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi nima?

- 2.Tabiyy fanlarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarga qanday foyda keltiradi?
 3. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda laboratoriya ishlarining ahamiyati qanday?
 4. Tabiyy fanlarda amaliy mashg'ulotlar o‘quvchilarni qanday mas'uliyat va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o‘rgatadi?
 5. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun tabiyy fanlar darslarida qanday uslublardan foydalanish mumkin?
 6. Tabiyy fanlarni o‘rganishda eksperiment o‘tkazish orqali qanday amaliy ko‘nikmalar rivojlantiriladi?
 - 7.Qanday qilib o‘quvchilarni tabiyy fanlar bo‘yicha mustaqil tadqiqotlar o‘tkazishga rag’batlantirish mumkin?
 8. O‘quvchilarda tabiyy fanlar bo‘yicha amaliy tajriba va kuzatuvlarni olib borish ko‘nikmasini qanday shakllantirish mumkin?
 9. Qanday amaliy mashg'ulotlar orqali o‘quvchilar tabiat hodisalarini chuqurroq anglaydilar?
 10. Tabiyy fanlar ta’limida raqamli texnologiyalar va simulyatsiyalardan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qanday yordam beradi?
- Tabiyy fanlarda o‘quvchilarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishning qanday usullari mavjud?

3-MAVZU:O'QUVCHILARDA TAJRIBA-TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Reja

1. Ilmiy jarayon ko'nikmalari
2. Tajriba-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari

Tayanch tushunchalar: ilmiy jarayon ko'nikmalari (kuzatish, taqqoslash, tajriba o'tkazish, gipoteza yaratish, tasniflash, xulosalash v.h.o), kuzatish metodi, eksperiment metodi, amaliy ishslash metodi, kartalar bilan ishslash

*Ilmiy tadqiqotlar, bu faqat faktlarni to'plash
emas,balki ularni tushunish va ulardan
yangi nazariyalarni shakllantirishdir*

Albert Eynshteyn

Ilm-fan — bu doimo rivojlanib boradigan va yangi bilimlar bilan boyib boradigan soha. Ilmiy bilimlar bizning atrof-muhitni yaxshiroq tushunishimiz va hayotimizni yaxshilashimiz uchun juda muhimdir. Ilm-fan jamiyatni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi, chunki u odamlarni qashshoqlik, jaholat va noto'g'ri tushunchalardan ozod qilishi, shuningdek, yangi texnologiyalarni yaratish va jamiyat farovonligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab mamlakatlar ilmiy ta'limni yaxshilash va o'quvchilarga kerakli bilimlarni yetkazish uchun yangi o'qitish usullarni qidirmoqda.

Maktabda tabiiy fanlar majburiy o'qitiladigan fan bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarga tabiat haqidagi bilimlarni taqdim etish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va ilm-fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdir. Buning natijasida o'quvchilar tabiatni kuzatish, o'rghanish va ekologik hamda biologik muhitni ongli ravishda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Shunday qilib, ilmiy ta'limning samaradorligi ikki asosiy omil — ilmiy jarayon va ilmiy mahsulotlar orqali o'lchanadi. Biroq, mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilm-fan o'qitish jarayoni ko'pincha mexanik va monolitik tarzda tashkil etilib,

o‘quvchilar faqat darsliklarga tayanib qolishadi, o‘qitish esa asosan imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rishga va eslab qolishga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda ijodkorlik, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarga e’tibor berilmaydi. Ilmiy jarayon ko‘nikmalari ilmiy savodxonlikning asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, ularning rivojlanishi ilm-fan o‘qitishining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Afsuski, hozirgi kunda maktablarda ilm-fanni o‘qitish asosan ilmiy bilimlar, ya’ni faktlar, konseptsiyalar, prinsiplar, qonunlar va nazariyalarni yig‘ishga qaratilgan, ilmiy jarayon, ya’ni ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar esa o‘qituvchilar tomonidan ko‘pincha e’tiborsiz qoldiriladi. O‘quvchilar atrof-muhitda yuz berayotgan kundalik voqealarni kuzatish, o‘rganish, o‘lchash, tasniflash va tahlil qilish kabi ilmiy faoliyatlarga deyarli rag‘batlantirilmaydi. Tabiiy fanlar darslarida o‘rganilgan ilmiy jarayon ko‘nikmalari o‘quvchilarining umumiy hayotiy faoliyatida muhim rol o‘ynab, ularga kundalik hayotda muammolarni hal qilishda, qarorlar qabul qilishda va yangi bilimlarni yaratishda mustahkam asos yaratadi. Darslarni ilmiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslab tashkil etish, o‘quvchilarga fan o‘rganish jarayonida kerakli ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar, ta’lim jarayonida zarur bilimlar bilan ta’minlanib, nafaqat sinfda, balki sinfdan tashqarida ham o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni amalda qo‘llashga tayyor bo‘ladilar. Tabiiy fanlar darslarida o‘rganilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ko‘p bo‘lib, ular o‘quvchilarining ilmiy fikrlash va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim poydevor yaratadi. Quyida keltirilgan ko‘nikmalar, har bir o‘quvchining ilm-fan o‘rgatish jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi:

Kuzatish – Bu ilmiy ta’limda eng asosiy ko‘nikma bo‘lib, o‘quvchilarini atrofdagi tabiiy va sun’iy jarayonlarni kuzatishga, ularni to‘g‘ri va aniq tasvirlashga o‘rgatadi. Kuzatish bu rejali idrok bo‘lib, biror bir hodisaning borishini yoki idrok ob’yektlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Tasniflash – Tasniflash ko‘nikmasi, o‘quvchilarga atrof-muhitdagi ob’ektlar yoki hodisalarini turli toifalarga ajratish va sistematik ravishda tartibga solish imkonini beradi. Bu ko‘nikma, o‘quvchilarga ma’lum bir kategoriyalar bo‘yicha tartibni aniqlashga yordam beradi (masalan, hayvonlar, o‘simliklar yoki kimyoviy elementlar).

O‘lchov – O‘lchovlar olish ilm-fan ta’limining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarga turli asbob-uskunalar yordamida o‘lchovlarni aniqlashni o‘rgatadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun bu ko‘nikmalar o‘lchagich yoki idishlarni ishlatalishni o‘rganish orqali boshlanadi, katta yoshdagi o‘quvchilar esa yanada murakkab uskunalar va matematik formulalar orqali o‘lchashni o‘rganadilar.

Bashorat qilish – O‘quvchilar, o‘rganilgan ma’lumotlarga asoslanib, kelajakdagi hodisalar yoki natijalar haqida bashorat qilishni o‘rganadilar. Bu ko‘nikma o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va ilgari o‘rganilgan tajribalar va kuzatishlarga tayangan holda yangi xulosalarga erishishga yordam beradi.

Nazorat qilinadigan o‘zgaruvchilarni aniqlash – Ilmiy tajribalarda o‘zgaruvchilarni aniqlash va ularni nazorat qilish, ilmiy jarayonni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O‘quvchilarga o‘zgaruvchilarni tanib olish va ularni o‘zgartirish orqali natijalarini tahlil qilishni o‘rgatish, ilmiy tadqiqotlarda yuksak darajadagi analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Izohlar berish – O‘quvchilarni ilmiy tajribalardan olingan natijalarni izohlashga o‘rgatish, ularning analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quvchilar tajriba natijalarini tahlil qilish va shunga asoslangan xulosalar chiqarishga undalanadi.

Aloqa – Ilmiy fikrlarni aniq va tushunarli tarzda etkazish, o‘quvchilarga ilmiy ma’lumotlarni kommunikatsiya vositalari (so‘zlar, diagrammalar, grafiklar) yordamida to‘g‘ri etkazish imkonini beradi. Bu ko‘nikma o‘quvchilarga o‘z bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa chiqarish – Ilmiy tajribalardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, xulosalar chiqarish o‘quvchilarni o‘ylash va tahlil qilishga o‘rgatadi. Bu ko‘nikma,

o‘quvchilarga o‘z tajribalarini to‘g‘ri va mantiqan tahlil qilib, amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ilmiy ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat fan darslarida, balki o‘quvchilarining maktabdagi va kasbiy hayotidagi muvaffaqiyatlari uchun ham juda muhimdir. Ilmiy metodni o‘rgatish orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarini ham o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, ularning muammolarni hal qilish va ilmiy yondashuvni amalda qo‘llashda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Shuningdek, ilmiy uslubni o‘rgatish orqali o‘quvchilarga faqat fan sohasida emas, balki kundalik hayotda ham ilmiy ko‘nikmalarini qo‘llash imkoniyati beriladi.

Kuzatish, tajriba, amaliy ish jarayonida, ko‘rsatma qurollardan foydalanib o‘tkaziladigan hikoya va suhbat vaqtidagidan ancha yuqori darajada, o‘quvchilar narsa va hodisalarni gruppash, ulardagi muhim belgilarni ajratib ko‘rsatish, taqqoslash, umumlashtirish fikrlash operatsiyalarining hammasini bajarish borasidagi ko‘nikma hamda malakalarin egallab oladilar. Ko‘pincha kuzatishlar, tajribalar, amaliy ishlar turli xil yordamchi vositalarni (ximiyaviy idishlarni, reaktivlarni, ekskursiya jihozlari va hokazolarni) qo‘llashni 61 talab etadi. Bu o‘quvchlarda ximiyaviy idishlar, reaktivlardan foydalanish, ekskursiya buyumlari, gerbariyalar, kolleksiyalar va hokazolar tayyorlash bo‘yicha ko‘nikma va malakalar hosil qilish imkonini beradi. Ba’zan kuzatishlar, tajribalar, amaliy ishlar jarayonida o‘quvchilar aniq miqdoriy ko‘rsatgichlarni hosil qilishlari kerak. Ko‘rsatgichlar qilingan ishlardan aniq xulosalar chiqarrish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaqtarda o‘quvchilar o‘lchash asboblari-termometr, osadkometr, ruletka, menzurka, tarozilardan foydalanishni o‘rganadilar. Masalan, ular termometr bilan hovlidagi havoning va hovuzdagi suvning temperaturasini, ruletka bilan turli yil fasllarida yerga o‘rnatilgan yog‘ochdan tushayotgan soyaning uzunligini o‘lchaydilar, tarozida havoni, mineral o‘g‘itlarning normalarini tortadilar va hokazo. Shunday qilib, o‘quvchilarining mustaqil ish metodlari-kuzatish, tajriba, amaliy ish o‘quvchilarga amaliy ta’lim berishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar amaliy malakalari (o‘lchash, hisoblab chiqarish, eksperiment o‘tkazish) va

laboratoriya jihozlaridan foydalanish ko‘nikmalari hosil qiladilar. Bulardan tashqari, bolalar, tabiiy fanlar (Science) darslarida o‘simpliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilish, loyihalar bilan ishlash, modellar yasash ko‘nikmalari hosil qiladilar. Bu malaka va ko‘nikmalar, egallab olinayotgan tabiiy fanlar bilimlari bilan bir qatorda o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini oshirish uchun, kelajakda kasblarni tanlashlari uchun, hayotda o‘z o‘rinlarini topish uchun zarur asos yaratadi.

Kuzatish metodi (13-rasm). Kuzatish-tabiatni o‘rganishning juda yaxshi usuli, chunki u tabiat haqidagi faktlarni to‘plashga, tabiatdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi.



13-rasm. Kuzatishlar olib borish

Kuzatish vaqtida o‘quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalarni voqelikda qanday bo‘lsa shundayligicha, ularga biror bir o‘zgartirishlar kiritmasdan idork qiladilar. Tabiiy fanlar (Science) ga oid kuzatishlar qisqa va uzoq davom etadigan bo‘ladi. Ularning ba’zilari bir dars mobaynida o‘tkaziladi, masalan, suvni haydash yo‘li bilan erigan moddalardan tozalash, loyli va qumli tuproqning o‘tkazuvchanligi va nam saqlashligi, akvariumdagi baliqning harakat xususiyatlari va hokazolar ustida olib boriladigan kuzatishlar. Boshqa paytlarda bolalarning kuzatishlari uzoq davom etishi mumkin va tabiatda, jonli tabiat burchagida, maktab o‘quv-tajriba uchastkasida, ayrim loyiha ishlarida, qishloq xo‘jaligida, uy

sharoitlarida olib boriladi. Masalan, bolalar butun o‘quv yili davomida o‘z o‘lkalarining ob havosi, iqlimi, quyoshning yer yuzasidan balandligi, mahalliy o‘simpliklar va hayvonlarda ro‘y beradigan mavsumiy o‘zgarishlar, oylik, yillik o‘rtacha haroratni o‘lchashlar ustida kuzatish ishlarini olib boradilar.

Umumta’lim maktablarida tabiiy fanlar (Science) uchun alohida kuzatish maydonchalari ajratilishi kerak. Tabiiy fanlar (Science) kursi mazmuniga kuzatuvchilardan ancha uzoq masofada bo‘lgan tabiat ob’yektlari va hodisalari haqidagi bir qator tushunchalar kiradi. Tabiatdagi ba’zi ob’yekt va hodisalarni o‘quvchilar bevosita kuzata olmaydilar, ular haqidagi tushunchalar esa o‘zlashtirib olish uchun ancha qiyin. Ana shunday tushunchalarni tarkib toptirishda kuzatish maydonchasi katta yordam ko‘rsatishi mumkin. Tabiiy fanlar (Science) maydonchasi-zarur asboblar bilan jihozlangan, o‘quvchilarning tabiiy fanlar (Science) ga doir kuzatishlar olib borishi va mashqlar o‘tkazish uchun ajratilgan joy. Kuzatishlar doirasi va kuzatish ob’yektlari imkoniyatlarga va maktab joylashgan joy sharoitlariga qarab cheklangan yoki kengaytirilishi mumkin. Kuzatish materiallari o‘quv jarayonida: yangi materialni o‘rganishdagi suhbat va hikoya vaqtida foydalaniladi. Bu bilimlarning mustahkam va ishonchli bo‘lishiga yordam beradi va katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi, shuningdek o‘quvchilarda ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllanishida ham katta ahamiyatga ega.

Tajriba (eksperiment) metodi (14-rasm). Tajriba kuzatishdan jiddiy farq qiladi. Yuqorida aytilganidek, kuzatish vaqtida o‘quvchilar tabiat hodisalarini ular tabiatda qanday sodir bo‘lsa, shundayligicha idrok qiladilar va qayd etadilar.

Bu hodisalarga hech qanday o‘zgarishlar kiritilmaydi. Masalan, bolalar o‘zлari yashayotgan joyning ob havosini har kuni kuzatadilar va olingan ma’lumotlarni (havo temperaturasi, yog‘in turlari, bulutlilik, shamolning yo‘nalishi) o‘zlarining daftarlariiga yozib qo‘yadilar. Tajriba o‘rganilayotgan hodisaning ma’lum bir shartlarini o‘zgartirishni talab etadi. Masalan, kislorodning xossasini aniqlash uchun kaliy permanganatdan (yoki tarkibida kislorod bo‘lgan boshqa moddalardan) kislorod ajratib olish, keyin esa unga tutab turgan cho‘jni kiritish kerak; o‘simpliklar hayoti uchun zarur bo‘lgan tashqi muhit sharoitlarini aniqlash

uchun o‘quvchilar sug‘orish, yorug‘lik, oziqlantirish rejimi bir xil bo‘lgan loviya (yoki boshqa o‘simlik) o‘stirib ko‘radilar.



14-rasm. Tajriba (eksperiment) o‘tkazish

Tajriba vaqtida albatta kuzatish olib boriladi, chunki shunday qilinmasa, tajriba o‘tkazishning ahamiyati bo‘lmaydi. Tajriba metodi o‘rganilayotgan hodisani kuzatish metodiga qaraganda ancha batafsil va chuqur analiz qilishga, uning mohiyatini tushunishga; sabablarini, boshqa hodisalar bilan bog‘liqlik tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, tabiatda quyosh tutilishini kuzatishning o‘zi, har qancha kuchli taassurot qoldirishiga qaramasdan, uning sabablarini aniqlash imkonini bermaydi. Tajriba jarayonida, fonar, globus, ip o‘tkazilgan sharcha (soqqa)dan foydalanib, o‘quvchilar quyosh tutilishining mohiyati va sabablari to‘g‘risida obrazli tasavvurlar hosil qiladilar. Tajriba metodi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda o‘qishga nisbatan tadqiqotchilik nuqtai nazardan yondoshish odatlari hosil qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning darsning u yoki bu muammolarini hal etishda qidiruv ishlari olib borishi ayniqsa muhimdir. Mustaqil ravishda tajriba o‘tkazish ularning bilish faoliyatini aktivlashtiradi. U o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tabiiy fanlar (Science)ga oid tajribalar, kuzatishlar kabi qisqa muddatli va uzoq davom etadigan bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatli tajribalarni bir darsda o‘tkazish mumkin (bosimni o‘zgarishiga doir tajriba, yonib

turgan shamning to‘nkarilgan banka ta’sirida o‘chib qolishi, zichligi turlicha bo‘lgan suyuqliklarda bir xil jismning turli holatlarda bo‘lishi va hokazo). Uzoq davom etadigan tajribalar bir necha kun, hafta oylar davomida o‘tkaziladi (og‘zi berkitilgan butilkadagi suvning yaxlagandagi kengayishi, sug‘orish normalari turlicha bo‘lgan va yorug‘lik miqdori turlicha tushgan sharoitda o‘simgiliklarni o‘stirish va boshqalar). Tajribalar kuzatishga qaraganda ko‘proq darajada bolalarning harakat faoliyatini nazarda tutadi. Axir bu jarayonning borishiga ta’sir etishni qo‘llarning ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Masalan, ma’lum bir muddaning erish yoki erimasligini tekshirish uchun o‘quvchilar uni suvga soladilar, aralashtiradilar, keyin esa uning erigan-erimaganligini kuzatadilar. Biror bir tajriba yo‘qki, unda tajriba o‘tkazuvchining harakat faoliyati ishtirok etmasin. Tajribalar o‘quvchilarga ob‘yektning xossalari va holatni turg‘un holatda emas, balki ularning o‘zgarishi, o‘sishi, rivojlanishi holatini ko‘rish va idrok qilishga imkon beradi. Bu jihatdan ham boshqa hech qanday metod tajribaning o‘mini bosa olmaydi. Shu sababli, o‘quvchilarga emotsiyal ta’sir etish kuchiga ko‘ra, bu metod barcha o‘qitish metodlaridan ustun turadi. VI sinf tabiiy fanlar (Science) dasturida juda ko‘p tajribalar berilgan. Bu tajribalarni o‘tkazish vaqtidagi o‘quvchilarning mustaqillik darjasini turlichadir. Bir xil tajribalarni o‘quvchilar mustaqil o‘tkazishlari mumkin, boshqalarini bajarishda esa bolalarning mustaqilligi biroz cheklangan bo‘ladi. Masalan, suvda eriydigan va erimaydigan muddalarni o‘rganish, metallarning xossalarni tekshirish, turli sharoitlarda o‘simgiliklarni o‘stirish, tuproqda suvning kapillyarligini ko‘rish yuzasidan olib boriladigan tajribalarni o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘tkazishlari mumkin. Turli xil gazlarning xossalarni o‘rganishga oid tajribalarda bolalarning ishtiroki cheklanadi: kaliy permanganatdan kislorodni va ohaktoshdan karbonat angidridni o‘qituvchining o‘zi oladi, olingan gazlar cho‘pning yonishiga qanday ta’sir etishini esa o‘quvchilar o‘zlarini tekshiradilar. Mustaqillik darajasidan qat’iy nazar hamma tajribalar kuzatishlar kabi o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida bajariladi. O‘qituvchidan har bir tajribaga jiddiy tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Tajriba uchun kerakli hamma asboblar puxta o‘ylab ko‘riladi

va ularning ro‘yxati tuziladi. O‘qituvchi tajriba o‘tkazish texnikasini mukammal egallagan bo‘lishi, tajriba jarayonida qo‘llanilishi talab etiladigan asboblar va moddalardan mohirona foydalana olishi kerak. Shuning uchun tajriba o‘tkazish mo‘ljallanadigan darsga tayyorlanish vaqtida o‘qituvchining o‘zi tajribaning hamma bosqichlarini bajarishi, bunda ularning ketma ketligini diqqat bilan o‘ylab ko‘rishi lozim. Ba’zi tajribalar yuzasidan fizika, ximiya, biologiya, geografiya o‘qituvchilarining tavsiyasi kerak bo‘lib qoladi.

Amaliy ish metodi. Amaliy ish metodi kuzatish va tajriba metodi bilan chambarchas bog‘langan. Kuzatishlar olib borish, tajribalar o‘tkazish va ekskursiyalar vaqtida o‘quvchilar turli xil mehnat operatsiyalarini bajarishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, tabiiy fanlar (Science) darslarida geografik xaritalar, globus, tabiiy tarqatma materiallar bilan ish ko‘rish lozim bo‘ladi. Gerbariy va kolleksiyalar tayyorlashga doir ishlar katta o‘rin egallaydi. Tabiiy fanlar (Science) dasturi va darsligida anchagina shunday ishlar bor. Ular darslarda va uy vazifalarida albatta bajarilishi kerak. Tabiiy fanlar (Science) ni o‘qitishning bu metodi faqat kuaztishlar, tajribalar, ekskursiyalar, malaka hosil qilish bilan bog‘liq holda qo‘llanilmaydi. O‘quvchilarda zarur ko‘nikma va malakalarni hosil qilish uchun ham ko‘pgina amaliy ishlar o‘tkaziladi. Masalan, maktab uchastkasidagi amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘simliklar va hayvonlarni parvarish qilishga, tabiiy resurslarni avaylashga, ekologik madaniyatga rioya qilishga oid ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Darsda o‘qituvchi rahbarligida egallagan bu ko‘nikma va malakalarni keyinchalik ham hayotlari davomida qo‘llashlari mumkin. Bunda o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar “haqiqiy ishlarda” qo‘llanilishini anglashi ularda mehnat faoliyatiga istak paydo qiladi va o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida bolalarning sinchkov ko‘zлari jonli va jonsiz tabiat haqidagi eng muhim hodisalarni ajrata oladi. Amaliy ishlar o‘qitish metodi sifatida ayniqsa shu bilan muhimki, ularni bajarish vaqtida o‘quvchilarning mustaqilligi, aktivligi va tashabbuskorligi kuzatishlar va tajribalar vaqtidagiga qaraganda yanada ko‘roq darajada namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning amaliy ishlarni muntazam ravishda

bajarishi-o‘qitishda nazariya bilan amaliyotni bog‘lashning, ya’ni fan asoslarini o‘rganishni bolalarning mehnat faoliyati bilan qo‘shishning eng muhim vositasi bo‘lib politexnika ta’limining muhim usullaridan biri hisoblanadi. Tabiiy fanlar (Science) darslarida bolalar xalq xo‘jaligida, kundalik hayotlarida tabiiy resurslardan foydalanish to‘g‘risidagi, ularni asrab avaylash haqidagi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Kartalar va globus bilan ishslash metodi (15-rasm). O‘quvchilar geografik karta va globus bilan quyi sinflardayoq tanisha boshlaydilar. VI sinfda xaritalar va globus bilan ishslash davom ettiriladi va murakkablashadi, bu esa o‘quvchilarni yuqori sinflarda kartografik qo‘llanmalar bilan ishslashga tayyorlayadi. Xarita va globus faqat ko‘rsatmali qurol emas. Ular, kitoblar kabi, bilim manbaidir. Bir varaq geografik xarita ba’zan butun bir kitobga qaraganda ko‘proq bilim beradi. Xarita yordamida tabiatning ayrim elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar ochib beriladi.



15-rasm. Kartalar va globus bilan ishslash

VI sinf tabiiy fanlar (Science) darsligida “Geografik xaritalar” mavzusi kiritilgan. Xaritalar bilan ishslash talab etadigan darslarda o‘qituvchi dastlabki darslarda o‘quvchilarni xaritaning mazmuni va izohlari bilan tanishtirshi kerak: dunyoning tabiiy xaritasi, dunyoning siyosiy xaritasi, dunyoning tabiat zonalari

xaritasi. Shundan keyin mashstab va kartaning shartli belgilari bilan tanishishga o‘tish lozim.

O‘quvchilar kartadagi barcha shartli belgilardan balandliklar shkalasini ancha qiyinchilik bilan anglab oladilar. Shuning uchun o‘qituvchi balandlik okeandagi suvning past-balandlik darajasiga qarab berislishini tushuntirishi kerak. Bunda o‘quvchilarga sinfda poldan turli balandlikda joylashgan xilma xil predmetlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. So‘ngra o‘quvchilar tabiiy xaritada past tekisliklar ko‘k rang bilan, tepaliklar sariq, tog‘lar esa jigar rang bilan belgilanishini bilib oladilar. Shu bilan birga tog‘lar qancha baland bo‘lsa, jigarrang shuncha quyuqlashib boradi. Shundan keyin bolalar chegaralar, aholi yashaydigan joylar, daryolar, ko‘llar, kanallar, suv omborlari, foydali qazlmalarning shartli belgilari bilan tanishadilar. Shartli belgilarni yaxshilab eslab qolish uchun, bir qancha darslarda o‘quvchilar xaritadan turli ob‘yektlarni topishni mashq qiladilar. Xarita bilan ishlaganda ma’lum bir talablarga rioya etish talab etiladi: o‘qituvchi va o‘quvchilar xarita yonida turganda uni boshqalardan to‘sib qo‘ymaydigan bo‘lishi kerak; xaritadagi ob‘yektlarni ko‘rsatgich bilan shunday ko‘rsatish kerakki, agar o‘qituvchi yoki o‘quvchilar xaritaning chap tomonida turgan bo‘lsalar, ko‘rsatgich chap qo‘lda, xaritaning o‘ng tomonida turgan bo‘lsalar, ko‘rsatgich o‘ng qo‘lda bo‘lishi kerak; o‘qituvchi dastlab ob‘yektning nomini aytadi, so‘ngra uning joylashishini devorga osib qo‘yilgan kartadan ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa uni stoldagi xaritalaridan topadilar. O‘quvchilar e’tiborini kartadagi yozuvni emas, balki ob‘yektning joylashgan o‘rnini ko‘rsatish kerakligiga e’tibor qaratish lozim; kartada ob‘yektning joylashgan o‘rnini ko‘rsatish kerakligiga “shimolda”, “janubda” deyish o‘rniga “yuqorida”, “pastda” iboralarini ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘quvchilarni parallellar va meridianlar yordamida kartadan gorizont tomonlari bo‘yicha mo‘ljal olishga o‘rgatish uchun quyidagi tipda bir qator mashqlar bajariladi: “Chimkent, Nukus, Samarqand, Farg‘ona Toshkentdan qaysi yo‘nalishda joylashganligini aniqlang”. Maktab tajribasida o‘rganilayotgan ob‘yektlarni kartadan topishning turli usullari qo‘llaniladi. Agar sinf o‘quvchilari karta bilan mustaqil bajariladigan amaliy ishlarga yetarlicha tayyorgarlik ko‘rgan

bo‘lsa, o‘qituvchi dastlab ob’yektni devorga osilgan kartadan ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa uning ketidan ob’yektni stol ustida turadigan kartadan topadilar. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan sinfda o‘qituvchi ob’yektning nomini aytadi yoki doskaga yozib qo‘yadi, o‘quvchilar esa uni mustaqil ravishda o‘z kartalaridan topadilar. O‘qituvchi ishning to‘g‘ri bajarilganligini tekshiradi. Xaritalar bilan ishslash geografik bilimlarni mustahkamlashning eng yaxshi usulidir. Tabiiy fanlar (Science) ni o‘qitishda yarim sharlar, O‘zbekiston kontur kartalaridan foydalanish yaxshi natija beradi. O‘quvchilar yarim sharlar kontur kartasiga materik va okeanlarni chizadilar, ularning nomini yozib qo‘yadilar.. O‘zbekiston kontur kartasi bilan katta ishlar olib boriladi. Unda o‘quvchilar asosiy daryolar va sug‘orish kanallarini, suv omborlarini, yirik GESlarni, mis, toshko‘mir va past navli ko‘mir, neft va gaz, ximiyaviy foydali qazilmalar, oltin, marmar konlarini, o‘simliklar va hayvonot olamini, qo‘riqxonalar O‘zbekistonning turli nuqtalaridan (massalan, Toshkentdan, Nukusdan, Termezdan, Andijondan) gorizont yo‘nalishini qayd qiladilar. Globus bilan ishslash. Globus – yer sharining kichraytirilgan modeli bo‘lib, u haqda ancha to‘liq tasavvur beradi. Globus materiklar va okeanlarning shaklini hamda ularning joylashishini ancha aniq ko‘rsatadi. Yarim sharlar kartasi - tekislikda tasvirlangan globusdir. Yuzalarni globusdan tekislikka ko‘chirilishi tasvirlar shaklini buzilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilar faqat globus yordamida materiklar va okeanlarning katta-kichikligi hamda shakli to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishlari mumkin. Bundan tashqari , o‘quvchilar gorizont tomonlarini aniqlashga doir bilim va ko‘nikmalarini globus yordamida oson va to‘g‘ri o‘zlashtirib oladilar. Globus quyidagi savollarni o‘rganishda qo‘llaniladi: 1. Yerning shakli 2. Yerning kattaligi 3. Kuzatuvchi balandligining ortishi bilan gorizontning kengayishi 4. Yer qutblari 5. Yer ekvatori 6. Meridianlar 7. Parallelellar 8. Yer o‘qi va uning orbitaga nisbatan engashishi 9. Yarim sharlar haqida tushuncha 10. Materiklar va okeanlarning shakli hamda ularning bir-biriga nisbatan joylashishi 11. Yerning turli kengliklarida yorug‘lik va issiqlikning turli miqdorda bo‘lishi 12. Yerning o‘z o‘qi atrofida sutkalik aylanishi. 13. Kun va tunning almashinishi14. Yerning quyosh atrofidagi harakati 15. Yil fasllarining

almashinishi 16. Oyning yer atrofidagi harakati 17. Oy fazalarining sodir bo‘lishi 18. Quyosh tutilishi 19. Oy tutilishi 20. Yerning “usti” ham “ostи” ham yo‘q. 21. Atmosferaning joylashishi 22. Gidrosferaning joylashishi 23. Litosferaning joylashishi. O‘quvchilarning globus bilan ishlashi tabiiy fanlar (Science) kursida katta ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa “Geografik xaritalar”, “Yer qobiqlari”, “Quyosh sistemasi va koinot” boblarini globussiz o‘rganish mumkin emas. Globus bilan ishlashdan oldin o‘quvchilar u haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak: globus-Yerning juda ham kichraytirilgan modelidir. Yerda hech qanday taglik yo‘q, globusda esa bor. Dastlabki darslarda u o‘quvchilarni chalg‘itmaslik uchun, globus taglikdan olib qo‘yiladi. O‘quvchilarda globus xaritaning o‘zi, lekin u shar shaklida emas, degan aniq tasavvur paydo bo‘lishi uchun oldindan globusni xayolan ikkita yarim sharlarga (Sharqiy va G‘arbiy yarim sharga) bo‘lish maqsadga muvofiq. Shunday ko‘rsatilgandan keyin o‘quvchilar, globus nimayu, yarim sharlar xaritasi nimaligini to‘g‘ri tasavvur qiladi. Globusdan topilgan ob‘yektlar keyinchalik yarim sharlar xaritasida ham ko‘rsatiladi. Yer yuazsining eng yirik qismlari, masalan, materiklar, okeanlarni avval globusdan o‘rganish so‘ngra yarim sharlar xaritasidan o‘rganishga o‘tish yaxshiroq bo‘ladi. Agar har bir o‘quvchi globusni qo‘liga olib, uning sharsimon yuzasini ushlab ko‘rsa, globus o‘qining qiyaligini ko‘zdan kechirsa, undan qutblarni, meridianlarni, parallellarni, ekvatorni, materiklarni, okeanlarni topsa, kun va tunning, yil fasllarining almashinishi, Quyosh va Oy tutilishi qanday sodir bo‘lishini ko‘rsatsa va isbotlab bersa, globus bilan bajariladigan amaliy ishlar ancha samarali bo‘ladi. Globus bilan bajariladigan amaliy ishlar o‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantiradi hamda ularning mantiqiy tafakkurini o‘stiradi.

Amaliy topshiriqlar

1. Turli hududlardagi havoni sifatini aniqlash.


Maqsad: Ushbu tajribada siz turli joylardan havodagi mavjud zarralar miqdorini o‘lchash orqali havoning qanchalik tozaligini aniqlaysiz.

Bizning sog‘ligimiz nafas olayotgan havoning qay darajada tozaligiga bog‘liq. Biz nafas olganimizda o‘pkamiz havodan kislorodni o‘zlashtiradi va uni

qon oqimiga o'tkazadi. Natijada u butun tanamizga tarqaladi. Kislorod bizning yashab qolishimiz uchun zarur bo'lgan energiyaga ega bo'lishi muhimdir.

Nafas olishimiz uchun toza havo bo'lishi barchamiz uchun muhimdir. Sanoat hududlarida yashovchi odamlarda astma rivojlanish ehtimoli ko'proq. Sigaret chekadigan odamlar o'pka kasalliklaridan ko'proq azob chekishadi. Siz chekuvchining o'pkasining kichik, qora va nosog'lom ko'rinishini ko'rgan bo'lishingiz mumkin (16-rasm).

Yillar davomida qatron va tutun zarralaridan nafas olish o'pka to'qimasida saraton rivojlanishiga olib kelishi va hatto o'limga olib borishi mumkin. Toza havodan nafas olish o'pkangizni yaxshi va sog'lom saqlash uchun muhimdir. Havodagi mayda chang va kuyik zarralari nafas olayotganda o'pkangizga kirib, kislorod harakatini to'sib qo'yishi mumkin. Zararli zarralar havodagi chang, tutun, va boshqa zavod fabrikalardan chiqayotgan kimyoviy tununlar kabi ifloslantiruvchi moddalardan kelib chiqishi mumkin (15-rasm). Sog'lig'imiz uchun toza havo muhimligi sababli, ko'pchilik davlatlar havoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan kunlarda smog haqida ogohlantirishlar berish orqali havoning ifloslanishini kuzatib boradi.



16-rasm. Sog'lom va chekuvchi insonlar o'pkasi.

Agentliklar havodagi ifloslantiruvchi zarrachalar miqdorini o'lchaydilar. Ifloslovchi zarralar qattiq zarralar yoki suyuq tomchilar bo'lishi, ular katta yoki kichik, rangli yoki rangsiz bo'lishi mumkin. Ba'zilarini ko'z bilan yoki kattalashtiruvchi ob'ektiv bilan ko'rish mumkin. Bular siz yashayotgan havoni

ifoslantiryaptimi? Qurilish maydonlari, ishlab chiqaruvchi sanoat hududlari yoki istirohat bog'larida havoning tozaligi qay darajada? Ushbu savollarga javob topish uchun siz vazelin bilan oddiy tajriba o'tkazishingiz mumkin.




17-rasm. Havoni ifoslantiruvchi turli xil chang va tutunlar

Eslatma: Ushbu tajriba-tadqiqot ishida havodagi ifoslantiruvchi zarralarni oddiy ko'z yoki kattalashtiruvchi linzalar bilan ko'rindigan holat uchun o'tkaziladi. Unda barcha ifoslantiruvchi zarralar aniqlanmaydi.

Asosiy tushunchalar. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun siz quyidagi atamalar va tushunchalarni tushunishga imkon beradigan tadqiqot qilishingiz kerak: havo sifati, kislorod, astma, qurum, havoni ifoslantiruvchi moddalar, smog, zarrachalar.

Kerakli jihoz va materiallar:

			
Vazelin	Qora marker	Belgi	Karton qutisi

			
---	---	--	---

18-rasm. Kerakli jihozlar

Tajribani bajarish tartibi

1. Bo'sh sut qutisini foydalanishdan oldin yaxshilab tozalang va quriting.
2. Kartonni tikuv yo'nalishi bo'ylab kesib, to'rtta bo'laklarga bo'ling. Har bir tomonni 3 ta teng bo'laklarga kesib oling. Bunda jami 12 kvadratga ega bo'lasiz.
3. Har bir kvadratning bir burchagida teshik oching.
4. Kvadrat karton bo'lagini misol uchun daraxt shoxiga osib qo'yish uchun ip bilan bog'lang.
5. Karton bo'laklarini qayerga qo'yaningizni va ulardan keyinchalik olingan ma'lumotlarni yozib olish uchun laboratoriya daftaringizga quyidagi ma'lumotlar jadvalini chizing (3-jadval).

Manzil	1-hudud	2-hudud	3-hudud	4-hudud
1-kvadrat				
2-kvadrat				
3-kvadrat				
Jami				
O'rtacha				

6. To'rtta hudud tanlang (M-n: sizning orqa hovlingiz, maktabingiz, qurilish maydonchasi, istirohat bog'i v.h.o.)
7. Ma'lumotlar jadvaliga har bir joy nomini va manzilini aniq qilib yozing.

8. Qora markerdan foydalanib, har bir kvadrat ichki tomonining o‘rtasiga 1 dyuym x 1 dyuymli kvadrat chizing.
9. Har bir kvadratning pastki qismiga joy nomini yozing, har bir joy uchun uchta kvadrat kartondan foydalanasiz.
10. Har bir joyda uchta karton kvadratini osib qo‘yish uchun joy toping. Kvadratchalarni daraxt shoxiga, tabel ustuniga, yoritgichlar ustuniga yoki boshqa xavfsiz nishonga osib qo‘yishingiz mumkin. Agar siz tanlagan hudud triband joy yoki mashinalar qatnovi ko‘p bo‘lgan joy bo‘lsa, xavfsizlik uchun kattalar bilan birgalikda bajaring.
11. Har bir kvadrat kartonni osib qo‘yishdan oldin, har bir kvadrat kartonning o‘rtasiga chizgan kavadratga barmog‘ingiz bilan yupqa vazelin qatlamini yoying va tayyor bo‘lgan kvadrat kartonni osib qo‘ying.
12. Karton kvadratlaringizni 3-5 kunga qoldiring. Ularni yomg‘ir yog‘maydigan kunlarda qoldirish yaxshidir. Agar yomg‘ir yog‘ayotganini bilsangiz siz belgilagan vaqt hali o‘tmagan bo‘lsa ham borib yig‘ib oling.
13. Belgilangan vaqtdan so‘ng, kvadratlardan ma’lumotlarni yig‘ishingiz mumkin.
14. Ma’lumotlar jadvali, lupa va raqamli kamera yordamida har bir joyni ko‘rib chiqing.
15. Lupadan foydalanib har bir kvadratchalardagi vazelinga yopishib qolgan ko‘zga ko‘rinadigan zarrachalar sonini hisoblang. Natijani ma’lumotlar jadvalingizga yozing.
16. Kvadratni suratga oling. Agar sizning kamerangizda yaqindan suratga olish uchun mikro-sozlama mavjud bo‘lsa, rasmlar yanada yaxshi chiqadi.
17. Barcha ma’lumotlaringizni yig‘ib, ma’lumotlar jadvalini to‘ldirguningizcha keyingi kvadratga va hududlarga o‘ting.
18. Har bir hudud uchun siz uchta ma’lumot to‘plamini yig‘asiz. Har bir hududdan aniqroq ma’lumot olish uchun uchta hisobni qo‘shing va uchga bo‘lib o‘rtacha qiymatni hisoblang.
19. O‘rtacha qiymatni har bir hudud uchun hisoblang.

20. Endi siz ma'lumotlaringizning grafigini chizing. Y o'qi zarrachalar soni, x o'qini esa hududlar uchun belgilab oling.

21. Taqdimot uchun olgan fotosuratlariningizni ham chop eting.

Savollar:

1. Oddiy ko'z yoki lupa bilan ko'rindigan eng ko'p zarrachalarni qaysi hududlardan olgansiz?
2. Bu siz kutgan natijani berdimi?
3. Siz belgilagan uchta hududdagi natijalar bir xilmi yoki farq qiladimi?
4. Sizningcha, har bir joyda havodagi bu turdag'i ifoslantiruvchi zarralar miqdori haqida nima deyish mumkin?

2. O'simliklar tuproq eroziyasini to'xtata oladimi? (-rasm)

Tuproq eroziysi soylar va daryo suvlarini ifloslanishiga va unumdon qishloq xo'jaligi yerlarini yo'qolishiga sabab bo'lishini, bu orqali dunyoga milliardlab dollar zarar keltirishini bilasizmi. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Bir nechta o'simliklar orqali dunyoni saqlab qolishni o'rganamiz.

Maqsad: O'simliklar yomg'ir tufayli tepadan eroziyalangan tuproq miqdorini kamaytirishi mumkinligini aniqlash.

Kirish

Har safar tashqariga qaraydigan bo'lsak, atrofimiz tuproq bilan o'ralgan. Xuddiki u dunyoda cheksizdek. Nega unda biz uni saqlash haqida qayg'urishimiz kerak? Ma'lum bo'lishicha, **tuproq eroziyasi** yoki shamol va suv kabilarning ta'siri tufayli tuproqning yuvilishi aslida katta muammodir. Bu qishloq xo'jaligi yerlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin, chunki 19-rasmdagi kabi dalalardagi tuproq yuvilib ketadi. Ular tuproq va o'g'itlarni yuvib ketish orqali suv yo'llarini ifoslantirishi mumkin. Hatto sel va ko'chkilarga hissa qo'shib, inson hayoti va mulkiga zarar yetkazishi mumkin. Birgina tuproq eroziyasining umumiyligi iqtisodiy xarajatlari har yili taxminan butun dunyo uchun 400 milliard dollarga baholangan. Xo'sh, ushbu muammoni hal qilishga qanday yordam bera olasiz?



19-rasm. Tuproq erroziyasi

Tuproq erroziyasiga qarshi kurashda yordam berish usullaridan biri o'simliklardan foydalanishdir. O'simliklar keng ildiz tizimiga ega bo'lib, ular tuproqni "ushlab qolish" va tuproqni bir joyga toplashda yordam beradi. Agar siz 20-rasmdagi o'simlikni yerdan sug'urib olgan bo'lsangiz buni ko'rishingiz mumkin.



20-rasm. Sug'urib olingan o'simlik ildizi

O'simliklar tuproqdag'i suvning bir qismini ham o'zlashtiradi. Bu ta'sirlar suvning tuproqni yuvishini qiyinlashtiradi (esda tutingki, o'simliklar shamolni to'sishga yordam beradi va shuning uchun shamol eroziyasini ham oldini oladi). Tuproq eroziyasini oldini olish uchun o'simliklardan foydalanish iqtisodiy botanikaning bir shakli bo'lib, pul topish (yoki tejash) uchun o'simliklardan foydalanishni anglatadi.

Ushbu loyihada biz tuproq bilan to'ldirilgan idishlarni qiyalikka o'rnatish orqali tajriba o'tkazamiz. Idishlarning ba'zilarida urug'lar ekilgan, ba'zilari esa yo'q. O'simliklar unib chiqqandan so'ng, sug'orish idishi orqali yomg'ir hosil qilib idishlarni sug'oramiz. Sizningcha, o'simliklar tuproq eroziyasini to'xtatish yoki kamaytirishga yordam beradimi? Agar shunday bo'lsa, qanchaga? Buni bilish uchun ushbu loyihani sinab ko'ramiz!

Asosiy tushunchalar: suv oqimi, to'yingan, iqtisodiy botanika.



Savollar

- Tuproq eroziyasining sabablari nimada?
- Tuproq eroziyasining qanday turlari bor?
- Tuproq eroziyasining salbiy oqibatlari va yetkazadigan zararlari?
- Tuproq eroziyasini oldini olishning qanday usullari mavjud?

Kerakli jihozlar (21-rasm):

- Alyuminiy idishlari (bir martalik), taxminan $8 \times 3 \times 3$ dyum (6 dona);
- Alyuminiy tort idishlari (bir martalik), taxminan $12 \times 8 \times 1$ dyum (2 dona);
- Tuproq (barcha idishlarni to'ldirishga yetarli);
- Tuproqni gul do'konlaridan, veterinariya dorixonasi yoki bog' markazidan olishingiz mumkin.
- Agar sizning hududingizdag'i tuproq ekinlar ekish uchun yaxshi bo'lsa undan ham foydalanishingiz mumkin.
- Turp urug'lari (gul do'konlari yoki bozor markazlaridan olishingiz mumkin);
- Ruler, metrik;
- Stikerlar;
- Marker;

- Qaychi yoki o‘tkir pichoq;
- Leyka (suv purkagich);
- O‘simliklar uchun quyoshli deraza tokchasi;
- Idishning bir chetini taxminan 3-5 sm balandlikda ko‘tarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan biron narsa;
- Loyiha ishida sug‘orish ishlarini bajarishda tsahqarida yoki vannada bajargan ma’qul;
- Laboratoriya daftarchasi.

	 Alyuminiy idishlar	 Alyuminiy tort idishlari	 Tuproq
 Turp urug‘i	 Ruler, o‘lchagich	 Stiker	 Qaychi Marker

21-rasm. Loyiha ishi uchun kerakli jihozlar.

Tajriba jarayoni:

1. Oltita bir martalik alyuminiy idishlarning har birini 22-rasmida ko‘rsatilganidek, tuproq bilan to‘ldiring. Yuqori qismida bir oz bo‘sh joy qoldiring, shunda tuproq chetidan oqib chiqmaydi.
2. Turp urug‘ini uchta idishga qadoqda ko‘rsatilgan yo‘riqnomadan biroz yaqinroq qilib eking. Misol uchun, agar paketda urug‘larni bir-biridan 1 dyum masofada ekish kerak bo‘lsa, siz ularni 1/2 dyum masofada ekishingiz mumkin, chunki bu loyiha uchun turp o‘simliklarining to‘liq o‘sishi shart emas. Ularni bir-biriga yaqinroq joylashtirish o‘simlik ildizlarining tuproqqa ta’sirini aniqroq ko‘rish imkonini beradi.



22-rasm. Tuproq bilan to‘ldirilgan bir martalik alyuminiy idishi.

3. 23-rasmida ko‘rsatilganidek, har bir idishda urug‘ bor yoki yo‘qligini belgilash uchun flipchartdan foydalaning va uni idishlarga yopishtiring. Sizda uchta urug‘li va uchta urug‘siz idish bo‘lishi kerak.



23-rasm. Urug‘ bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun qo‘yilgan belgilar.

4. 24-rasmida ko‘rsatilganidek, idishlarning pastki chetidan qaychi yoki o‘tkir pichoq bilan teshiklar hosil qiling. Ular ortiqcha suvning idishdan chiqib ketishini ta’minlaydi.

5. 25-rasmida ko‘rsatilganidek, tuproq solingan idishlarni bir martalik alyuminiy keks idishlariga joylashtiring. Bu sug‘orish vaqtida tuproq solingan idish teshiklaridan oqib chiqadigan ortiqcha suvni to‘plash imkonini beradi. Siz har bir

keks idishiga uchta tuproq solingan idishlarni sig‘dirishingiz mumkin: urug‘li idishlar uchun bitta va va urug‘siz idishlar uchun bitta keks idishlari.



24-rasm. Ortiqcha sug‘orishni oldini olish uchun hosil qilingan teshiklar.

6. Ikkala keks idishlarini ham quyoshli deraza yaqiniga qo‘ying (yoki ob-havo yaxshi bo‘lsa ochiq havoga ham qo‘yishingiz mumkin). O‘simpliklar kun davomida iloji boricha quyosh nurini olishiga ishonch hosil qiling. O‘simpliklarni tashqariga qo‘yishga ishonchingiz komil bo‘lmasa, kattalardan so‘rang. Agar ob-havo yaxshi bo‘lmasa (agar juda issiq va quruq bo‘lsa yoki juda nam va yomg‘irli bo‘lsa) o‘simpliklar nobud bo‘lishi mumkin va siz tajribani qaytadan boshlashingiz kerak bo‘ladi.



25-rasm. Suv to‘kilmasligi uchun tuproq solingan idishlarni bir martalik keks idishiga joylashtirilgan holati

Taxminan keyingi 7-10 kun davomida idishlardagi tuproqni kuniga bir marta yumshoq qilib sug‘orib turing. Sizning o‘simliklaringiz taxminan 8-10 santimetr (sm) balandlikda bo‘lganda, siz keyingi qismga o‘tishga va tajribangizni o‘tkazishga tayyorsiz. Bu tajribaning qancha vaqt davom etishi harorat, quyosh nurining ta’siri, o‘simliklarni qancha sug‘orishingiz va siz foydalangan tuproq turi kabi omillarga qarab farq qilishi mumkin.

- a. Ularni sug‘orishda suvni sekinlik bilan quyib turing, shunda ortiqcha to‘kilgan suvning kuchi urug‘larni atrofga surib yubormaydi.
- b. Siz urug‘ ekilgan va urug‘ ekilmagan idishlarni bir xil sug‘orishga e’tibor qiling. Bu sizning tajribangizni haqqoniy chiqishini ta’minlaydi.

Tuproq eroziyasini tekshirish

1. Tajriba natijalarini qayd qilish uchun laboratoriya daftariga 4-jadvalni chizib oling.

4-jadval.

Ma’lumotlar jadvali

Tuproq massasi (gr)				
Tuproq turi	1-tajriba	2-tajriba	3-tajriba	O‘rtacha
Urug‘siz tuproq				
Urug‘li tuproq				

2. Bo‘sh tort idishining massasini o‘lchash uchun elektron tarozidan foydalaning va bu qiymatni laboratoriya daftaringizga yozing. Sizga keyinroq kerak bo‘ladi.

3. Har bir tuproq solingan idishning eni tomonining yarmiga qadar ikkita vertikal kesma hosil qiling, so‘ngra quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek, tuproqni ochish uchun bu tomonning yuqori yarmini pastga qaratib qatlang. Bu eroziya tajribasi uchun idishdan tuproqning oqib chiqishiga imkon beradi(26-rasm).

4. Tort idishlarini bo‘shating va kerak bo‘lganda quriting.
5. Tort idishlaridan birining yoniga taxminan 3-5 sm balandlikdagi plastik idishni (yoki shunga o‘xhash balandlikdagi boshqa narsadan foydalaning) joylashtiring.



26-rasm.. Kesma hosil qilingan tuproq solingan idish

6. Tuproq solingan alyuminiy idishini tort idishiga shunday joylashtiringki, idishning kesilgan tomoni tort idishning ichida qolsin (27-rasm).
7. Leykani suv bilan to‘ldiring. Har bir tajribaning boshida sug‘orish idishida bir xil miqdorda suv bo‘lishi muhimdir.



27-rasm. Tuproq eroziyasini tekshirish uchun idishlarni joylashtirish holati

8. Quyidagi amallarni bajarish orqali, tuproqli idishlarni “yomg‘ir yoqqan”dek qilib sug‘orishga harakat qiling:

Leykani 28-rasmda ko‘rsatilganidek, bir vaqtning o‘zida butun idishga suv quya oladigan darajada baland tuting. Bu butun maydon bo‘ylab yomg‘ir yoqqandek holatni hosil qiladi. Sug‘orishda suvning idishdan tashqariga tushishiga olib keladi, shuning uchun tajribani tashqarida yoki vannada qilish kerak.



28-rasm.Leykadan suv quyish jarayoni

- a. Suv faqat to‘plangan joyga tegishi uchun sug‘orish idishini non idishiga juda yaqin tutmang. Suv bir vaqtning o‘zida *butun* non idishiga tushishiga ishonch hosil qilishni xohlaysiz.
- b. Non idishiga suv quyayotganda sekin beshgacha sanang. Majburiy emas, siz ko‘ngilliga sizning vaqtingizni belgilash uchun soniya hisoblagichidan foydalanishi mumkin.
- c. Sug‘orish idishini qancha egishingizga va suvning non idishiga qanchalik qattiq tushishiga e’tibor bering. Har bir sinovingiz uchun aynan bir xil usuldan foydalanishingiz kerak bo‘ladi.

Ushbu rasmda leyka (ko‘rsatilmagan, lekin tuproq idishining tepasida ushlab turilgan) yetarlicha baland bo‘lib, suv bir vaqtning o‘zida butun tuproq solingan idishning hamma joyiga yomg‘ir yoqandek qilib tushishini ta’minlaydi. Bu butun “tepalik”larda yomg‘ir yog‘ish jarayonini tajribada ko‘rishga olib keladi.

9. Tuproqni sug‘orib bo‘lgandan so‘ng idishni ehtiyotkorlik bilan yuqoriga ko‘taring, tort idishiga qo‘srimcha tuproqlarni to‘kib yubormaslik uchun ehtiyot bo‘ling va uni chetga surib qo‘ying.

10. Sinovdan so‘ng, 29-rasmda ko‘rsatilganidek, tuproq aralash suv to‘kilgan tort idishi qolishi kerak.

11. Tuproqni to‘kib tashlamasdan, tort idishidan suvni ehtiyotkorlik bilan to‘kib tashlang, shunda 30-rasmida ko‘rsatilganidek, idishda faqat tuproq qoladi. E’tibor bering, suvni to‘kayotganda idishdagi tuproq ham tushib ketmasligi kerak. Oz miqdorda bo‘lsa ham to‘kilgan tuproq tajribaning aniq chiqmasligiga olib kelishi mumkin.



29-rasm. Sug‘orishdan keyin tort idishiga to‘kilgan suv aralash tuproq

12. Tort idishi va tuproq massasini o‘lchash uchun elektron tarozidan foydalaning. Faqatgina tuproq massasini hisoblash uchun bo‘shtort idishining massasini (siz avvalroq o‘lchagan bo‘lishingiz kerak) tuproqli tort idishi massasidan ayirib tashlang. Ushbu qiymatni ma’lumotlar jadvalingizga kriting.



30-rasm. Sug‘orish natijasida ajralib chiqqan tuproq miqdori

13. Qolgan beshta tuproqli idishlarning har biri uchun 4–12-bosqichlarni takrorlang.

14. Natijalaringizni tahlil qiling:

- a. Urug‘li va urug‘siz idishlar uchun eroziyalangan tuproq massasining o‘rtacha qiymatini hisoblang. O‘rtacha ko‘rsatkichlarni jadvalingizga yozib oling.
- b. x o‘qi (gorizontal chiziq) va y o‘qi (vertikal chiziq) bo‘yicha eroziyalangan tuproqning o‘rtacha massasini ko‘rsatgan holda, natijalaringizning shtrixli grafigini tuzing.
- c. Tajribadan olingan ma’lumotlar asosida, o‘simliklar yomg‘ir tufayli eroziyalangan tuproq miqdorini kamaytirishga yordam bergan degan xulosaga keldingizmi?
- d. Sizningcha, real hayotda erroziyani kamaytirish uchun o‘simliklardan qanday foydalanish mumkin? Sizning fikringizcha, real hayotiy vaziyatlar sizning tajribangizga qanchalik o‘xhash yoki undan farq qilishi mumkin

Nazorat uchun savollar

1. Tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy maqsadi nima?
2. O‘quvchilarda tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning qanday afzalliklari bor?
3. O‘quvchilarni tajriba-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish uchun qanday qadamlarni qo‘yish kerak?
4. Tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qanday amaliy mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi?
5. O‘quvchilarga mustaqil tadqiqot o‘tkazishni o‘rgatish uchun qanday usullar samarali?
6. O‘quvchilarining tadqiqot loyihamalarini rejalashtirish va amalga oshirishda o‘qituvchi qanday yordam bera oladi?
- 7.O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalariga qanday ta’sir qiladi?
8. Tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qanday topshiriqlar berilishi kerak?
9. Tajriba-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishda zamonaviy texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?

10. O‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni yechish uchun tadqiqot o‘tkazishga qanday yo‘llar bilan undash mumkin?

4-MAVZU: QIZIQARLI TAJRIBALAR VA KUZATISHLAR OLIB

BORISH

1. Qiziqarli tajribalar va kuzatishlar olib borishning ahamiyati
2. Tabiiy fanlar darslarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan qiziqarli tajribalar va kuzatishlar

Tayanch tushunchalar: qiziqarli tajribalar, kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, tabiiy fanlar darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan qiziqarli tajribalar

*Ilmiy savollarda, minglab odamlarning
fikridan bir kishining kamtarlik bilan olib
borilgan mantiqiy fikrlari ko‘proq qiymatga ega.*

Galileo Galilei

Tabiiy fanlar darslarida qiziqarli tajribalar va kuzatishlar olib borish o‘quvchilarga tabiiy dunyoni yaxshiroq tushunishga, ilmiy jarayonlarni o‘z ko‘zları bilan ko‘rishga va muhim ilmiy konseptlarni amaliyotda o‘rganishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar darslarni qiziqarli va interaktiv qilish orqali o‘quvchilarning ilmiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Qiziqarli tajribalar o‘tkazish va tajribalar olib borishda asosiy maqsad:


- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash. O‘quvchilar tajribalar orqali o‘zları o‘rgangan nazariy bilimlarini sinab ko‘rishadi.
- Ilmiy fikrlashni rivojlantirish. Tajriba va kuzatishlar orqali o‘quvchilar ilmiy uslubda fikrlashni, o‘z fikrlarini asoslashni va ilmiy metodlarni qo‘llashni o‘rganadilar.
- Yangi bilimlarni mustahkamlash. Tajribalar o‘quvchilarga tabiiy fanlar mavzularini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- Tajribali o‘rganish. Amaliy faoliyatlar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘rganilgan narsalar haqida qo‘sishma savollar va izlanishlar paydo bo‘ladi.

Tabiiy fanlar darslarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan qiziqarli tajribalar va kuzatishlar

1. Biologiya darsi: Fotosintez jarayonini kuzatish.

Maqsad: Fotosintez jarayonini o‘rganish (31-rasm).



31-rasm. Fotosintez jarayoni


Tajribani o‘tkazish: O‘quvchilarga ikkita o‘simlik (bitta yorug‘likda, bitta qorong‘ilikda) beriladi. Bir nechta kun davomida o‘simliklarni kuzatish va har ikki o‘simlikning rivojlanishi solishtiriladi. O‘simlikni qanday sharoitda tez o‘sishiga va barglarda kislorod ajralishining qanday bo‘lishiga qarab, fotosintez jarayonini tushuntirishadi.

Kuzatishlar: O‘simliklar barglaridagi kislorod pufakchalarini kuzatish va fotosintez jarayonining tahlilini qilish.

2. Kimyo darsi: Sirt tarangligini kuzatish.

Maqsad: Sirt tarangligini va uning suyuqliklar bilan o‘zaro ta’sirini tushunish.

Tajribani o'tkazish (32-rasm): Suv yuzasiga bir necha tomchi moy yoki suyuqlik qo'shiladi va suyuqliklar orasidagi farqlar kuzatiladi. Suyuq tomchilarning shakli, ularning suyuqlik yuzasida qanday harakat qilishi haqida o'quvchilar o'z kuzatishlarini olib borishadi.



32-rasm. Suvning sirt tarangligini kuzatish


Kuzatishlar: Suvning sirt tarangligi suyuqliklar orasida qanday farqlarni yuzaga keltiradi va bu xususiyatni kimyoviy reaktsiyalarda qanday qo'llash mumkinligini muhokama qilish.

3. Fizika darsi: Gravitatsiya kuchini sinash

Maqsad: Gravitatsiya va jismning og'irligini o'rganish.

Tajribani o'tkazish (33-rasm): Har xil og'irlikdagi jismlarni bir xil balandlikdan tushirib, yerga tushish vaqtini o'lchashadi. Gravitatsiya kuchi tomonidan qanday ta'sir ko'rsatilishini va og'irlik va massa o'rtaqidagi bog'liqlikni kuzatishadi.


Kuzatishlar: O'quvchilar har xil jismlarning bir xil balandlikdan qanday tushishini va qancha vaqt davomida yerga yetishini o'lchaydilar. Bu kuzatish orqali ularning massa va og'irlikni qanday farqlanishini tushunishadi.



33-rasm. Gravitatsiya va jismning og'irligini o'rGANISH

4. Ekologiya darsi: Ozon qatlaming himoyasini tushuntirish.

Maqsad: Ozon qatlaming ahamiyati va uni himoya qilish zaruriyatini tushunish.



34-rasm. Ozon qatlami

Tajribani o'tkazish: O'quvchilarga ozon qatlamini himoya qilishning asosiy vositalari (masalan, CFC (klorofluorokarbon) moddalarining ozon qatlamiga ta'siri) haqida ma'lumot berishadi. Oddiy "ozon qatlamini himoya qilish" tajribasi yordamida CFC moddalarining atmosfera bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini o'rGANISHADI.

Kuzatishlar: O'quvchilar ozon qatlaming zararlanishi va uning oqibatlarini kuzatishadi.

5. Astronomiya darsi: Koinotdagi sayyoralar o'rtasidagi farqlar

Maqsad: Sayyoralar va ularning fizika xususiyatlarini solishtirish (35-rasm).

Tajribani o‘tkazish: Sayyoralar va yulduzlar haqida ma’lumot to‘plib, ularning fizikaviy xususiyatlarini (masalan, gazlar, tuzlar, va boshqa moddalarning tarkibi) solishtirishadi. Planetar tizimdagи sayyoralarini teleskop orqali kuzatishadi.



35-rasm. Koinotdagи sayyorlar va yulduzlar

Kuzatishlar: Teleskop orqali sayyoralarini kuzatib, ularning harakati va yuzalaridagi farqlarni o‘rganishadi.

Tabiiy fanlar darslarida qiziqarli tajribalar va kuzatishlar ilmiy fikrlashni rivojlanтирishga yordam beradi. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarni ilmiy izlanishlarga undaydi, bilimlarni mustahkamlaydi va amaliy tajriba o‘tkazish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Topshiriqlar

1.- topshiriq. Tuzli suvning muzlash nuqtasini aniqlash: Tinglovchilar tuzli suvning muzlash nuqtasini aniqlash uchun tajriba o‘tkazishadi. Bir nechta suv namunalariga tuz qo‘shib, ularning muzlash nuqtasini o‘lchang.

Tajriba asosida quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Tuzli suvning muzlash nuqtasi qanday o‘zgaradi?
- 2) Tuzning suvning muzlash jarayoniga qanday ta’siri bor?
- 3) Boshqa moddalarning suyuqliklarning muzlash nuqtasiga ta’siri qanday?

2-topshiriq. Havodagi namlikning qanday qilib suv tomchilari (kondensatsiya)ga aylanishini kuzating. Buning uchun iliq idishga sovuq idishni qo‘yib, kondensatsiya jarayonini kuzatib boring. Quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Kondensatsiya qanday ro‘y beradi?
- 2) Kondensatsiya jarayonining sharoitlari qanday bo‘lishi kerak?
- 3) Kondensatsiya jarayoni haroratga qanday bog‘liq?

Nazorat savollari

1. Tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qanday topshiriqlar berilishi kerak?
2. O‘quvchilarga ilmiy gipotezalar yaratishni va ularni sinovdan o‘tkazishni qanday o‘rgatish mumkin?
3. O‘quvchilarda kuzatish, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari qanday?
4. O‘quvchilarni ilmiy maqolalar va tadqiqotlarni o‘qishga va tushunishga qanday rag‘batlantirish mumkin?
5. Tajriba-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda guruhli ishlarning roli qanday?
6. O‘quvchilarni turli tabiiy fanlar bo‘yicha tadqiqot loyihalariga jalb qilishning qanday usullari mavjud?
7. Amaliy tajribalar o‘tkazish orqali o‘quvchilarda qanday mas’uliyat va xavfsizlik qoidalari shakllanadi?
8. Qanday qilib o‘quvchilarda ilmiy masalalarni yechish jarayonida kreativ yondashuvni rivojlantirish mumkin?

5-MAVZU: FAN TA'LIMIDA SO'ROVGA ASOSLANGAN TA'LIM VA 5E YONDOSHUVI

Reja:

1. So'rovga asoslangan ta'lismi texnologiyasi
2. So'rovga asoslangan 5E modeli asosida tabiiy fanlar darslarini tashkil


Tayanch tushunchalar: So'rovga asoslangan ta'lismi texnologiyasi, 5E modeli, konstruktiv yondoshuv, 5E modeli asosida dars tuzilmasi

Ta'lismi, o'rghanish jarayonini faqat to'plangan bilimlarni uzatish emas, balki o'quvchining o'zini o'rgatish va so'rovlari orqali yangi bilimlar yaratish jarayonidir.

Jerome Bruner

Konstruktiv ta'lismi nazariyasini o'zida namoyon qiluvchi o'qitish texnologiyalaridan biri so'rovga asoslangan ta'lismi texnologiyasi bo'lib, bu ta'lismi texnologiyasi o'rganuvchilarni o'z bilimlarini o'zlari qurishlariga yordam beradi. Bunda o'qituvchi tayyor bilimni bermasdan, bolaning o'z bilimlarini yaratishga yordam beradigan tadqiqot o'tkazishga, izlanishga, muhokama qilishga yo'naltiruvchi savollar orqali yangi ma'lumotlar topishga undaydi. Garchi so'rovga asoslangan islohotlar yurtimizda ham amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ko'plab tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilari so'rovga asoslangan fan darslarini qanday tashkil qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bunday holatda so'rovga asoslangan metodikalarni sinflarda joriy etish va qo'llash uchun o'qituvchilar so'rovga asoslangan 5E modeli asosida tadqiqotlar o'tkazishga yo'naltirilgan dars rejalaridan foydalanishlari mumkin

5E o'qitish modeli har bosqichlarini ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin bo'lib, u kognitiv psixologiya, konstruktivist ta'lismi nazariysi va fan o'qitishning eng yaxshi amaliyotlariga asoslanadi Model ko'rinishi 36-rasmida tasvirlangan bo'lib, u o'rganishning kognitiv bosqichlarini o'z ichiga oladi: jalb qilish, tadqiq qilish, tushuntirish, kengaytirish va baholash.



36-rasm. 5E o'qitish modeli.

Bybee shunday ta'kidlaydi: “Bu yondashuvdan foydalanganda o‘quvchilar o‘zlarida mavjud bilimlarni qayta shakllantiradilar, tuzatadilar, kengaytiradilar va o‘zgartiradilar. Buning asosida o‘z-o‘zini reflektiv baholash, tengdoshlari va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir orqali yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. O‘quvchilar voqealarni talqin qiladilar, o‘zlaridagi mavjud tushunchalar bilan bog‘laydilar” Fan o‘qituvchilari ushbu modelni turli darajalarda o‘zlariga moslashtirishlari va qo‘llashlari mumkin. 5E o‘rganish modelini har bir bosqichini tavsiflaymiz.

Jalb qilish (Engage). Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning dastlabki bilimlarini aniqlash va ulardagi mavzu bo‘yicha mavjud bo‘shliqlarni aniqlaydi. Bu bosqich o‘quvchilarga yo‘naltirilgan bo‘lib, muammoli savollar berish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarni jalb etish va ularda qiziqish uyg‘otishga mo‘ljallangan. Bunda o‘qituvchi mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqarli voqealar, tajribalar, muammoli vaziyatlar, videoroliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Jalb qilish bosqichida o‘qituvchi ilmiy-nazariy bilimlarni ma’ruza qilishi, ta’riflar, qonunlarni yodlatishi, izohlar, tushuntirishlar berishi kerak emas.


Tadqiq qilish, o‘rganish (Exploration): keying bosqich tadqiqot o‘tkazish, o‘rganihs bosqichi bo‘lib, o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tajriba, tadqiqot o‘tkazishga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi. Bu bosqich o‘quvchilarga qaratilgan va faol o‘rganish jarayonini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar kuzatishlar olib borish, tajribalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish, taqqoslash, tasniflash, gipotezalar yaratish va ularni tekshirish, xulosalar chiqarish orqali ularda hayotiy ko‘nikmlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni tushuntirishdan oldin shu ilmiy bilimlar bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy tajriba beriladi.

Tushuntirish (Explanation): Tushuntirish bosqichida o‘qituvchi dastlabki ikki bosqichda o‘quvchilardagi mavjud tushunchalar va bo‘shliqlarni aniqlab, ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarga o‘z tushunchalarini taqdim etish va o‘rganilgan mavzuga oid yangi savollarni berish imkoniyati taqdim etiladi. O‘qituvchi tushuntirish berishdan oldin o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash va o‘z g‘oyalarini baham ko‘rish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar o‘z tushuntirishlarini bildirgach, o‘qituvchi ilmiy va texnik ma’lumotlarni aniq tarzda taqdim etadi. O‘qituvchi, shuningdek, o‘quvchilarning tushunishini yaxshilash uchun vizual yordamchi materiallardan, masalan, video yoki kompyuter dasturlaridan foydalanishi mumkin.

Kengaytirish (Elaboration): Bu bosqichda o‘quvchilar o‘rgangan yangi bilimlarini o‘zida mavjud bilimlarga bog‘lab uni yangi vaziyatlarda amalda qo‘llashga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar loyiha ishlari, yangi tajribalar yoki modellar asosida eksperimentlar o‘tkazish, keyslar orqali o‘z tushunchalarini yanada kengroq va chuqurroq anglashga yo‘naltirishdir. O‘quvchilar qo‘srimcha tadqiqotlar o‘tkazish, yangi mahsulotlar yaratish, ma’lumotlar va g‘oyalar bilan bo‘lishish, yoki o‘z bilimlarini boshqa fanlarga tatbiq etishlari mumkin. Bu bosqichda fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ham mavjud.

Baholash (Evaluation): So‘rovga asoslangan o‘qitishda baholash an’anaviy o‘qitishdagi baholashdan farq qiladi. Rasmiy va norasmiy baholash usullari birgalikda qo‘llanilishi zarur. 5E modeli asosidagi darslarda o‘quvchilarni

baholash butun dars jarayonini qamrab oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni doimiy kuzatib boradilar, ulardagi noto'g'ri tushunchalar shaklansa to'g'rilab boradilar. Shuningdek o'quvchilar o'zini-o'zi yoki sheriklarini baholashi mumkin. 5E modeli asosida tabiiy fanlar (Science) darslarini tashkil etish samarali bo'lib birinchi navbatda o'qituvchilarda bunday darslarni to'g'ri tashkil etish ko'nikmasini rivojlantirish zarur. Quyidagi jadvalda qanday qilib 5E modeli asosida darslarni samarali tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (37-rasm). 5E modeli asosida darslarni tashkil etish tuzilmasi o'qituvchilarga darslarni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga imkoniyat yaratadi. O'qituvchilar ko'pincha kitobda berilgan tartibda bo'limlar yoki mavzularni o'qitishadi. Ammo turli xil va moslashuvchan o'qitish usullari, diqqatni jamlashda qiynalayotgan bolalarga yordam beradi. 5E modeli o'qituvchilarga o'quvchilarga yangi yoki qiziqish bildirmaydigan mavzularni qiziqarli qilish uchun bir vosita sifatida xizmat qiladi.



37-rasm. 5E modeli asosida darslarni tashkil etish tuzilmasi

Yuqorida taklif etilgan konstruktiv ta’lim texnologiyalari asosida mashg‘ulotlar o‘tish nafaqat o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish balki uzlusiz ta’lim turlaridan biri bo‘lgan kasbiy rivojlanish tizimida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mashg‘ulotlarni sifatli tashkil etishga yordam beradi. Taklif etilayotgan So‘rovga assolangan 5E modeli bo‘yicha darslarni tashkil etish tuzilmasidan foydalanib quyida tabiiy fanlar darsligidagi “Kuch” mavzusini o‘tish texnologiyasini ishlab chiqish mumkin (5-jadval).

5-jadval.

5E modeli asosida dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Sana:	Sinf:	Darslik sahifasi: 134-135
10 Bob. Harakat va kuch.		
Mavzu: Kuch		
Dars maqsadlari: O‘quvchilar quyidagilarni bajara oladilar: kuch nima ekanligini tushuntirib bera oladilar; kuch turlarini farqlay oladilar; atrofdagi jismlar ta’sirlashishi natijasida harakatga kelishini tushuntirib bera oladilar; guruh muhokamasida faol ishtirok etadilar.		
Dars jarayoni		
Kerakli materiallar: qog‘oz bo‘laklari, rezina tasma, kompas, stakan, yog‘och taxta, magnit, metal sharchalar, doska, bo‘r, prujinalar.		
Bosqich	Jarayon mazmuni	Vaqt
Jalb qilish	Muammoli vaziyat yaratish: 1. O‘quvchilarga juft-juft bo‘lib qo‘l berib kuch sinashlarini ayting va ushbu holatda nimani his qilganlarini so‘rang. 2. Har bir guruhga berilgan qog‘oz bo‘lagini g‘ijimlab yana dastlabki holatga qaytarishlarini ayting. 1-Savol: Birinchi holatda nimani his qildingiz va anima uchun shunday bo‘ldi?	7-minut

	2-savol: Ikkinci holatda nimani ko‘rdingiz va anima uchun shunday bo‘ldi?	
Tadqiqot qilish	30-rasmda keltirilgan tajribani bajaring. Guruhlarda muhokama qiling. 1. Nima uchun rezinani tortganimizda cho‘zilyapdi? 2. Nima uchun stakan qo‘ldan tushib ketdi? 3. Sharchani tepadan pastga tashlaganimizda nimaga u yerga qaytib tushyapdi?	10 minut
Tushuntirish	Tajriba asosida xulosalariningizni bayon qiling. O‘quvchilardagi bo‘shliqlar asosida o‘qituvchi yo‘naltirilgan savollar orqali mavzuni tushuntirib beradi.	10 minut
Kengaytirish	Olgan bilimlarini hayotga tatbiq qilish berilgan topshiriqlar asosida. Yana qanday muammolarga kuchni bog‘lash mumkin.	13-minut
Baholash	O‘qituvchi GRASPS usulida o‘quvchilarni baholaydi. o‘quvchilar o‘zaro bir-birini va o‘zini baholaydi.	5-minut

1. Jalb qilish.

O‘qituvchi faoliyati. O‘quvchilarga juft-juft bo‘lib qo‘l berib kuch sinashlarini ayting va ushbu holatda nimani his qilganlarini so‘rang (Hamma uchun majburiy emas).

2. Har bir guruhga berilgan qog‘oz bo‘lagini g‘ijimlab yana dastlabki holatga qaytarishlarini ayting.

1-Savol: Birinchi holatda nimani his qildingiz va nima uchun shunday bo‘ldi?

2-savol: Ikkinci holatda nimani ko‘rdingiz va nima uchun shunday bo‘ldi?

Jarayonni kuzatib boring.

O‘quvchilar javoblari baholanmaydi va tanqid qilinmaydi.

O‘quvchi faoliyati: yonma yon o‘tirgan o‘quvchilar kuch sinashadilar. Nimaga qo‘llar qisilganida og‘riq his qilganini muhokama qiladilar. O‘z fikrlarini erkin bayon etadilar.

Tadqiqot qilish.

O‘qituvchi faoliyati. Kuchlar atrofimizdagi hamma narsaga ta’sir qiladi.

Surish, itarish yoki tortish.

- Savol: Atrofimizdagi jismlarga yana qanday turdagи kuchlar ta’sir qiladi?

- Savol: Nima uchun tirik baliqlarni ushslash qiyin (38-rasm).



38-rasm.

Quyidagi rasmlarda keltirilgan jismlarda ishqalanish kuchining ahamiyatini tushuntirib bering (39-rasm)?



39-rasm

Quyidagi rasmda ko‘rsatilgan tajribani bajaring va jismlarga ta’sir qiluvchi kuchlarni topping; rezina tasma, kompas, stakan (40-rasm).



40-rasm

O‘quvchi faoliyati: Rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar. Guruhda tajriba o‘tkazadilar, muhokama qiladilar va savollarga javob beradilar. Natijalarni daftarlariiga qayd qilib boradilar.

Tushuntirish. Kundalik hayotimizda qanday kuchlarni kuzatishimiz mumkin?



O‘qituvchi qaydlari. Kundalik hayotda muskullarimiz yordamida tortish, itarish, uloqtirish yoki jismni joyidan qo‘zg‘atish uchun kuch ishlatamiz. Jismlar kuch ta’sirida harakatga keladi. Masalan, velosiped

pedalini aylantirish, xona eshigini ochish va boshqalar. Kuch jismlarni harakatga keltiruvchi asosiy sababdir. Kuchlarning quyidagi turlarini o‘rganamiz: muskul kuchi, mexanik kuch, ishqalanish kuchi. Biz sumkamizni ko‘taramiz, ruchkani qo‘l barmoqlarimiz bilan mahkam tutib, u bilan yozamiz, uy zinalarida harakatlanib yuqoriga ko‘tarilamiz, sport maydonchalarida yuguramiz. Barcha harakatlarni bajarish uchun muskul kuchlaridan foydalanamiz. Muskullar tomonidan yuzaga keladigan kuchga muskul kuchi deyiladi. Jismga muskul kuchi ta’sir qilganda, uning shakli o‘zgaradi. Masalan, havo solingan pufak bosilganda kuch ta’sirida uning shakli o‘zgaradi. Novvoy xamirga shakl berib, non mahsulotlarini tayyorlashda, kulol loyga ishlov berib, turli xil idishlar yasashda muskul kuchidan foydalanadi. Muskul kuchi jism harakatining yo‘nalishini va tezligini o‘zgartiradi. Masalan, tennis o‘yinida o‘yinchi tennis koptogini raqibiga qarata urganida uning muskul kuchi koptok yo‘nalishini o‘zgartiradi. Tennis koptogini urish bilan tezlikni oshirish yoki kamaytirish mumkin. Haydovchi avtomobil rulini muskul kuchi bilan aylantirganda g‘ildirak avtomobil harakatining yo‘nalishini o‘zgartiradi. Mexanik kuch. Turli mashinalar mexanik kuchni yuzaga keltiradi. Masalan, traktorning yerni tekislashida, ko‘tarish krani bilan yukni ko‘tarishda mexanik kuchdan foydalaniladi. Ishqalanish kuchi – jism biror narsa ustida harakatlanganda uning harakatiga qarshilik ko‘rsatadigan kuch. Masalan, qalam stol yuzasi bo‘ylab dumalatilganda birozdan so‘ng uning harakati sekinlashadi va to‘xtab qoladi. Bunga sabab qalam harakatiga qarshi ishqalanish kuchining yuzaga kelishidir. Ishqalanish kuchi jism harakatini sekinlashtiradi yoki harakatga to‘sinqilik qiladi. Ishqalanish kuchi sirpanishning oldini oladi, yiqilmasdan yurishimizga yordam beradi. Oyoq kiyimlarimiz va yer orasidagi ishqalanish kuchi

mavjud bo‘lgani bois bemalol yura olamiz. Muzda ishqalanish kuchi kam bo‘lgani uchun muzning sirpanchiq yuzasida yurish qiyin.

Kengaytirish.

O‘qituvchi faoliyati.

1-vaziyat: Bir kichik bola, uyida ota-onasiga yordam berish maqsadida, katta bir sumkani ko‘tarishga urinyapti. Ammo sumka juda og‘ir, va bola uni ko‘tara olmayapti. U kuchsiz bo‘lishi sababli, sumka uning kuchidan oshib ketmoqda. Bola bu vaziyatda qanday qilib kuchini samarali ishlatalishni yoki yordam so‘rashni bilmaydi. Bunday holatda o‘quvchiga qanday maslahat bergen bo‘lar edingiz yoki o‘zingiz bu vaziyatdan qanday qilib chiqib ketgan bo‘lar edingiz.

2-vaziyat. Bir kuni kompyuterlar va televizorlar ishlamay qoladi. O‘quvchilardan biri o‘zining kompyuteriga elektr energiyasi kelmasligini sezadi, boshqa bir o‘quvchi esa magnit maydonlarni tushunmasdan, telefonni televizor oldida magnit kabi ishlatalishni boshlaydi. Buning natijasida, televizor ekranini noto‘g‘ri ishlay boshlaydi va ekranda g‘aroyib shakllar ko‘rinadi.

Savollar:

1. Elektr kuchining ta’siri: Nima sababdan kompyuter va televizorlar ishlamay qoldi? Elektr toki o‘zgarishi yoki uzilishi qanday muammolarga olib kelishi mumkin? Elektr toki nima uchun bizning kundalik hayotimizda muhim ahamiyatga ega?

2. Magnit maydonlarining ta’siri: Telefonni televizor oldida magnit kabi ishlatgan o‘quvchi nima uchun televizor ekranini noto‘g‘ri ishlashini kuzatdi? Magnit kuchlarining elektron qurilmalarga qanday ta’siri bor?

3. Xavfsizlik: Elektr toki bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari qanday bo‘lishi kerak? Magnit maydonlari qanday holatlarda xavfli bo‘lishi mumkin va ulardan qanday ehtiyyotkorlik bilan foydalanish kerak?

Baholash.

GRASPS (Goal, Role, Audience, Situation, Product, Standards) metodikasi o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarda faol ishtirok etish va ilmiy

tushunchalarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

1. Goal (Maqsad): O'quvchilar elektr va magnit kuchlarining hayotdagi amaliy qo'llanilishini tushunishlari va kuzatishlari kerak. Ular tajriba yordamida kuchlarning qanday ishlashini va qanday holatlarda ular muhim rol o'ynashini tushunishlari lozim. Shuningdek, o'quvchilar kuchning turlarini, masalan, elektr, magnit, va gravitatsion kuchlarni ajratishlari va ularning amaliy hayotda qanday qo'llanishini o'rganishlari kerak.

2. Role (Rol): O'quvchilar ilmiy tadqiqotchilar sifatida rol o'ynashadi. Ular laboratoriyada yoki sinfda o'tkazilayotgan tajribalarda ishtirok etadilar va o'rganilayotgan kuchlarning ta'sirini o'rganishadi.

3. Audience (Tomoshabinlar): Tomoshabinlar — bu o'quvchilar o'zlarining tengdoshlarini (sinfdoshlari) va o'qituvchilarni o'zlarining tajribalaridan olingan natijalar bilan tanishtiradilar. Shuningdek, ularning o'rganish jarayonida "ilmiy журнallar" uchun maqolalar yozishlari kerak bo'ladi, bu esa ularni ilmiy va metodologik nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganishga undaydi.

4. Situation (Vaziyat): Sinfda o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot yoki laboratoriya mashg'ulotlari davomida o'quvchilar elektr va magnit kuchlarining amaliyotda qanday ishlashini sinovdan o'tkazadilar. Masalan, o'quvchilar magnit bilan ishlashda, elektr toki orqali ishlaydigan qurilmalar va elektr kuchlarining ta'sirini o'rganadilar. Ular tadqiqotlar orqali muammolarni hal qilishlari va qaysi kuchlarning o'zaro ta'sirini aniqlashlari kerak bo'ladi.

5. Product (Mahsulot): O'quvchilar o'zlarining ilmiy tajribalari va kuzatishlarini quyidagi shakllarda taqdim etadilar:

- Ilmiy tajriba natijalari haqida hisobot yoki prezentatsiya tayyorlash.
- Tajriba va kuzatuvlar bo'yicha grafiklar yoki diagrammalar tuzish.
- Ilmiy maqola yozish, unda kuchlarning amaliyotdagi qo'llanilishi va kuzatish natijalari haqida batafsil ma'lumot berish.
- Tadqiqot natijalarini sinfda muvofiqlashtirilgan muhokama orqali taqdim etish.

6. Standards (Standartlar):

O‘quvchilar quyidagi ilmiy malakalarga ega bo‘lishi kerak:

Kuch tushunchasini tushunish: Elektr, magnit, gravitatsion va boshqa kuchlarning asosiy prinsiplari.

Ilmiy metodni qo‘llash: Eksperimentlarni rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish.

Kuzatish va tahlil qilish: O‘quvchilar o‘z kuzatishlarini to‘g‘ri yozib olish va tahlil qilishlari, kuchlar orasidagi munosabatlarni aniqlashlari kerak.

Savollarni berish va muammo yechish: O‘quvchilar kuchlarning amaliy muammolarini aniqlash, savollarni formulalashtirish va ilmiy usullar yordamida ularni yechish.

Muammoli vaziyat:

Sinfda magnit va elektr kuchlarining amaliy qo‘llanilishini o‘rganayotganda o‘quvchilar quyidagi savolga javob berishlari kerak:

Savol: Sizda bir necha turdagи magnitlar, simlar, va batareyalar mavjud. Har bir magnit yoki elektr manbasi yordamida qanday kuchlar hosil bo‘lishini va bu kuchlarning o‘zaro ta’sirini qanday kuzatishingiz mumkin? Tajriba o‘tkazish va natijalarni ilmiy tahlil qilish orqali bu kuchlarning qanday ishlashini aniqlang.

Nazorat savollari

1. So‘rovga asoslangan ta’lim deganda nimani tushunasiz va uning asosiy maqsadi nima?
2. So‘rovga asoslangan ta’limni qanday qilib samarali tashkil qilish mumkin?
3. So‘rovga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalarni rivojlantiradi?
4. So‘rovga asoslangan ta’limning an'anaviy ta’limdan farqli jihatlari nimada?
5. Qanday savollar orqali o‘quvchilarni so‘rovga asoslangan ta’limga jalb qilish mumkin?
6. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishda so‘rovga asoslangan ta’limning qanday o‘rni bor?
7. So‘rovga asoslangan ta’limning qaysi usullari tabiiy fanlarda keng qo‘llaniladi?

8. So‘rovga asoslangan ta’lim va 5E yondashuvi o‘quvchilarda ilmiytadqiqotchilik qobiliyatlarini qanday rivojlantiradi?

9. So‘rovga asoslangan ta’lim va 5E modelini fan darslari uchun moslashtirishda qanday usullar qo‘llaniladi?

6-MAVZU: TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi va asosiy tamoyillari.
2. Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi asosida tabiiy fanlar (Science) darslarini tashkil etish

Tayanch tushunchalar: Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi, tamoyillar, amalga oshirish bosqichlari, afzalligi

*O‘rtamiyona o‘qituvchi aytadi,
Yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi,
Oliy o‘qituvchi tajribada ko‘rsatadi,
Buyuk o‘qituvchi ilhomlantiradi.*

William A. Ward

Muammoga asoslangan ta’lim (PBL - Problem-Based Learning) texnologiyasi tabiiy fanlar darslarini tashkil etishda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu usul o‘quvchilarga ilmiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

Muammoga asoslangan ta’lim (PBL) nima?

PBL - bu o‘quvchilarning real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali o‘rganishni rag‘batlantiruvchi ta’lim usuli. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlashadi, muammoni tahlil qilishadi, zarur bilimlarni o‘zlashtirishadi va yechimlarni izlaydi. PBL konstruktivizm falsafasiga asoslanadi, ya’ni bilimlar konstruktsiyasi o‘quvchilarning o‘z tajribalariga asoslanadi. O‘quvchilar o‘z

bilimlarini faol ravishda yaratadi va bu jarayonda yangi bilimlarni avvalgi bilimlari bilan bog'laydi.

PBL yondashuvi o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatları atrofida tashkil etiladi. O'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarını boshqaradi va nazorat qiladi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

PBLda qo'llaniladigan muammolar real hayotga yaqin va dolzarb bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada qiziqrli va maqsadli qiladi hamda ularning kelajakdagi professional faoliyatiga tayyorlaydi.

PBL jarayonining muhim qismi refleksiya hisoblanadi. O'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarini, ishlatilgan strategiyalarni va erishilgan natijalarni tahlil qiladi. Bu o'z-o'zini baholash va doimiy rivojlanish uchun muhimdir.

PBL o'quvchilarga doimiy o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini o'rgatadi. Bu kelajakda ular murakkab masalalarni mustaqil ravishda hal qilish va yangi bilimlarni egallash imkoniyatini beradi. Quyida PBL ning asosiy tamoyillari keltirilgan (41-rasm).



41-rasm. Muammoga asoslangan ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyillari

- ❖ **Muammo markazli bo'lishi:** O'quv jarayoni muammo atrofida tashkil etiladi.
- ❖ **Asosiy markazda o'quvchi:** O'quvchilar muammoni hal qilish jarayonida faol rol o'ynaydi.

- ❖ **Interdisiplinar yondashuv:** Bir necha fanlar bo'yicha bilimlar birlashtiriladi.
- ❖ **Reflektiv o'rganish:** O'quvchilar o'zlarining o'rganish jarayonini tahlil qiladi va baholaydi.

Muammoga asoslangan ta'lif texnologiyasini amalga oshirish bosqichlari

- O'qituvchi o'quvchilarga haqiqiy muammoni taqdim etadi.
- O'quvchilar muammoni tahlil qiladi va zarur bo'lgan bilimlarni aniqlaydi.
- O'quvchilar kerakli bilimlarni mustaqil ravishda yoki guruhda o'rganadi.
- O'quvchilar muammoning yechimini ishlab chiqadi va taqdim etadi.
- O'quvchilar o'zlarining o'rganish jarayonini tahlil qiladi va baholaydi.


Tabiiy fanlar darslarida PBLni qo'llash

1. **Muammo tanlash:** Tabiiy fanlar doirasida haqiqiy va qiziqarli muammolarni tanlash: ekologik muammolar, energiya manbalari, iqlim o'zgarishi v.h.o
2. **Resurslar taqdim etish:** O'quvchilar uchun zarur bo'lgan resurslar va materiallarni taqdim etish: Kitoblar, ilmiy maqolalar, videolar, laboratoriya jihozlari v.h.o
3. **Guruhi shini tashkil etish:** O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish va guruhi shini nazorat qilish: Guruhdagi rollarni taqsimlash, kommunikatsiya va hamkorlikni rag'batlantirish v.h.o
4. **Yordam va ko'rsatmalar berish:** O'qituvchi o'quvchilarga yordam beradi va yo'naltiradi, lekin muammoni hal qilishda bevosita aralashmaydi: Savollar berish, resurslarga yo'naltirish, muammoni tahlil qilishga yordam berish v.h.o
5. **Taqdimot va baholash:** O'quvchilar o'z yechimlarini taqdim etadi va boshqa guruhlar bilan baham ko'radi: Taqdimotlar, hisobotlar, refleksiya v.h.o

PBL ning afzalliklari

Muammoga asoslangan ta'lif texnologiyasining afzalligi (42-rasm) shundaki o'quvchilar bu jarayonda faol bo'ladilar. Bu texnologiya asosida darslar

tashkil qilinganda asosiy maqsad qo‘yilgan muammoni aniq ijobiy yechimini topish emas, balki o‘quvchilarning shu jarayondagi faol ishtiroki muhim sanaladi.



42-rasm. PBL ning afzallik jihatlari

Tabiiy fanlar (Science) darslarida PBL asosida foydalanish mumkin bo‘lgan keng ko‘lamdagи muammolar

Muammoga asoslangan ta’lim (PBL) yondashuvi keng ko‘lamdagи muammolarni hal qilish uchun qo‘llanilishi mumkin. Quyida tabiiy fanlar bo‘yicha darslarda foydalanish mumkin bo‘lgan ba’zi muammolar keltirilgan:

Ekologik muammolar



43-rasm. Havo ifloslanishi

1. Plastik ifloslanishi:

Muammo: Dengiz va okeanlardagi plastik chiqindilar.

Yechim: Biologik parchalanadigan materiallardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishslash.

2. Havo ifloslanishi (43-rasm):

Muammo: Sanoat va avtomobillar chiqindilari sababli havo ifloslanishi.

Yechim: Filtratsiya texnologiyalari, yashil energiya manbalaridan foydalanish.

3. O‘rmonlarning yo‘q qilinishi:

Muammo: O‘rmonlarning kesilishi va ekologik muvozanatning buzilishi.

Yechim: Daraxt ekish kampaniyalari, barqaror o‘rmon xo‘jaligi amaliyotlari.

Energetika muammolari



44-rasm. Energiya manbalari

1. Yangilanishi mumkin bo‘lgan energiya manbalari (44-rasm):

Muammo: An’anaviy energiya manbalarining tugashi va atrof-muhitga zarar keltirishi.

Yechim: Quyosh, shamol, geotermal va gidroelektr energiyasidan foydalanish.

2. Energiya samaradorligi:

Muammo: Energiya isrofgarchiligi va energiya tejamkor qurilmalar yetishmasligi.


Yechim: Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va iste’molchilarini xabardor qilish.

Iqlim o‘zgarishi

1. Global isish (45-rasm):

Muammo: Karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlarining ortishi.

Yechim: Karbonat angidridni kamaytirish choralari, yashil loyihalar.



45-rasm. Global isish

2. Ekstremal ob-havo hodisalari:

Muammo: Qurg‘oqchilik, toshqinlar, dovullar.

Yechim: Ob-havo prognozlash texnologiyalari, favqulodda vaziyatlar uchun reja ishlab chiqish.

Sog‘liqni saqlash va biologik muammolar

1. Yuqumli kasalliklar:

Muammo: Viruslar va bakteriyalarning tarqalishi.

Yechim: Vaksinalar, sanitariya amaliyotlari, xabardorlik kampaniyalari.



46-rasm. Inson sog‘lig‘iga bog‘liq muammolar

2. Genetik kasalliklar:

Muammo: Irsiy kasalliklarning aniqlanishi va davolanishi.

Yechim: Genetik tadqiqotlar, gen terapiyasi.

Suv resurslari



47-rasm. Ichimlik suvining ifloslanishi

1. Ichimlik suvining yetishmasligi:

Muammo: Suv resurslarining cheklanganligi va ifloslanishi.

Yechim: Suvni tozalash texnologiyalari, suvni tejash amaliyotlari.

2. Suv ifloslanishi (47-rasm):

Muammo: Sanoat chiqindilari va qishloq xo‘jaligi kimyoviy moddalarining suv havzasiga tushishi.

Yechim: Suv resurslarini nazorat qilish va ifloslanish manbalarini kamaytirish.

Oziq-ovqat xavfsizligi

1. Genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqatlar (48-rasm):

Muammo: GMO mahsulotlari va ularning inson salomatligiga ta’siri.



48-rasm. GMO mahsulotlari

Yechim: GMO mahsulotlarini tadqiq etish va xavfsizlik choralarini qo’llash.

2. Qishloq xo‘jaligi barqarorligi:

Muammo: Tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi.

Yechim: Barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlari, organik dehqonchilik.

Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi asosida tabiiy fanlar (Science)

darslarini tashkil etish (energetika muammolari misolida)

Muammoga asoslangan ta’lim (PBL) texnologiyasini energetika muammolari bo‘yicha darslarni tashkil etishda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatish uchun batafsil bir misol keltiraylik. Bu misolda biz ekologik toza energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha muammoni ko‘rib chiqamiz.

Dars mavzusi: Ekologik toza energiya manbalari

1. Muammoni taqdim etish

a) Kirish. *O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi muammoni taqdim etadi:* “Sizning shahringizda energiya iste’moli yildan-yilga ortib bormoqda va bu elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ko‘mirga bog‘liqlikni oshirmoqda. Bu atmosferaga zararli chiqindilarni ko‘paytirib, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shahar hukumati ekologik toza energiya manbalarini joriy etishni rejorashtirmoqda, ammo qaysi energiya manbalarini tanlash va qanday qilib joriy etish kerakligi haqida qaror qabul qilish uchun ekspertlar guruhiga murojat qildi. Sizning vazifangiz - turli ekologik toza energiya manbalarini o‘rganish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish va shaharga eng mos keladigan energiya manbalarini tanlash.”

b. Dastlabki muhokama. O‘quvchilar muammoni muhokama qilib, quyidagi savollarni aniqlaydilar:

- Qaysi ekologik toza energiya manbalari mavjud?
- Har bir energiya manbasining afzalliklari va kamchiliklari qanday?
- Energiya manbalarining iqtisodiy, ekologik va texnik jihatlari qanday?
- Shaharning geografik va iqlim sharoitlariga qaysi energiya manbalari mos keladi?

2. Muammoni tahlil qilish va o‘rganish masalalari

a. *Ma'lum va noma'lum narsalarni aniqlang.* O'quvchilar quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydilar:

- Ma'lum: Ekologik toza energiya manbalari (quyosh, shamol, gidroenergiya, biomassa va boshqalar) mavjud.
- Nomalum: Har bir energiya manbasining konkret afzalliklari va kamchiliklari, shaharning o'ziga xos sharoitlari uchun qaysi manbalar eng mos keladi.

b. *Savollar yaratish* O'quvchilar tadqiqot qilish uchun quyidagi savollarni tuzadilar:

- Quyosh energiyasining afzalliklari va kamchiliklari qanday?
- Shamol energiyasining afzalliklari va kamchiliklari qanday?
- Gidroenergiya qanday ishlaydi va uning ekologik ta'siri qanday?
- Biomassa energiyasining iqtisodiy samaradorligi qanday?
- Shaharning geografik va iqlim sharoitlari qaysi energiya manbalariga mos keladi?

3. Mustaqil o'rghanish

a. *Tadqiqot qilish va o'rghanish.* O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh muayyan energiya manbasini o'rghanadi. Ular quyidagi manbalardan foydalananadilar: ilmiy maqolalar va kitoblar, internet orqali ishonchli ma'lumot manbalar, soha mutaxassislari bilan intervyu.

b. *Resurslardan foydalanish.* Har bir guruh o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan resurslardan foydalanadi va o'z tadqiqotlarini mustaqil ravishda olib boradi.

4. Guruh muhokamasi va yechim ishlab chiqish

a. *O'rganganlarini baham ko'rish.* Har bir guruh o'z tadqiqot natijalarini sinf bilan bo'lishadi. Har bir guruh o'z ishini taqdimot qiladi.

b. *Yechimlarni ishlab chiqish.* O'quvchilar umumiy muhokama orqali turli energiya manbalarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qiladi va shaharga eng mos keladigan energiya manbalarini tanlash bo'yicha qaror qabul qiladi.

c. Tanqidiy baholash. O‘quvchilar tanlangan yechimlarning texnik, iqtisodiy va ekologik jihatlarini baholaydi va qabul qilingan qarorning asoslanishini taqdim etadi.

5. Refleksiya va fikr-mulohaza

a. O‘rganganlarini tahlil qilish. O‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini tahlil qiladi:

- Nimalarni o‘rgandilar?
- Qanday qiyinchiliklarga duch keldilar?
- Qanday strategiyalar muvaffaqiyatli bo‘ldi?

b. Fasilitatorning fikr-mulohazasi. O‘qituvchi har bir guruhning faoliyatini baholaydi va konstruktiv fikr-mulohaza beradi

c. O‘zini va tengdoshlarini baholash. O‘quvchilar o‘z va guruh a’zolarining ishtirokini baholaydi, bu esa ularning o‘z-o‘zini baholash va doimiy rivojlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi tabiiy fanlar darslarini yanada qiziqarli va samarali qilishda katta imkoniyatlarga ega. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat fan bilimlarini o‘zlashtiradi, balki muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Muammoga asoslangan ta’lim texnologiyasi va falsafasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llaniladigan amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirish imkonini beradi.

Topshiriqlar bilan iashlash

1-guruuh

Sizning jamoangiz ekologik tashkilotda ishlayotgan tadqiqotchilar sifatida bir nechta shaharni ifloslanishdan himoya qilish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishi lozim. Shu bilan birga, bu strategiyalar tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

- Ifloslanish va uning turli xil ekologik muammolarni qanday yuzaga keltirayotganini o‘rganing.
- Elektr va magnit kuchlarini atrof-muhitni himoya qilish uchun qanday foydalansak bo‘lishini izlab toping.
- Misol uchun, sizning hududingizdagi magnit maydonlar yordamida toza energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari haqida izlanish olib boring.

O‘quvchilarga ekologik himoya uchun yangi texnologiyalar va ilmiy yechimlarni ishlab chiqish taklif qilinadi.

2-guruhs

Bir katta qurilish kompaniyasi ko‘prik qurish uchun yangi loyiha boshlamoqchi. Ko‘prikni qurishda foydalilaniladigan materiallar va asbob-uskunalar orasida kuchning qanday ta’siri borligini aniqlash kerak. Ishni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan kuch miqdorini hisoblash va mos materiallarni tanlash zarur.

- Tinglovchilarga kuch va ishning fizikaviy qonunlarini o‘rganishlarini so‘rash.
- Tinglovchilar ko‘prikni qurishda qanday kuchlar, masalan, tortishish kuchi, normal kuch va ish bajarish kuchi ta’sir qilishini aniqlashlari kerak.
- Ularning vazifasi ko‘prikning xavfsizligini ta’minlash uchun kerakli materiallar va ish kuchini hisoblashdan iborat.
- Tinglovchilarga ko‘prikni qurish jarayonida kuchlarning samarali ta’sirini ko‘rsatuvchi ilmiy izlanishlarni olib borish va taqdimot qilish talab qilinadi.

3-guruhs

Bir necha yil oldin kichik bir shahar hududida shovqinli, elektr va magnit kuchlarining ta’sirini kamaytirish uchun yangi loyihalar ishlab chiqilgan edi. Endi bu loyihalarni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kerak.

- Shovqin, magnit maydon va elektr toki bilan bog‘liq bo‘lgan fizikaviy jarayonlarni o‘rganing.
- Shovqinni kamaytirish uchun qanday kuchlar va texnologiyalarni qo‘llash mumkinligini aniqlang.

- Tinglovchilar yangi innovatsion texnologiyalarni va qurilmalarni ishlab chiqish orqali magnit va elektr kuchlari ta'sirini qanday kamaytirish mumkinligini taklif qiladilar.
- Ular shovqin va magnit maydonlarni qanday boshqarish va inson salomatligiga qanday ta'sir qilmasligi uchun qanday texnologiyalarni joriy etish lozimligini tushuntiradigan ilmiy xulosalar tayyorlaydilar.

4-guruh

Sizning guruhingiz astronomlar va muhandislardan iborat bo'lib, yangi quyosh energiyasi ishlab chiqarish tizimi uchun gravitatsion kuchning ta'sirini o'rganayotgan tadqiqotchilarsiz. Quyosh energiyasini maksimal darajada samarali olish uchun gravitatsion kuchlardan qanday foydalansa bo'lishini aniqlash kerak.

- Gravitatsion kuchning qanday ishlashini va u quyosh energiyasini ishlab chiqarishda qanday ta'sir qilishini tushunib oling.
- Tinglovchilar quyosh tizimidan energiya olishda gravitatsion kuchlarni qanday hisobga olish kerakligini o'rganishlari lozim.
- Gravitatsion kuchni energiya ishlab chiqarish tizimlarida qanday samarali qo'llash mumkinligini tushuntiradigan ilmiy xulosalar tayyorlang.

Nazorat savollari

1. Muammoli ta'lismi texnologiyasi deganda nimani tushunasiz va uning tabiiy fanlarni o'qitishdagi asosiy maqsadi nima?
2. Muammoli ta'lismi texnologiyasining an'anaviy o'qitish usulidan farqi nimada?
3. Tabiiy fanlarni o'qitishda muammoli vaziyatlarni yaratishning qanday usullari mavjud?
4. Tabiiy fanlar o'qitishda muammoli ta'lismi texnologiyasi o'quvchilarda qanday fikrplash qobiliyatlarini rivojlantiradi?
5. Muammoli ta'lismi texnologiyasi o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga qanday jalb qiladi?
6. Muammoli ta'lismi texnologiyasi orqali o'quvchilarni qanday ilmiy savollarga yo'naltirish mumkin?

7. Tabiiy fanlar darsida muammoli vaziyatlarni yechishda o‘quvchilar uchun qanday resurslar va materiallar talab etiladi?
8. Muammoli ta’lim texnologiyasida o‘quvchilarga qanday topshiriqlar berish samarali hisoblanadi?
9. O‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muammoga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishning qanday usullari bor?
10. Tabiiy fanlarda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘qituvchidan qanday maxsus ko‘nikmalarni talab etadi?

7-MAVZU: FAN TA’LIMIDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasining muhim elementlari
2. Loyiha strukturasi
3. Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi asosida Tabiiy fanlar (Science) darslarini tashkil etish

Tayanch tushunchalar: loyihaga asoslangan ta’lim, PjBLning asosiy elementlari, loyiha maqsadi, XXI asr ko‘nikmalarini

Siz insonga hech narsa o‘rgata olmaysiz, faqat uni o‘zida kashf qilishiga yordam bera olasiz.

Galileo Galiley

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning yoki PjBL) texnologiyasi - o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali rivojlantirishga qaratilgan ta’lim usuli. Bu yondashuv ta’lim jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi, chunki o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Loyihaga asoslangan ta’lim (PjBL) texnologiyasi ijtimoiy konstruktivistik ta’lim nuqtai nazariyasiga asoslangan "murakkab, asosiy savollar atrofida tuzilgan so‘rov jarayoni orqali o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishga jalg qiluvchi tizimli o‘qitish usuli". PjBL ta’lim oluvchilarga o‘z bilimlarini shaxsiy tajribalari va atrof muhit, ijtimoiy hayotga bog’liq holda qurish imkoniyatlarini taqdim etadi. Konstruktivistik tadqiqotchilarining ta’kidlashicha o‘quvchilarning ma’lumotlarni passiv o‘zlashtirishlaridan ko‘ra amaliy tajribalar asosida o‘rganishga jalg qilish samarali o‘rganishni amalga oshirishga imkon beradi [29]. PjBL o‘qituvchilar konstruktiv yondoshuv asosida samarali o‘rganish tajribasini namoyish etishda foydalaniladi. Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi fanlararo integratsiya asosida darslarni tashkil etishga imkon beradi.

Bir qancha tadqiqotlarni o‘rganish natijasida PjBL o‘quvchilar uchun ijobiy natijalarni ko‘rsatsada, lekin tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilari uni qo‘llashda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilari konstruktiv yondoshuv asosida loyihaga asoslangan ta’lim jarayonida quyidagi muhim elementlarni hisobga olishi kerak (3.2 rasm).

Ta’limda tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda PjBL dan foydalanish ijobiy natjalarga olib kelishi haqida ko‘plab fikrlar mavjud bo‘lsada, amalda PjBL dan tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilari kam foydalanadilar. Bunga sabab sifatida o‘qituvchilarning PjBL bilan darslarni tashkil qilish ko‘nikmasining yetishmasligi deyishimiz mumkin. Umuman olganda, tabiiy fanlar (Sceicne) o‘qituvchilari fanni o‘qitishda o‘zları qanday ta’lim olgan bo‘lsalar, shunday qilishadi.

PjBLni ta’limda qo‘llash o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tishni talab qiladi. Bunda o‘qituvchining roli ma’ruzachidan fasilitator vazifasiga o‘tadi. Ta’lim beruvchining asosiy vazifasi an'anaviy ta’limdagi kabi ma’ruzalar orqali to‘g’ridan-to‘g’ri ma’lumot berish o‘rniga, o‘quvchilarni faollashtira olish va qiziqtirish, kontentni o‘zlashtirishni rag’batlantirishdir. Ushbu o‘zgarish amalda o‘rnatilgan amaliyot va pedagogikadan uzoqlashishni anglatadi. Bu o‘z navbatida , o‘qituvchilar va muassasalar uchun PjBLni qabul qilishni qiyinlashtirishi va kontentni ishlab chiqish, o‘quv jarayoni va o‘quvchilarni baholash bo‘yicha qayta


o‘zgartirishlarni talab qiladi. PjBL ko‘plab muhim o‘zgarishlarni nazarda tutganligi sababli, o‘qituvchilar PjBL ni o‘z amaliyotlarida qo‘llashlari uchun uni to‘liq tushunishlari shart.

Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasining muhim elementlari (49-rasm)

1. Asosiy bilim va XXI asr ko‘nikmalari. PjBL o‘quvchi egallashi kerak bo‘lgan asosiy bilim va XXI asr ko‘nikmalari (tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlikda ishlash, muloqot qila olish, har qanday vaziyatga moslashib keta olish)ni o‘zida mujassam etgan bo‘lishi kerak.

2. Muammoli vaziyat. Dars muammoli vaziyatlarni yechishga qaratilgan bo‘lishi, tinimsiz so‘rov asosida muammoli vaziyatlar yaratilgan bo‘lishi kerak.

3. Chuqur o‘rganish. PBjL asosida darslarni tashkil etishda o‘quvchilarning chuqur o‘rganishiga e’tibor qaratilishi ya’ni qo‘yilayotgan muammo faqatgina bitta yechimga ega bo‘lmasligi, muammo ichidan yana muammolar yaratilishi, o‘quvchilar o‘zaro bahs-munozara orqali hamkorlikda ishlashlari, o‘zida mavjud bilimlarga tayanib, o‘rganishlar asosida yangi bilimlar yaratilishiga alohida urg‘u berilishi kerak.



49-rasm. PjBL ning asosiy elementlari

4. Ijtimoiy hayotiy vaziyatlarga qaratilgan reallik. PjBL da yaratilayotgan muammoli vaziyat albatta bugungi kunda dunyoda dolzarb bo‘lgan

muammolardan olinishi, olingen natija albatta muammoni yechimiga qaratilgan bo‘lishi kerak. PjBL da olingen natija va qo‘yilgan maqsad bir biriga mos kelishi kerak.

5. Ta’lim oluvchi tanlovi. PjBL da berilgan muammoli vaziyatdan muammoni aniqlash o‘quvchining o‘ziga qo‘yib berilishi, ta’lim oluvchi o‘z salohiyati, qiziqishi, bilim darajasi va qobiliyatidan kelib chiqib muammoni tanlashi lozim.

6. Erkin fikr yuritish imkoni. O‘quvchi ta’lim olish jarayonida erkin fikrlay olishi, o‘z fikrini bemalol bildirishi, o‘zgalar bilan babs munozara, muloqot olib borishi, o‘z fikrini himoya qila olishi kerak. Bu holatda o‘qituvchi o‘quvchilarga sharoit qilib berishi kerak. O‘quvchilarning fikrlari hurmat qilinishi, muhimi to‘g‘ri javob berish emas balki o‘quvchining javob berishga harakat qilishidir.

7. Reflektivlik. Jarayonda ishtirokchilar o‘z-o‘zini balki o‘zaro bir birlarini reflektiv tahlil qilib borishlari kerak. Ya’ni loyiha ishini bajarish jarayonida ular ishni to‘g‘ri bajarishyapdimi, natija gipotezalarga mosmi, mos bo‘lmasa qayerda xatolikka yo‘l qo‘yildi, qilgan xatolarini reflektiv tahlil qilish orqali to‘g‘rilab borishlari lozim.

8. Artefakt yaratish. Loyerha so‘ngida albatta artefakt (natijadan kelib chiqib xulosa, taqdimot, poster v.h.o) yaratilishi lozim. Ishtirokchilar o‘z qilgan ishlarini taqdimot qilishlari, birgalikda muhokama qilishlari lozim.

Loyerha strukturasi

1. Boshlang‘ich bosqich

a) Maqsad va vazifalarini aniqlash

- *Maqsadlar:* Loyerha qanday aniq natijalarga erishishni maqsad qiladi?
- *Vazifalar:* Shu natijalarga erishish uchun qanday vazifalar bajarilishi kerak?

b) Rejalashtirish

- *Resurslar:* Loyerhani amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan moddiy, moliyaviy va inson resurslari aniqlanadi.
- *Vaqt:* Loyerhani amalga oshirish uchun qancha vaqt kerakligi belgilanadi.

- *Bosqichlar*: Loyihaning har bir bosqichi aniqlanadi va tartib bilan rejalashtiriladi.

2. Tadqiqot va tayyorlov bosqichi

a) Ma'lumot topish

- *Ma'lumot qidirish*: Loyiha uchun kerakli ma'lumotlar to‘planadi.
- *Manbalarni o‘rganish*: Kitoblar, maqolalar, internet manbalari va boshqalar o‘rganiladi.

b) Tadqiqot

- *Tadqiqot usullari*: Anketalar, intervyular, tajribalar va boshqalar amalga oshiriladi.
- *Ma'lumotlarni tahlil qilish*: Topilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi va saralanadi.

3. Amalga oshirish bosqichi

a) Ishlab chiqish

- *Ijodiy ishlanmalar*: Loyiha doirasida ijodiy ishlanmalar va mahsulotlar yaratiladi.
- *Texnik ishlari*: Texnik jihatdan loyiha amalga oshiriladi (dasturlash, qurilish va boshqalar).

b) Nazorat va baholash

- *Nazorat*: Loyihaning amalga oshirilishi jarayonida nazorat olib boriladi.
- *Baholash*: Loyihaning sifatini va natijalarini baholash amalga oshiriladi.

4. Natijalarni taqdim etish

a) Taqdimot

- *Prezentatsiya tayyorlash*: Loyihaning natijalari haqida prezentatsiya tayyorlanadi.
- *Taqqoslash*: Loyihaning natijalari boshqa loyihalar bilan taqqoslanadi.

b) Qayta aloqa

- *Fikr-mulohaza*: O‘qituvchilar va sinfdoshlar tomonidan loyihaga berilgan fikr-mulohazalar olinadi.
- *Korreksiya*: Olingan fikr-mulohazalar asosida kerakli tuzatishlar kiritiladi.

5. Refleksiya

a) O‘rganilgan natijalar

- *Tahlil:* Loyihadan o‘rganilgan saboqlar tahlil qilinadi.
- *Xatolarni aniqlash:* Loyihani amalga oshirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi.

b) Tajribalar

- *Kelajak loyihalari:* Olingan tajribalar va saboqlar kelajakdagi loyihalarda qo‘llaniladi.
- *O‘z-o‘zini baholash:* Loyihada erishilgan yutuqlar va kamchiliklar o‘z-o‘zini baholash orqali aniqlanadi.

Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi asosida Tabiiy fanlar (Science)

darslarini tashkil etish (elektr energiyasi tanqisligi misolida)

Real muammoli vaziyat. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish dinamikasi barqarorlashdi. Mazkur tendensiya aholi turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshqa tomondan esa bu ikki omil elektr energiyasi iste’molining muttasil ravishda ortishiga sabab bo‘lyapti. 2030 yilgacha mamlakatda elektr energiyasiga bo‘lgan talab yiliga taxminan 6-7 foizga o‘sishi bashorat qilingan. Biroq O‘zbekiston bunday vaziyatga tayyor emas. Chunki mavjud quvvatlar ichki ehtiyojni to‘liq qondirish imkonini bermaydi. Tezkor choralar ko‘rilmasa, kelgusida energiya taqchilligi muammosi taraqqiyotimizga tushov bo‘lishi aniq (*Davr24 – O‘zbekiston, Markiy Osiyo va Dunyo yangiliklari*.).

Sizningcha elektr energiyasi tanqisligi yechimi sifatida nimalarni baholaysiz?

1-bosqich: Loyiha maqsadini belgilash

Maqsad: kundalik hayotda energiyadan oqilona foydalanish usullariga boshqalarning e’tiborini jalb qilish.

Natija (Mahsulot): Kundalik hayotda energiyani tejash bo‘yicha eslatma tayyorlanadi.

2-bosqich: Rejalashtirish,vazifalar:

- Energiya tejashning jamiyat hayotidagi ahamiyatini o‘rganish.

- Energiya tejashni targ‘ib qiluvchi reklama bilan tanishish.
- Kundalik hayotda energiyadan oqilona foydalanish usullarini aniqlash.
- Tadqiqot o‘tkazish va olingan ma’lumotlarni tahlil qilish.
- Energiyani tejash usullari haqida eslatmani yaratish.
- Bajarilgan ishni qayd etish va loyiha taqdimotini tayyorlash.

3-bosqich: Faoliyat

- O‘quvchi ma’lumotni to‘playdi.
- Loyerha mahsulotini tayyorlaydi.
- Bajarilgan loyerha ishiga oid taqdimotni tayyorlaydi.

4-bosqich: Natijalarni taqdim etish (50-rasm).



50-rasm. Loyerha taqdimoti

5-bosqich. Refleksiya.

- Loyihaning yakuniy natijasi sizga yoqdimi?
- Bu loyerha ishining maqsadiga qanchalik mos keladi?
- Qanday faoliyat natijasi samarasiz bo‘ldi? Nima uchun?
- Agar hammasini qaytadan boshlasangiz, nimani o‘zgartirgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

Darsda foydalanish mumkin bo‘lgan loyerha ishidan namuna.


Loyerha ishi-4. Qog‘ozdan eng baland minora yasash.

Annotatsiya. Ushbu muhandislik loyiha ishida siz qog'oz minorasini iloji boricha balandroq qurish uchun cheklangan materiallardan foydalanasiz. Siz yasagan minora mustahkam bo'lishi, yiqilib ketmasdan og'ir yukni ko'tarishi kerak.

Maqsad: Cheklangan (skotch, qog'oz va qaychi) asosida eng baland, mustahkam va og'ir yuk ko'tara oladigan minora qurish.

Kirish

Butun dunyo bo'ylab muhandislar turli shakl va o'lchamdagи turli xil kuzatuv minoralarini loyihalashtirganlar (1-rasm). Odatda minoralar har bir qavatida xonalar bo'lgan osmono'par binolardan farqli o'laroq, tepasida kuzatuv maydonchasi bo'lgan bo'shliqdan iborat bo'lishi mumkin. Bundan tashqari tepasida og'ir yuk bo'lgan suv minoralari va radio minoralarini o'z ichiga olishi mumkin (51-rasm).



51-rasm. Chapdan o'ngga: Space Needle (AQSh), Pitampura teleminorasi (Hindiston), Eyfel minorasi (Fransiya) va CN Tower (Kanada).

Ushbu loyihadan fizika darslarida bir nechta mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin. Ushbu loyihani bajarishda birinchi urinishda siz kutgan natijani bermasligi mumkin. Loyerha ishi siz kutgan natijani berishi uchun uni bir necha marta qayta bajarishingiz mumkin.

Asosiy tushunchalar: massa markazi, siqish, kuchlanish, ko‘ndalang kesim.

Savollar:

- Dunyo miqyosida qurilgan qanday minoralarni bilasiz?
- Qanday qilib bu minoralar juda baland va nozik ko‘rinsa ham yiqilmasdan turibdi?
- Cheklangan materiallar bilan qanday qilib minora qurish mumkin?
- Minora qurish uchun qanday umumiyligi loyiha tanlagan bo‘lardingiz?
- Sizning minorangiz nafaqat o‘z og‘irligini, balki qo‘shimcha yukni ham ko‘tara olishini qanday tushunasiz?

Kerakli jihoz va materiallar:

- A4 formatdagi oltita qog‘oz.
- Lenta (skotch) 2,5 sm kengligida. Ikki tomonlama lenta, yopishqoq lenta va qadoqlash tasmasiga ruxsat etilmaydi.
- Qattiq, silliq sirt, masalan stol usti
- Qaychi
- Qalam
- Metrik lenta o‘lchovi yoki o‘lchagich
- Sekundomer
- Ochilmagan konserva qutisi, 14-16 gr dan 400-450 gr. Xavfsizlik nuqtai nazaridan shisha idishlarga ruxsat berilmaydi.

Tajriba jarayoni:

Ushbu loyiha ishi bo‘yicha 2021-yil tanlov e’lon qilingan bo‘lib, tanlovning asosiy maqsadi iloji boricha baland va tepasida bir oziq-ovqat konserva bankasi qo‘yishi mumkin bo‘lgan qog‘oz minorasini qurishdir. 3-rasmida bir nechta misollar keltirilgan.

Ushbu loyihani amalgaga oshirishda amal qilish kerak bo‘lgan qoidalar

1. Minorani faqat qog‘oz va lenta (skotch)dan qurish mumkin. Foydalanimizdan asboblardan minoraning strukturaviy elementlari sifatida ishlatalish mumkin emas.
2. Siz oltidan ortiq qog‘ozdan foydalana olmaysiz.
3. Siz bir nechta lenta rulonidan foydalana olmaysiz.

4. Minoraning pastki qismini gorizontal joylashgan stol yuzasiga yopishtirish mumkin. Uni boshqa biror narsaga yopishtirib bo‘lmaydi.



53-rasm. 2021-yilgi tanlovda qatnashgan qog‘oz minoralaridan namunalar

5. Qog‘oz parchalarini qatlash, egish, o‘rash, kesish va hokazolarga ruxsat beriladi.
6. Materiallar narxi mutanosib hisoblanmaydi. Agar siz qog‘oz varag‘ini yarmiga kesib tashlasangiz va faqat yarmidan foydalansangiz, u baribir butun varaq sifatida hisoblanadi.
7. Baholash uchun 1 varaq qog‘oz 1 varaqdir.
8. Minora qo‘yilgan konserva bankasini (14–16 g dan 400–500 g) kamida bir daqiqa davomida qulab tushmasdan ushlab turishi kerak. Ushbu daqiqada siz minoraga tegishingiz, o‘zgartirishingiz yoki ta’mirlashingiz mumkin emas.
9. Konserva minora ustida erkin turishi va olinadigan bo‘lishi kerak. Uni minoraga yopishtirib bo‘lmaydi.

Loyiha dizayni

Minorani qurishni boshlashdan oldin, loyiha ishining turli xil dizaynlarini o‘ylab ko‘rish yaxshi fikrdir. Tanlangan dizaynlarni qog‘ozga tushiring. Ana shunda minorani qurishda xatoga yo‘l qo‘ymasligingiz mumkin. Minorani qurish jarayonida uni mustahkamligiga ishonch hosil qilish uchun bosib ko‘rishingiz mumkin. Siz qurgan minora o‘zingiz xohlaganingizdek chiqmasa bunda tushkunlikka tushmasdan uni o‘zgartirishingiz mumkin.

Minorani qurib bo‘lgach, idishni minora tepasiga sekin qo‘yib, uni sinab ko‘ring. Qo‘llaringizni yaqin joyda tutib turing, agar u qulab tushsa yoki minora

qulab tushsa, uni ushlab olishga tayyor bo‘ling. Agar minorangiz bukila boshlasa yoki cho‘kishni boshlasa va u idishni bir daqiqa ushlab turmasa, rasmiy sinovga o‘tishdan oldin uni mustahkamlashingiz kerak. Rasmiy sinovga o‘tgach konserva qutisini minora ustiga qo‘ying va sekundomerni ishga tushiring. Minora qulab tushmasligiga ishonch hosil qilish uchun bir daqiqa kuting. Minora egilib yoki bukila boshlasa ham toki minora qulab yoki konserva qutisi yerga tushib ketmasa sekundomerni to‘xtatmasligingiz kerak. Lekin bu holatda uni ta’mirlay yoki o‘zgartira olmaysiz.

Qurilgan minoralar yuqorida keltirilgan talablar asosida baholanadi.

Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarga tabiiy fanlarni o‘rganish orqali real muammolarni hal qilishni o‘rgatish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, guruhda ishlash va amaliy yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi. Har bir loyiha o‘quvchilarning analitik fikrlashini, ijodiy yondashuvini va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Topshiriqlar

1-topshiriq

Shaharni ekologik toza hududga aylantirish



54-rasm. Havo ifloslanishining inson salomatligiga ta’siri

Vaziyat: Sizning shahringizda havoning ifloslanishi darajasi o‘sib bormoqda va bu aholi salomatligiga ta’sir qilmoqda (-rasm). Mahalliy hukumat ekologik muammolarni hal qilish uchun yangi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni

rejalashtirmoqda. Siz ekolog sifatida, ushbu muammoni hal qilish uchun qanday amaliy yechimlar taklif qilasiz?

2-topshiriq

Bir ko‘lda plastik chiqindilarining ko‘pligi sababli suvdagi hayvonlar va o‘simliklarning hayoti tahdid ostida. Tadqiqotchilar ko‘lda plastikni kamaytirish va o‘simliklar bilan hayvonlar turini saqlab qolish uchun qanday ekologik muammolar borligini o‘rganmoqda.



55-rasm.

Savollar:

- 1 Plastik chiqindilarning tabiatdagi ta’sirini qanday tushuntirish mumkin?
2. Plastik moddalar qanday qilib o‘simliklar va hayvonlarga qanday zarar yetkazadi?
3. Plastik chiqindilardan qanday ekologik usullar bilan qutulish mumkin va bu jarayonni qanday samarali amalga oshirish mumkin?

Maqsad: Ekologik muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilishga yo‘naltirilgan aniq va samarali yechimlarni ishlab chiqish.

Nazorat savollari

1. Loyihalash texnologiyasi deganda nimani tushunasiz va uning tabiiy fanlarni o‘qitishdagi asosiy maqsadi nima?

2. Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihalash texnologiyasi qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
3. Loyihalash texnologiyasi o‘quvchilarda qanday ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi?
4. Tabiiy fanlar darsida o‘quvchilarga qanday loyihalar tavsiya etiladi va ular qanday shakllantiriladi?
5. O‘quvchilarni loyihalash jarayoniga jalb qilish uchun qanday motivatsion usullardan foydalanish mumkin?
6. Tabiiy fanlar darsida guruhda loyihalash ishlari o‘quvchilar o‘rtasida qanday hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi?
7. Loyihalash texnologiyasini tabiiy fanlar bilan bog‘lash o‘quvchilarda qanday ilmiy qiziqish va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi?
8. Tabiiy fanlarda loyihalash texnologiyasi yordamida real hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmasini qanday rivojlantirish mumkin?
9. Loyihalash texnologiyasi yordamida o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilish va ekologik mas’uliyat tushunchalarini qanday yetkazish mumkin?
10. Tabiiy fanlar darsida loyihalarni baholash uchun qanday mezonlar va usullar qo‘llaniladi?

8-MAVZU: TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA LOYIHA ISHLARIDAN FOYDALANISH

1. Loyerha ishi: Karton qog‘ozidan quyosh pechini yasash
2. Loyerha ishi: Qog‘ozdan to‘pning yugurishi yo‘li mashinasini yasash
3. Loyerha ishi: Parfyum ishlab chiqarish

Tayanch tushunchalar: loyerha ishi, quyosh pechi, karton qog‘ozi, to‘pning yugurish yo‘li, parfyum ishlab chiqish

Loyerha ishi-1. Karton qog‘ozidan quyosh pechini yasash Annotatsiya. Bu loyerha quyosh energiyasidan to‘g‘ri foydalanadigan, suvni isitish yoki qaynatish uchun quyosh nurlarini to‘playdigan pechni yasashdan iborat (56-57-rasm).



56-rasm. Loyerha asosida yaratilgan quyosh pechidan namuna.

Bu loyerha ishini bajarish uchun ko‘p xarajat talab qilinmaydi. Kattalar nazorati tavsiya etiladi. Pech ovqat pishirish yoki suv qaynatish uchun mo‘ljallangan. Xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda ehtiyyotkorlik bilan foydalaning.

Maqsad: Karton quti va alyuminiy folga kabi materiallardan foydalanib quyosh pechini qurish.

Kirish

Quyosh energiyasidan, quyoshdan chiqadigan yorug'lik va issiqlikdan foydalanim ishlaydigan ko'plab qurilmalar jumladan quyosh panellari, sun'iy fotosintez va quyosh pechlari ishlab chiqilgan.



57-rasm. Quyosh pechi

Quyosh pechlari faqat quyosh nuridan foydalangan holda ovqat pishirishi, suvni isitishi, qaynatishi va hattoki asboblarni sterilizatsiya qilishi mumkin. Quyosh pechlari qanday ishlaydi?

Quyidagi rasmda ushbu loyihada yaratiladigan va sinovdan o'tkaziladigan samarali, qurish oson quyosh pechidan namuna ko'rsatilgan. Pech quti ichidagi qucidir. Ichki quti polietilen qoplama (klyonka) bilan qoplangan. Polietilen qoplama **issiqlik** tomi kabi ishlaydi. U aks ettirilgan quyosh nurlarini ichki qutiga o'tkazishga imkon beradi, shuningdek radiatsiyaviy issiqlikn ni saqlaydi.

Bu quyosh pechi ham oson, ham juda arzon!

Ichki qutining pastki qismida qora rangga bo'yalgan folga bilan qoplangan taglik mavjud. Taglik ikkita maqsadga xizmat qiladi. Birinchidan, u pechni ushlab turadi, ikkinchidan "issiqlik qabul qiluvchi" vazifasini bajaradi. Taglik to'g'ridan-to'g'ri va qaytgan quyosh nurlarini o'zlashtiradi, bu esa uni isitadi. Keyin taglik issiqlikn ni chiqaradi va bu energiya ichki qutida saqlanadi va uni isitadi. Plastik oyna, ichki quti va tashqi quti o'rtasida joylashgan havo bo'shlig'i izolyatsiya kabi issiqlikn ni ushlab turadi.

Ushbu loyiha quyosh pechini qurish bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rsatmalar beradi.

Asosiy tushunchalar

- Quyosh energiyasi
- Issiqxonalar
- Yorug'lik nuri
- Kuler
- Radiatsion energiya
- Izolyatsiya

Savollar

- Radiatsion energiya nima? Uni isitish uchun quti tipidagi quyosh pechida qanday ishlataladi?
- Oddiy qutidan yasalgan quyosh pechi qanchalik qiziydi?
- Ovqat pishirish uchun pech qancha issiq bo'lishi kerak?
- Quyosh pechi bulutli kunda ishlay oladimi?
- Nima uchun qora qozondan foydalanish kerak?

Kerakli jihoz va materiallar

- Karton qutilar 2 ta. Karton qutini tanlash bo'yicha ba'zi eslatmalar:
 - Ichki quti kamida $38\text{ sm} \times 38\text{ sm}$ ga teng bo'lishi va tajribada foydalanish uchun ishlataladigan idishni ushlab turish uchun yetarlicha katta bo'lishi kerak. U idishdan taxminan 2,5 sm balandroq bo'lishi kerak.
 - Tashqi quti ichki qutini o'rabi turishi, har tomonidan ikki quti o'rtasida kamida 1,5 sm havo bo'shilig'i bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ichki qutidan taxminan 2,5 sm-5,0 sm balandroq bo'lishi kerak.
 - *Eslatma:* Karton qutining hajmini kesish va yopishtirish orqali to'g'rilashingiz mumkin.
- Metrik o'lchagich yoki o'lhash tasmasi
- Kanselyaariya pichog'i
- Qopqoqni tayyorlash uchun karton varaq. Varaq ichki quti teshigidan taxminan 8-16 sm kattaroq bo'lishi kerak.
- Metall kiyim ilgich.
- Gazeta varaqlari (bir nechta)

- Bir rulon alyuminiy folga
- Qora rangli bo‘yoq (rangli bo‘yoq yuvilib ketmaydigan bo‘lishi kerak).
- Kichik bo‘yoq cho‘tkasi
- Yelim
- Polietilen xalta (klyonka).
- Pech termometrlari yoki lazerli termometr.

Xavfsizlik qoidalari: ushbu loyihada yaratiladigan quyosh pechi ovqat pishirish yoki suv qaynatish uchun mo‘ljallangan. Gaz pechi kabi, quyosh pechining ichidagi harorat jiddiy kuyishga olib keladigan darajada yuqori bo‘ladi. Kuyib qolmaslik uchun pechkadan ehtiyyotkorlik bilan foydalaning. Bundan tashqari, pechni tayyorlashda kartonni kesish uchun foydalaniladigan pichoq bilan ehtiyyot bo‘ling.

Tajriba jarayoni:

Quyosh pechining asosini qurish

1. Tashqi qutining qopqoqlarini yopib, ichki qutini uning ustiga qo‘ying. Quyidagi 58-rasmda ko‘rsatilganidek, ichki qutining pastki qismi bo‘ylab tashqi qutining ustki qismiga chiziq tortib belgilab oling.



58-rasm.

2. Ichki qutini olib tashlang va ehtiyyotkorlik bilan kanselyariya pichog`i orqali quyidagi 59-rasmda ko‘rsatilganidek, tashqi qutining yuqori qismida teshik hosil qilish uchun chiziq bo‘ylab kesib oling.



59-rasm

Hozircha tashqi qutini chetga surib qo‘ying - uni 6-bosqichda yana ishlatasiz. Pechning (ichki quti) qanchalik baland bo‘lishini belgilab olish kerak. Bu pechga solinadigan idishdan taxminan 2,5 santimetr (sm) balandroq va tashqi qutidan taxminan 2,5 sm - 5,0 sm qisqaroq bo‘lgani ma’qul. Shu tarzda pech yig‘ilganida qutilarning orasida bo‘s sh joy qoladi.

3. 60-rasmida ko‘rsatilganidek, ichki qutining burchaklari belgilangan balandlikka qadar ehtiyyotkorlik bilan pichoq bilan kesib olinadi.
4. Ichki qutining kengaytirilgan qopqoqlarini hammasi kesib tashlanadi va tepa qismi ochiq bo‘lgan ko‘rinishga keladi. Ichki qutini hozircha chetga surib turamiz toki 9-bosqichga yetmaguncha.



60-rasm.

5. Mabodo tashqi qutini ham qisqartirish kerak bo‘lsa, uni ham qisqartirish kerak bo‘ladi. Tashqi qutining ichki qutidan taxminan 2,5 sm - 5 sm balandroq bo‘lishini

inobatga olgan holda balandlik o'lchanib tashqi qutining har bir burchagiga belgi qo'yiladi. Keyin ehtiyotkorlik bilan pichoq yoki qaychi yordamida belgi bo'ylab quti kesiladi.

6. Quyidagi 61-rasmda ko'rsatilganidek, quti ikki qismga ajraladi. Bo'laklarni bir-birining ustiga qo'yib (biri ikkinchisining ichiga kiradi) belgilangan balandlikda tashqi quti yasash uchun lenta yoki kley bilan yopishtiriladi.



61-rasm.

7. Quyidagi 62-rasmda ko'rsatilganidek, tashqi qutining ichki qismiga alyuminiy folga yopishtiring.



62-rasm.

8. Quyidagi 63-rasmda ko'rsatilganidek, bir nechta g'ijimlangan gazetani tashqi qutiga joylashtiring, shunda ichki qutini tashqi qutining ichiga o'rnatganingizda, ichki qutining kesilgan qirralari tashqi qutining balandligi bilan teng bo'ladi (69-rasm). Bundan tashqari, ichki va tashqi quti orasidagi yon bo'shliqlarga g'ijimlangan gazeta bo'laklarini joylashtiring - bu pechni izolyatsiya qilishga yordam beradi.



68-rasm



69-rasm.

9. Ichki qutining ichki qismiga alyuminiy folga yopishtiring.
10. Ichki quti tashqi qutining ichiga o‘rnatilgan bo‘lsa, quyida 70-rasmda ko‘rsatilganidek, ichki qutining yuqori chetini ular tegib turgan tashqi qutining perimetriga yopishtiring.

Eslatma: Yelim qotib qolganda qutilarni bir-biriga yopishtirish uchun bir nechta lenta kerak bo‘lishi mumkin.




70-rasm.

11. Ichki qutining pastki qismi bilan bir xil o‘lchamdagiga kartonni kesib oling. Quyidagi 71-rasmda ko‘rsatilganidek, alyuminiy folgani bir tomoniga yopishtiring. Qora bo‘yoq yordamida folgani qora rangga bo‘yab, quyida 11-rasmda ko‘rsatilganidek, uni quritishga qo‘ying.

a. *Eslatma*: Alyuminiy folga bilan kartonni yaxshilab qoplash uchun bir necha (2 yoki 3) qatlam hosil qiling.



71-rasm.



72rasm.

12. Bo‘yoq quriganidan so‘ng, kartonni ichki qutining pastki qismiga bo‘yalgan tomonini yuqoriga qaratgan holda joylashtiring. Quyosh pechining poydevori tugatildi va quyidagi 73-rasmga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Quyosh pechining olinadigan qopqog‘ini qurish

1. Katta karton varaqlardan birini (qopqoq uchun ishlatajigan) oling va uning ustiga quyosh pechining poydevorini qo‘ying (markazga). Quyidagi 74-rasmda ko‘rsatilganidek, pechning tag qismini kartonga chizib belgilab oling.



73-rasm.



74-rasm

2. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab kartonning to‘rt tomonini ehtiyojkorlik bilan pichoq yordamida kesib oling. Keyin kartonni kesilgan qirralarini ichkariga qarab qatlang va qopqoq hosil qiling.

3. Quyida 75-rasmda ko‘rsatilganidek, qopqoqni yasash uchun kartonning kesilgan burchaklarini bir biriga yopishtiring. 76-rasmda ko‘rsatilganidek,

burchaklarni yopishtirishda ularni bir-biriga bog'lash uchun biriktiruvchi qisqichlardan foydalanishingiz mumkin.

a. *Eslatma: Qopqoqni pechga yopishtirmang!* Idishlarni pechning ichiga joylash va uni tashqarisiga chiqarishda uni olib tashlappingiz kerak bo'ladi.



75-rasm.

76-rasm.

4. Qopqoqni yasab bo'lgach, quyida 77-rasmida ko'rsatilganidek, quyosh pechiga kutilganidek mos kelishini tekshiring.
5. Qopqoqqa pechning teshigi (ichki quti o'lchami) bilan bir xil o'lchamdag'i to'rtburchak chizing va 78-rasmida ko'rsatilganidek, uchta tomonni kesib oling. Hosil bo'lgan qopqoqni yuqoriga qayiring (orqa tomoniga qarab).



77-rasm.

78-rasm

6. Quyidagi 79-rasmida ko'rsatilganidek, siz kesgan qopqoqning ichki qismiga alyuminiy folga yopishtiring.




79-rasm. Alyuminiy folga yopishtirilgan pech qopqog‘i.

7. Keyin qopqoqni aylantiring va 80-rasmda ko‘rsatilganidek, pech qopqog‘iga polietilen xalta (plyonka)ni ikki qavat qilib yopishtiring.




80-rasm. Qopqoqning ichki qismiga polietilen xaltasini yopishtirilgan holati.

- a. Bu ikki qavatlari klyonka hosil qiladi. Ikki qatlam bir-biridan ajralib qolmasligiga e’tibor qarating va mahkamlang. Bu suv bug‘ining hosil bo‘lishini va pech ichiga kirishini oldini oladi.
 - b. Shu bilan bir qatorda, polietilen xaltaning qopqoqning teshigini to‘liq yopishiga ishonch hosil qiling.
8. Quyidagi 81-rasmda ko‘rsatilganidek, 30 sm uzunlikdagi kiyim ilgich simini bukip qopqoq tayanchini yasang.
9. Qopqoqni yuqorida ushlab turish uchun 82-rasmda ko‘rsatilganidek, qopqoq tayanchini qopqoqning gofirovkalariga joylashtiring. Quyosh pechinining qopqog‘i tayyor!



81-rasm. 30 sm uzunlikdagi kiyim ilgich simidan yasalgan qopqoq tayanchi



82-rasm. Tugallangan quyosh pechining qopqog'i, tayanch qopqoqni yuqoriga ko'tarib turadi.

10. Yelim quriganidan so'ng, quyosh pechi to'liq pishirishga tayyor. Qopqoq quyosh pechining ustiga qo'yilgandan so'ng, tugallangan quyosh pechi quyidagi 83-rasmdagiga o'xhash bo'lishi kerak.

Quyosh pechining ishlashini tekshirish

Endi quyosh pechining ishlashini sinab ko'ramiz. Tajribani pech ichiga suv solingan idishni solib qaynashi uchun qancha vaqt ketishini hisoblash yoki pech qizigandan keyin ichidagi haroratni o'lchash orqali bajarishingiz mumkin. Quyosh pechini sinab ko'rganiningizda, uni quyoshli kunda, tashqarida juda issiq bo'lganda ($>10^{\circ}\text{C}$ yoki $>50^{\circ}\text{F}$), quyosh pechi quyosh yo'nalishiga qaragan holda sinab ko'ring.



83-rasm. Tugallangan quyosh pechi

1. *Suvni qaynatish uchun qancha vaqt ketishini tekshirish:* Sayoz qora qozonga ma'lum miqdorda suv (masalan, 2 stakan) quying. Quyosh pechining suvni qaynatishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi. Laboratoriya daftaringizga qancha suv ishlatganingizni va suvning qanchalik tez qaynaganini yozib qo'ying. Ushbu ma'lumotlarni yozib olish uchun ma'lumotlar jadvalini tuzishingiz mumkin.
2. *Quyosh pechining ichidagi haroratni o'lchash:* Quyosh pechining haroratini ma'lum vaqtgacha qizdirgandan so'ng o'lchash uchun pech termometridan yoki infraqizil termometrdan foydalaning. Vaqt miqdori, masalan, 45 daqiqa. Pech termometridan foydalanish uchun termometrni pechda ushlab turing va keyin pechni tezda oching va haroratni ko'ring (agarda siz pechning klyonkasi orqali haroratni o'qiy olmasangiz).
- a. Laboratoriya daftaringizda quyosh pechining harorati va haroratni o'lchash uchun qanday usuldan foydalanganingizni yozib qo'ying.
3. Quyosh pechingiz qanchalik yaxshi ishladi? Natijalaringiz sizni hayratda qoldirdimi? Sizningcha, uni yanada yaxshiroq ishlatish mumkinmi?

Samaradorlikni oshirish

Siz qurban quyosh pechi quyoshli kunlarning ko'p qismida yaxshi ishlashi kerak. Samaradorlikni oshirish uchun ko'proq issiq kunlarda foydalanish yoki yanayam samaraliroq qilish uchun quyosh pechining dizaynnini o'zgartiring. Uni qanday o'zgartirishni xohlayotganingizni o'ylab ko'ring va keyin o'zgartirilgan

dizayn yordamida ikkinchi quyosh pechini quring. Loyiha bo'yicha yasalgan quyosh pechini va o'zingiz yangi loyihangiz asosida yashagan quyosh pechingizni sinab ko'ring va o'zgartirilgan quyosh pechingiz dastlabkisidan samaraliroq ekanligini tekshiring.

1. Quyosh pechining dizaynnini yanada samaraliroq qilish bo'yicha ba'zi tavsiyalar:

- a. Pechning hamma yon tomonlarini alyuminiy folga bilan o'rang..
- b. Pechning tag qismi moslamasini alyuminiy plyonkali metall taglik yasang. Buni qora rangga bo'yab, uni pechning pastki qismidan biroz ko'taring.
2. O'zgartirilgan loyihadan foydalanib, ikkinchi quyosh pechingizni qurbaningizdan so'ng, jarayonning "Quyosh pechining ishlashini sinab ko'rish" bo'limini bir vaqtning o'zida ikkala pech bilan takrorlash orqali ikkala quyosh pechini birgalikda sinab ko'ring.
 - a. E'tibor bering, agar siz pechlarda suv qaynatish uchun qancha vaqt ketishini sinab ko'rsangiz, sizga ikkita bir xil qora idish kerak bo'ladi. Xuddi shunday, agar siz pechlar ichidagi haroratni tekshirayotgan bo'lsangiz, sizga ikkita bir xil pech termometri yoki bitta infraqizil termometr kerak bo'ladi .
 - b. Agar siz ikkita bir xil pech termometridan foydalanayotgan bo'lsangiz, avval ikkala termometr ham bir xil ko'rsatkichni ko'rsatishiga ishonch hosil qiling.
